

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligining markaziy va hududiy bo‘linmalarda faoliyat olib borayotgan rahbar va mutaxassislarni vakant lavozimlar uchun beriladigan savollar ro‘yxati

№	Savol	Javob
Sanoatlashgan intensiv bog‘ va uzumzorlarni rivojlantirish boshqarmasi		
1.	Sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz?	Sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar — bu 10 gektar yoki undan ortiq yer uchastkasida, pakana va yarimpakana payvandtaglar asosida yetishtirilgan sermahsul ko‘chatlar zich ekish sxemasi bo‘yicha joylashtirilgan, resurs tejovchi agrotexnologik tadbirlar hamda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari asosida barpo etilgan mevali bog‘ va tokzorlardir
2.	Aprobatsiya deganda deganda nimani tushunasiz?	Aprobatsiya — bu hosilga kirgan mevali bog‘ va tokzorlarning holatini baholash hamda ularning hosildorligini oldindan aniqlash jarayonidir.
3.	Mineral o‘g‘itlar nima?	Tayyorlangan yoki qazib olingan, tarkibida mineral shakldagi oziqlantiruvchi moddalar bo‘lgan o‘g‘itlar.
4.	Organik o‘g‘itlar nima?	Kelib chiqishi o‘simlik yoki hayvonlar bilan bog‘liq moddalardan tashkil topgan o‘g‘itlar.
5.	Mikrobiologik o‘g‘it nima?	Tarkibida mikroorganizmlar bo‘lgan o‘g‘itlar.
6.	Kimyolashtirish vositalari deganda nimani tushunasiz?	O‘simliklarning rivojlanishi va pishib yetilishini tezlashtirish, hosildorligi va sifatini oshirish, shuningdek, tuproq unumdorligini yaxshilash uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalar.
7.	Vegetatsiya davri deganda nimani tushunasiz?	Qishloq xo‘jaligi ekini ekilganidan boshlab uning pishib yetilguniga qadar bo‘lgan davr.
8.	Iqtisodiy jihatdan samarasiz bog‘ va tokzor deganda nimani tushunasiz?	Iqtisodiy jihatdan samarasiz bog‘ va tokzor — bu so‘nggi uch yil mobaynida har yili olingan daromadi uni parvarishlashga sarflangan xarajatlarni qoplamaydigan, shuningdek, undagi ko‘chatlar soni umumiy bog‘ (yoki tokzor) maydoniga nisbatan 70 foizdan kam bo‘lgan holatdagi bog‘ va tokzorlardir.
9.	Kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz?	Kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlar — bu ekilgan navlarning amaliy hosildorligi ularning ilmiy asoslangan me‘yoriy (normativ) hosildorlik ko‘rsatkichlaridan past bo‘lgan bog‘ yoki tokzorlar maydonidir.
10.	Yaroqsiz bog‘ va tokzorlar deganda nimani tushunasiz?	Yaroqsiz bog‘ va tokzorlar — bu muayyan maydonda joylashgan, iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosil beradigan, ko‘chatlar soni kamaygan, kuchli shikastlangan, standart talablarga javob bermaydigan, shuningdek, kasallik va zararkunandalar bilan qattiq zararlangan, tuproq-iqlim sharoiti hamda ekish sxemasiga mos kelmaydigan bog‘ va tokzorlardir.
11.	Mevali bog‘ va tokzorlarda aprobatsiya qachon o‘tkaziladi?	Aprobatsiya hosilni terib olishdan 15—20 kun oldin o‘tkaziladi.

№	Savol	Javob
12.	Aprobatsiya qanday tartibda o‘tkaziladi?	Aprobatsiyada daraxtning bitta ona shoxidagi mevalar soni sanalib va daraxtdagi barcha ona shoxlar hisoblanib, unga ko‘paytiriladi,
13.	Aprobatsiya o‘tkazilayotganda 1 gektar maydondan necha tup daraxt tanlab olinadi?	1 gektar maydondan turli joylardan jami 10 tup daraxt tanlab olinadi va shu usulda o‘rganish olib boriladi. Bu orqali olinadigan hosil oldindan aniqlanadi.
14.	Resurs tejovchi texnologiyalar deganda nima tushuniladi?	Resurs tejovchi texnologiyalar — bu suv, energiya, mehnat va moddiy vositalarni samarali va tejimli foydalanishga qaratilgan usul va vositalar majmuasidir.
15.	Bog‘dorchilikda eng keng qo‘llaniladigan resurs tejovchi texnologiyalar qaysilar?	Tomchilab sug‘orish tizimi hamda muqobil energiya resurslari.
16.	Tomchilab sug‘orishning afzalliklari.	Suvni 30-40% gacha tejaydi, o‘simlik ildiz qismiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri suv yetkazib beradi, har bir daraxtga mo‘ljallangan o‘lchovda suv berish, mineral va organik o‘g‘itlarni ko‘chatning ildiz tizimiga yetkazib berishi.
17.	Tomchilatib sug‘orishda an‘anaviy usulga nisbatan necha foiz suv tejiladi?	30–40% suv tejiladi.
18.	Mulchalash nima va u qanday foyda beradi?	Mulchlash — bu yer yuzasiga maxsus organik yoki noorganik materiallar (po‘stloq, somon, polietilen qoplama) yoyishdir. Foydalar, namlik saqlanadi, o‘t-o‘lan chiqishi kamayadi, yer harorati barqaror bo‘ladi, yer o‘tkazuvchanligi yaxshilanadi.
19.	Intensiv bog‘lar an‘anaviy bog‘lardan qanday farq qiladi?	Ekish sxemasi, hosildorlik 3–4 barobar yuqori, erta meva beradi (2–3 yilda), pakana va yarim payvandtaglarda ekiladi, agroteknik tadbirlarni amalga oshirish qulay.
20.	O‘simliklarni himoya qilish vositalari bu.	O‘simliklarni himoya qilish uchun qo‘llaniladigan kimyoviy vositalar va biologik himoya vositalari (insektoakaratsidlar, rodentitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar, urug‘dorilagichlar, feromonlar, defoliantlar, desikantlar va boshqalar);
21.	Bog‘dorchilikda «In-Vitro» usulida yetishtirilgan ko‘chatlar yuqori sifatli deb hisoblanadi.	Sterillik, genetik bir xillik, tez o‘sinh va kasalliklardan holi.
22.	Payvantak nima?	Pastki qism, ya’ni ildiz tizimini.
23.	Payvanddust nima?	Yuqori qism, ya’ni poya, barg, meva beradigan qism.
24.	Urug‘ mevali ekinlarga qaysi meva ekinlari kiradi?	Olma, behi, nok.
25.	Subropik mevalarga qaysi meva ekinlari kiradi?	Anor, anjir, xurmo, chilonjiyda.
26.	Qaysi meva o‘simlik turlari faqat danaklilar guruhiga kiradi?	O‘rik, gilos, tog‘olcha olcha.
27.	Rezavor mevalar turlariga qaysi mevalar kiradi?	Smorodina, malina, qulupnay, ejevika, golubika.
28.	Yong‘oqsimonlar meva turlariga qaysi mevalar kiradi?	Yong‘oq, bodom, pista, funduk, pekan.
29.	Subtropik mevalar turiga qaysi mevalar kiradi?	Anjir, xurmo, anor, chilonjiyda.
30.	Sitrus mevalar turiga qaysi mevalar kiradi?	Apelsin, trifoliata, baggaradiya, limon, mandarin.
31.	Harorat necha darajagacha pasayganda anorning yillik novdalari zararlanadi?	12-15°C.
32.	Anjir va anor o‘simligi necha daraja sovuqda zararlanadi °C?	10°C.

№	Savol	Javob
33.	Sho‘rga nisbatan bardosh beruvchi mevali daraxt turini ko‘rsating?	Jiyda anor.
34.	Ko‘chatzorni 1-dalasida olma nihollarini ekish sxemasini aniqlang? (sm)	70×30.
35.	Smorodina (qorag‘at) qanday sxemada ekiladi m?	3,0x1,5.
36.	Meva o‘simliklarini kurtak payvand qilish uchun qulay muddat	Avgust.
37.	Limon qalamchalarini ekishda ildiz olishi uchun necha bo‘g‘im bo‘lishi kerak?	3 bo‘g‘im.
38.	Olma uchun kuchsiz o‘suvi payvandtaglar qaysilar?	M9, M26.
39.	Anor ko‘chatlari qanday sxemada o‘tkaziladi, m?	5x4 sxemada.
40.	Payvantaga kurtak payvand qilinadigan joyi ildiz bo‘g‘izidan necha sm balandlikda bo‘ladi?	10 sm balandlikda.
41.	Bog‘larga nima uchun yaxob suv beriladi?	Namlik zaxirasini yaratish, zararkunandalarga qarshi kurash, sovuqqa chidamlilik, tuproq unumdorligi.
42.	Meva ko‘chatzorlarini asosiy qismlari	Ko‘paytirish, shakl berish, ona ko‘chatzor qismlari.
43.	Mevachilikda terassa usuli qaysi mitaqaalarda qullaniladi	Tog‘ oldi qir adirliklarda.
44.	Bog‘da meva ko‘chatlarini joylashtirishning eng ko‘p tarqalgan usuli?	To‘g‘ri to‘rtburchak usuli.
45.	Ko‘chat o‘tqaziladigan chuqurlarning kengligi qancha bo‘lishi kerak?	50-60 sm.
46.	Qaysi meva tarkibida eng ko‘p moy saqlaydi?	Yong‘oq, bodom, pista.
47.	Meva ekinlarida qaysi ildizlar ko‘p miqdorda bo‘ladi?	So‘ruvchi ildizlar.
48.	Qaysi meva ekini eng erta hosilga kiradi va qisqa umr ko‘radi?	Qulupnay.
49.	Kurtak payvandda necha yillik qalamchalardan foydalaniladi?	Bir yillik.
50.	Qalamcha payvand qilishning qulay muddati?	Fevral-mart.
51.	Eng ko‘p qo‘llaniladigan payvand turi?	Kurtak payvand.
52.	Yashil qalamchasidan ko‘paytiriladigan meva ekinini ko‘rsating?	Tok, limon.
53.	Danakli meva ekinlarida kurtak payvandlarning tutganligi qancha kundan so‘ng aniqlanadi?	5-10 kundan so‘ng.
54.	Ko‘chatzorga payvand qilingan ko‘chatlarni ekish bilan ko‘chat yetishtirish necha yilga cho‘ziladi?	2 yilga.

№	Savol	Javob
55.	5 x 5 m sxemada ekilganda 1 gektar maydonga qancha tup gilos ko'chati joylashadi?	400 tup.
56.	8 x 6 m sxemada ekilganda 1 gektar maydonga qancha tup olma ko'chati joylashadi?	208 tup.
57.	10 x 10 m sxemada ekilganda 1 gektar maydonga qancha tup o'rik ko'chati joylashadi?	100 tup
58.	Urug'li meva daraxtlarini eng qulay kesish muddati?	Noyabr, dekabr.
59.	Olma uchun kuchsiz o'suvchi payvandtag.	M9.
60.	Quyidagi meva ekinlaridan qaysilari tropik meva ekinlariga mansub?	Banan, ananas, kivi, mango, qovun daraxti, non daraxti, avokado.
61.	Rezavor meva ekinlariga misol keltiring?	Qulupnay, malina, smorodina .
62.	Limon qalamchalarni ekishda qalamchalar ildiz olishi uchun necha bo'g'imdan iborat bo'lishi kerak?	5 bo'g'imdan.
63.	O'rta o'suvchi istiqbolli olma payvandtaglarini ko'rsating?	MM106, MM111 .
64.	Shaftoli uchun eng yaxshi va ko'p foydalaniladigan payvandtaglarni ko'rsating?	GF 677, Garnem .
65.	Meva daraxtlari uchun payvandtaglarni tanlashni nima ahamiyati bor?	Payvandtaglar o'sish xarakteriga qarab kuchli, o'rtacha va kuchsiz o'sadigan yoki pakana payvandtaglarga bo'lish. Ular sovuqqa chidamliligi jihatidan turlicha bo'lishini, hosilga erta yoki kech kirishini, suvga talabchan, kasallik va zararkunandalarga chidamli va hokazolarni o'rgatish.
66.	Olcha va gilos uchun qo'llaniladigan asosiy payvandtaglar?	Max 14, Krimski -5, Gizila 5,6 va Kap 6 lardan ko'roq foydalaniladi.
67.	Bog'ni sovuqdan asrash uchun havo harorati nechi gradus pastga tushsa tutatish tadbirlari amalga oshiriladi:	0°S bo'lganda.
68.	Tok qalamchalarining uzunligi qancha bo'ladi va qancha ko'z qoldiriladi?	50-60 sm (har bir qalamchada 5-6 dona ko'zchalari qoldiriladi).
69.	Meva va tok ko'chatlarini kuz oylarida ekishdan oldin yerni qancha chuqurlikda xaydash tavsiya etiladi?	50-60 sm chuqurlikda.
70.	Intensiv pakana daraxtlar ekilgan bog'larda nima uchun simbag'az o'rnatiladi.	Shakl berish va o'sishni to'g'ri amalga oshirish hamda tabbiy ofatlardan saqlanish.
71.	Limon ko'chatlari qaysi usulda va qachon ko'paytiriladi?	Qalamcha usulida. Avgust-sentyabr oylarida.
72.	Mevali bog'larning kasalligini aniqlang?	Klyasterosporioz, parsha (kalmaraz) Monilioz kasalligi, Un shudring, Bakterial kuyish, Bakterial rak.
73.	Yarim pakana urug'li mevali ko'chatlarga mos keladigan payvandtag turlariga misol keltiring.	MM-106, MM-111.
74.	Uzumning payvandtag turlariga misol keltiring.	Cober, CO4.

№	Savol	Javob
75.	Gilos payvandtaglariga misol keltiring	Krimskiy 5, Krimskiy 6, Maxma-14 va SL-64 bu payvandtaglar yarim paka hisoblanadi.
76.	Olma daraxti gullagan payda nechi ⁰ S sovuq meva gullariga zarar yetkazadi.	-2.....-4 ⁰ S da.
77.	Nokning payvandtag turlariga misol keltiring.	FOX-9,OHF-333, FOX-11, VA-29, Quince.
78.	Bexining payvandtag turlariga misol keltiring.	FOX-11, BA-29.
79.	O‘rikning payvandtag turlariga misol keltiring.	Mirabolano 29, Marianna 26-24.
80.	Bodomning payvandtag turlariga misol keltiring.	Garnim, GF-677.
81.	Intensiv bog‘larda asosan qanday payvandtaglar qo‘llaniladi?	Past bo‘yli va o‘rta bo‘yli.
82.	Iskana payvand qilishda mevali daraxtlarni qaysi organlaridan foydalaniladi?	Qalamchalaridan.
83.	Limon ko‘chatlarini tayyorlash uchun limon daraxtining qanday navdalardan olinadi.	Bir yoshli yog‘ochlashgan ko‘k navdadan.
84.	“In-Vitro” laboratoriyasida yetishtirilgan ko‘chat (payvantag) issiqxonaga chiqarilganda havo harori nechi 0S bo‘lganda yaxshi rivojlanadi.	20-25 ⁰ S.
85.	In-vitro" usulida yetishtirilgan ko‘chatlarni issiqxona sharoitiga moslashtirish (aklimatizatsiya) jarayonida, tuvalarga qo‘shiladigan “agropelit” qanday vazifani bajaradi?	Agropelit tuvak ichidagi tuproqning fizik tuzilishini yaxshilaydi, ya’ni havo aylanishini ta’minlab, ildizlarni nafas olishiga yordam beradi, Perlit o‘z hajmiga nisbatan ko‘p miqdorda suv saqlay oladi. Bu ko‘chatlar uchun barqaror namlik muhitini ta’minlaydi, Ildiz atrofidagi muhitning barqarorligi va havodorligi tufayli ildizlar tezroq va sog‘lom rivojlanadi, Agropelit steril material bo‘lgani uchun, u orqali kasalliklar tarqalishi ehtimoli juda past.
86.	"In-vitro" usulida yetishtirilgan ko‘chatlarni issiqxona sharoitiga moslashtirish (aklimatizatsiya) jarayonida, tuvalarga qo‘shiladigan torf qanday vazifani bajaradi?	Sugorishdan so‘ng namlikni uzoq saqlab turadi, organik moddalarga boy, ildiz o‘sishi uchun qulay muhit yaratadi, pH darajasini barqarorlashtiradi, steril muhit xosil qiladi.
87.	In vitro ko‘paytirish jarayonining birinchi bosqichi qaysi?	Eksplant olish va sterillash.
88.	Qaysi organ(lar) eksplant sifatida ishlatiladi?	Meristemalar, novda, barg, ildiz parchasi.
89.	"In-vitro" usulida ko‘chat yetishtirish necha bosqichdan iborat?	4 bosqichdan iborat 1) boshlang‘ich materialni tayyorlash va sterilizatsiya qilish. 2) ko‘paytirish 3) ildizlantirish 4) Akklimatizatsiya (moslashtirish).
90.	"In-vitro"ga kiritilgan novda nechi oyda akklimatizatsiya (issiqxonaga) chiqadi.	Bir yarim oyda.
91.	Meva ko‘chatlarini yetishtirishni ahamiyati nima?	Meva ko‘chatlarini yetishtirish texnologiyasi mevali o‘simliklarini ko‘chatlarini ayrim xususiyatlarini ilmiy asoslangan hamda ularning yetishtirishning progressiv usullarini qo‘llab arzon va yuqori sifatli, tegishli tur va navga xos ko‘chatlar yetishtirishdan iborat.
92.	Namunali ko‘chatzorlar tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?	Namunali ko‘chatzorlar qilmasdan turib bog‘dorchilikni rivojlantirish mumkin emas. Meva ko‘chatlaridan bog‘ va mevazorlar barpo qilish hamda ularni remont qilish uchun

№	Savol	Javob
		standartga javob beradigan, rayon sharoitiga mos keladigan shu bilan birga aholining xo'l va quruq mevalarga, oziq-ovqat sanoatini esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondira oladigan tur va navlardan iborat ko'chatlar yetishtirilishi zarur.
93.	Ko'chatlarni o'sish va rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?	Ko'chatlarni tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bardoshligi, tolerantligi. Harorat, yorug'lik, atmosfera gazlariga, havo va tuproq namligiga, biologik omillariga munosabati. Ko'chatlarni ekish sxemasi, joylashtirish qalinligi va oziqa maydoniga munosabatini nazariy jihatidan asoslash.
94.	Tog'li hududlarda yillik yog'in miqdori qancha bo'lganda mevachilik bilan shug'ullansa bo'ladi, mm?	Tog'li hududlarda yillik yog'in miqdori 600-700 mm bo'lganda mevachilikda yaxshi bo'ladi.
95.	Nok uchun kuchli o'suvchi payvandtag sifatida qaysilari qo'llaniladi?	Nokning kuchli usuvchi payvandtaglariga O'rmon noki, mahalliy noklar olinadi.
96.	O'zbekiston sharoitida olma daraxtiga asosan qanday shakl beriladi?	O'zbekiston sharoitida olma daraxtiga navlaridan kelib chiqqan holda asosan KOSASIMON shakl beriladi.
97.	Sitruslilar deganda qanday o'simliklarni tushunasiz?	Sitrus o'simliklari doimo yashil, mo'tadil issiqni va yuqori havo namligini yoqtiradigan o'simliklar hisoblanadi.
98.	Quyidagi meva ekinlardan qaysi biri eng uzoq yashaydi?	Meva ekinlardan eng ko'p uzoq umir kurishi Zaytun hisoblanadi kitoblarda 180 yilgacha umir kurishi aytilgan.
99.	Eng erta gullaydigan meva ekini qaysisi?	Respublikamiz sharoitida eng erta gul kurtaklarini ochuvchi mevalardan Bodom hisoblanadi.
100.	Bog' barpo qilishda eng yaxshi o'tmishdosh ekinlar qaysi hisoblanadi?	Bog' barpo qilishda eng yaxshi ekin bu dukkakli ekinlar xisoblanadi.
Ko'chatchilik xo'jaliklarini muvofiqlashtirish va himoyasi bo'limi		
101.	Meva ko'chatlarini yetishtirishni ahamiyati nima?	Meva ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi mevali o'simliklarini ko'chatlarini ayrim xususiyatlarini ilmiy asoslangan hamda ularning yetishtirishning progressiv usullarini qo'llab arzon va yuqori sifatli, tegishli tur va navga xos ko'chatlar yetishtirishdan iborat.
102.	Namunali ko'chatzorlar tashkil qilish deganda nimani tushunasiz?	Namunali ko'chatzorlar qilmasdan turib bog' dorchilikni rivojlantirish mumkin emas. Meva ko'chatlaridan bog' va mevazorlar barpo qilish hamda ularni remont qilish uchun standartga javob beradigan, rayon sharoitiga mos keladigan shu bilan birga aholining xo'l va quruq mevalarga, oziq-ovqat sanoatini esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondira oladigan tur va navlardan iborat ko'chatlar yetishtirilishi zarur.
103.	Ko'chatlarni o'sish va rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?	Ko'chatlarni tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bardoshligi, tolerantligi. Harorat, yorug'lik, atmosfera gazlariga, havo va tuproq namligiga, biologik omillariga munosabati. Ko'chatlarni ekish sxemasi, joylashtirish qalinligi va oziqa maydoniga munosabatini nazariy jihatidan asoslash.

№	Savol	Javob
104.	V.Michurin ta'rifi bo'yicha urug' ko'chatidan hosil bo'lgan meva o'simliklarining yashash jarayoni necha davrga bo'linadi?	4 davr bo'linadi
105.	Urug' mevali ekinlarga qaysi meva ekinlari kiradi?	Olma, behi, nok mevalari urug' mevalilarga mansub.
106.	Subtropik mevalarga qaysi meva ekinlari kiradi?	Anor, anjir, xurmo, chilonjiyda mevali ekinlari subtropik ekinlarga kiradi.
107.	Meva daraxtlari uchun payvandtaglarni tanlashni nima ahamiyati bor?	Payvandtaglar o'sish xarakteriga qarab kuchli, o'rtacha va kuchsiz o'sadigan yoki pakana payvandtaglarga bo'lish. Ular sovuqqa chidamliligi jihatidan turlicha bo'lishini, hosilga erta yoki kech kirishini, suvga talabchan, kasallik va zararkunandalarga chidamli va hokazolarni o'rgatish.
108.	Subtropik mevali o'simliklarining tashqi muxit omillariga bo'lgan talabi nimalardan iborat?	Meva o'simliklarining tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bardoshligi, tolerantligi. Muxit sharoitini harorati, yorug'ligi, havo va tuproq namligini, biologik omillariga munosabati.
109.	Qaysi meva o'simlik turlari faqat danaklilar guruhiga kiradi?	o'rik, gilos, tog'olcha olcha ekinlari danak mevali guruxlilarga mansub.
110.	O'zbekistonda tog'li hududlar umumiy bog' maydondan necha foizni tashkil etadi?	40 % dan ko'proq.
111.	Rezavor mevalar turlariga qaysi mevalar kiradi?	smorodina, malina, qulupnay, ejevika, golubikalar rezavor mevali ekinlarga kiradi.
112.	Urug'li mevalilarda meva kurtak shakillarini tushuntirib bering?	Urug' mevali ekinlarda kurataklarni shakillari xalqali shoxcha, meva shoxchalari, nayzasimon shoxcha shakilda bo'ladi.
113.	Anjir va anor o'simligi necha daraja sovuqda zararlanadi 0C?	-10 °C zararlanadi.
114.	M.V.Michurin bo'yicha meva o'simliklarini rivojlanish davri qanday bo'ladi?	4 ta davr bo'lib bulardan embrionlik, yoshlik, mahsuldorlik, qarish davrlarga bo'linadi.
115.	Meva o'simliklar urug'ini unuvchanligini qanday usul bilan tezda aniqlash mumkin?	Meva o'simliklar urug'ini unuvchanligini zamonaviy laboratoriya sharoitida termostatlarda namlik kamira usullarini unuvchanligini tezroq kurishimiz mumkun.
116.	Meva va rezavor meva o'simliklarning morfologik belgilariga qarab guruxlarga ajratib bering.	Meva va rezavor meva o'simliklarning morfologik belgilariga qarab mevali ekinlarni Daraxt, buta, yarim buta, ko'p yillik o't guruxlariga bo'linib o'rganiladi.
117.	Sho'rga nisbatan bardosh beruvchi mevali daraxt turini ayting?	Sho'rga nisbatan chidamli mevali ekinlardan Chilon Jiyda va oddiy non jiydani misol qilishimiz mumkun.
118.	Tog'li hududlarda yillik yog'in miqdori qancha bo'lganda mevachilik bilan shug'ullansa bo'ladi, mm?	Tog'li hududlarda yillik yog'in miqdori 600-700 mm bo'lganda mevachilikda yaxshi bo'ladi
119.	Meva o'simliklarini suvga kam talabchanlik bo'yicha qaysi turlari chidamliligini tushuntirib bering?	Mevali o'simliklardan asosan behi, o'rik, yong'oq, gilos, anor va unabi ekinlari suvsizlikka chidamliroq deb xisoblayman.
120.	Ko'chatzorni 1-dalasida olma nihollarini ekish sxemasini qanday? (sm)	70×30 (sm) sxemada ekiladi

№	Savol	Javob
121.	Olcha va gilos uchun qo'llaniladigan asosiy payvandtaglar?	Olcha va gilos uchun qo'llaniladigan asosiy payvandtaglardan xonadondan uchun baland bo'ylilardan Kamxastak olchasi, yovvoyi giloslardan foydalaniladi. Intensev bog'larda asosan Max 14, Krimski -5, Gizila 5,6 va Kap 6 lardan ko'roq foydalaniladi.
122.	Meva o'simliklarini kurtak payvand qilish uchun qulay muddatni ko'rsating?	Mevali o'simliklarini kurtak payvand qilish vaqti asosan Avgust oylari eng maqbul vaqti xisoblanadi.
123.	Ko'chatzorning ikkinchi dalasida bajariladigan ishlarni tartib bilan tushuntirib bering.	Mevali o'simliklarini ko'chatzorlarda bajariladigan ishlar asosan Payvandust uchini kesish, kurtak o'stirish, shakl berish ishlari amalga oshirilib boriladi.
124.	Limon qalamchalarini ekishda ildiz olishi uchun necha bo'g'im bo'lishi kerak?	Asosan subtorpik ekinlari qalamchalar orqali ko'chatlar tayyorlanadi bunda qalamchalar 3 bo'g'um qilinib kesib yerga qadaladi.
125.	Nok uchun kuchli o'suvchi payvandtag sifatida qaysilari qo'llaniladi?	Nokning kuchli usuvchi payvandtaglariga O'rmon noki, mahalliy noklar olinadi.
126.	Olma uchun kuchsiz o'suvchi payvandtaglar sifatida asosan qaysilarini qo'llash mumkin?	Olma ekinlarini ko'chsiz usuvchi payvandtaglariga M9, M26 payvandtaglarini misol qilib olishimiz mumkun.
127.	Ko'chatzorlarda ko'chatlarni shoxlatish qaysi muddatda bo'ladi?	Ko'chatzorlarda ko'chatlarni shoxlatish uchun asosan usuv davrining iyun oyining 1-chi yarmi eng maqbul sharoit deb topilgan.
128.	Olxo'ri uchun mutanosib bo'lgan payvandtaglarni ko'rsating?	Olxo'ri uchu mos bo'lgan payvandtaglardan Olchani mahalliy formalari, qora-alu olxo'ri, Alba A, Fotuna, Evrika 99 va Mirablan S-29 payvandtaglari yaxshi xisoblanadi.
129.	Urug'larni stratifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?	Kuchatchilikda eng katta ahamiyat kasb etadigan jarayonlardan biri bu stratifikatsiyalash. Bunda urug'ni qum bilan qatlam-qatlam qilib past temperaturada uzoq vaqt saqlash tushuniladi.
130.	Meva urug'larini stratifikatsiyalashda qulay havo temperaturasi (daraja)?	-3-10 °C darajada saqlash yaxshi natija beradi.
131.	Urug' ko'chatlarni kurtak payvand qilinadigan qulay joyini aniqlang	Ildiz bo'g'zidan 5-10 sm balandlikda payvand qilinadi.
132.	Meva ko'chatzorlarini asosiy qismlarini nomlang?	Meva ko'chatzorlarini tashkil etishda asosan Ko'paytirish bo'limi, shakl berish bo'limi, ona ko'chatzor bo'limi xisoblanadi.
133.	Tog'li mintaqalarda bodom ko'chatlari qanday sxemada ekiladi, m. ?	Tog'li mintaqalarda bodom ko'chatlarini 7x6m sxemada ekish maqsadga muvofiq.
134.	Tog'li mintaqalarda yong'oq ko'chatlari qanday sxemada ekiladi, m. ?	Tog'li mintaqalarda yong'oqni 10x10m sxemada ekish tafsia etiladi.
135.	Tog'li mintaqalarda olma ko'chatlari qanday sxemada ekiladi, m. ?	Tog'li mintaqalarda Olmani 8x6m sxemada ekish tafsia etiladi.
136.	O'zbekiston sharoitida anjirga qanday shakl beriladi?	O'zbekiston sharoitida Anjirga past tanali shakil beriladi.

№	Savol	Javob
137.	O'zbekiston sharoitida olma daraxtiga asosan qanday shakl beriladi?	O'zbekiston sharoitida olma daraxtiga navlaridan kelib chiqqan holda asosan KOSASIMON shakil beriladi.
138.	Bog'da meva ko'chatlarini joylashtirishning eng ko'p tarqalgan usuli?	Ekin maydonlarda yeng ko'p tarqalgan usullardan biri to'g'ri to'rtburchak usul xisoblanadi.
139.	Ko'chat o'tqazish taxtasining uzunligi qancha bo'lishi kerak?	Ko'chatlarini yerga ekish jarayonlaridan ko'chat o'tqazish taxtasining uzunligi 1,5-2,0 m bo'ldi. Bunda adashmovchilik kam bo'ladi.
140.	Intensiv tipdagi palmetta usulida o'stiriladigan bog'larga shakl berish muddatlari?	Intensiv tipdagi palmetta usulida ekilgan bog'larga Fevral-mart oylarida shakl beriladi.
141.	Subtropik o'simliklarning tashqi muhitga bo'lgan munosabati qanday?	Bular asosan namsevar hisoblanadi va sovuqqa chidamsiz bo'ladi.
142.	O'zbekiston sharotida qaysi o'simliklar sitruslilar guruhiga mansub	Sitruslilar guruhiga mansub o'simliklarga Limon, apelsin, mandarin, greypfrutlar kiradi.
143.	Sitruslilar deganda qanday o'simliklarni tushunasiz?	Sitrus o'simliklari doimo yashil, mo'tadil issiqni va yuqori havo namligini yoqtiradigan o'simliklar hisoblanadi.
144.	Dunyoda mevachilik rivojlangan mamlakatlar qaysi?	Hindiston, Xitoy, Koreya davlatlari mevachilik sohalari rivojlangan davlatlardan hisoblanadi.
145.	O'zbekistonning qaysi viloyatida urug'li meva daraxtlari ko'p tarqalgan?	O'zbekiston sharoitida asosan urug' mevali ekinlardan ko'p tarqalgan viloyatlardan Toshkent viloyati, Jizzax va Samarqand viloyatlari hisoblanadi.
146.	Mamlakatimizda aholi jon boshiga har yili qancha meva yetishtirilishi lozim?	Mamlakatimizda aholi jon boshiga 115-120 kg meva yetishtiriladi
147.	Qaysi meva tarkibida eng ko'p moy saqlaydi?	Asosan Yong'oq, bodom, pista mevalarida yog' miqdori ko'p va saqlaydi
148.	Olma mevasi tarkibida necha foizgacha suv saqlaydi?	Olma mevasi navlar navlarga qarab o'rtacha 80,5-86,5 % o'zida suv saqlaydi.
149.	Qaysi meva ekinlarining mevasi soxta meva?	Do'lana, limon, qulupnay ekinlarini mevalari soxta meva hisoblanadi.
150.	Meva daraxtlari shoxlarining tiplari qanday bo'ladi?	Mevali daraxtlarni shoxlari asosan O'suv va hosil shoxlariga bo'linadi
151.	Quyidagi meva daraxtlaridan qaysi biri doimiy yashil holatda bo'ladi?	Limon, apelsin
152.	O'zbekistonda meva daraxtlari qaysi yoshda eng yirik barglar paydo qiladi?	Asosan mevali daraxtlarda 8-10 yoshda yirik barglar paydo qilib boshlaydi.
153.	Quyidagi meva ekinlardan qaysi biri eng uzoq yashaydi?	Meva ekinlardan eng ko'p uzoq umir kurishi Zaytun hisoblanadi kitoblarda 180 yilgacha umir kurishi aytilgan.
154.	Qaysi meva ekini eng erta hosilga kiradi va qisqa umr ko'radi?	Mevali ekinlarda eng qisqa umir kurishi Qulupnay o'simliklari bo'lib dalaga ekilganda 45 kunda xsilga kirib boshlaydi umir kurishi o'rtacha 2 yilgacha.
155.	Eng erta gullaydigan meva ekini qaysisi?	Respublikamiz sharoitida eng erta gul kurtaklarini ochuvchi mevalardan Bodom hisoblanadi.

№	Savol	Javob
156.	Mevali ekinlaridan danakli meva ekinlariga qaysi meva turlari kiradi ?	Danakli meva ekinlariga Shaftoli, o‘rik, olxo‘ri, olcha, gilos, jiyda, qizil ekinlari kiradi.
157.	Olma daraxtlari necha gradusgacha sovuqqa chiday oladi?	Olma daraxtlari sovuqqa chidamli xisoblanib, ular - 22 – 25 0C gacha chiday oladi.
158.	Meva ekinlari urug‘ini stratifikasiyalash deganda nimani tushunasiz?	Urug‘larni stratifikasiyalash deganda Qumlash jarayonlarini tushunaman.
159.	Ko‘chatzorlarda urug‘li meva ekinlarining urug‘ ekish normasi?	Ko‘chatzorlarda urug‘li meva ekinlarining ekish miqdori o‘rtacha 40 -50 kg/ga ekiladi.
160.	Mexanik tarkibi yengil tuproqlarda kuzda urug‘li meva ekinlari urug‘ini ekish chuqurligi qancha?	Tarkibi yengil tuproqlarda kuzda urug‘larni ekishda 6.0 - 7.0 sm chuqurlikda ekish yaxshi natija beradi
161.	Kurtak payvandda necha yillik qalamchalardan foydalaniladi?	Kurtak payvand qilishda Bir yillik novdalarda hosil bo‘lgan kurtaklardan foydalaniladi
162.	Qalamcha payvand qilishning qulay muddati?	Qalamcha payvand qilishning asosiy muddatlari Fevral-mart oylari hisoblanadi
163.	Respublikamiz sharoitida eng ko‘p qo‘llaniladigan payvand turi?	Bu Kurtak payvand turi hisoblanadi.
164.	Yashil qalamchasidan ko‘paytiriladigan meva ekinini ko‘rsating?	Asosan yashil qalamchalardan Tok, limon ekinlaridan ko‘paytiriladi.
165.	Quyidagi meva ekinlarini qaysi birini yog‘ochlashgan qalamchalaridan ko‘paytirish mumkin?	Yog‘ochlangan qalamchalaridan ko‘proq Anjir, Smorodina ekinlaridan ko‘chatlar tayyorlanadi.
166.	Meva ekinlari payvantaglarini kovlab olishning eng qulay muddatini ko‘rsating?	Payvantaglarini kovlab olish jarayonlari asosan kuzda olinishi maqsadga muvofiq xisoblanadi.
167.	Danakli meva ekinlarida kurtak payvandlarning tutganligi qancha kundan so‘ng aniqlanadi?	Danakli meva ekinlarida kurtak payvandlarning tutganlik darajasi 5-10 kundan so‘ng aniqlanadi.
168.	Ko‘chatzorga payvand qilingan ko‘chatlarni ekish bilan ko‘chat yetishtirish necha yilga cho‘ziladi?	Payvand qilingan ko‘chatlar 2 yilda tayyor ko‘chat holida bo‘ladi.
169.	Bog‘ barpo qilishda eng yaxshi o‘tmishdosh ekinlar qaysi hisoblanadi?	Bog‘ barpo qilishda eng yaxshi ekin bu Ko‘p yillik dukkakli ekinlar xisoblanadi.
170.	Qanday tuproqlar meva bog‘i barpo qilish uchun yaroqsiz hisoblanadi?	Meva bog‘i barpo qilish uchun Sho‘rxok, botqoq tuproqlarga bog‘ barpo etish tafsia etilmaydi.
171.	Meva daraxtlarining asosan necha muddatda kesiladi?	Meva daraxtlarga asosan Ikki xil muddatda kesiladi.
172.	Urug‘li meva daraxtlarini eng qulay kesish muddati?	Urug‘li meva daraxtlarini asosan noyabr, dekabr oylarida kesish tafsia etiladi.
173.	Danakli meva ekinlarni eng qulay kesish muddati?	Danakli meva ekinlarni Fevral-mart oylarida kesib shakl berish tafsia etiladi.
174.	Olma uchun kuchsiz o‘suvsiz payvandtaglar sifatida asosan qaysilarini qo‘llash mumkin?	Urug‘ mevalilardan, olma daraxtlariga kuchsiz usuvchi M8, M9, M 7, M5. MM 104 payvandtaglaridan foydalaniladi.

№	Savol	Javob
175.	O'zbekistonning qaysi hududlarida yovvoyi meva ekinlari ko'p o'sadi?	Tog' va to'qay o'rmonlarida ko'proq yovvoyi meva ekinlari usadi.
176.	Yovvoyi holda o'sadigan meva ekinlari qanday ahamiyatga ega?	Madaniy meva ekinlari uchun yaxshi payvandtag hisoblanadi
177.	Qanday mevali ekin turlari tropik meva hisoblanadi?	Tropik mevali ekinlarga asosan banan, ananas, kivi, mango, qovun daraxti, non daraxti, avokadolar kiradi.
178.	Rezavor mevali ekinlarga qanday mevali ekinlar kiradi.	Rezavor mevalarga qulupnay, malina, krijovnik, smorodina, aktinidiya rezavorlarga mansub ekinlar hisoblanadi?
179.	Shaftoli urug' ko'chatini yetishtirish uchun bir gektarga qancha urug' ekiladi? (kg/ga)	Shaftoli urug'idan ko'chat yetishtirish uchun 500 kg urug' sarflanadi.
180.	Olcha urug' ko'chatini yetishtirish uchun bir gektarga qancha urug' ekiladi? (kg/ga)	Olcha urug'idan payvandtag sifatida ekish uchun 100 kg urug' sarflanadi.
181.	Anor qalamchalarini ekish uchun qancha uzunlikda bo'lishi kerak, (sm)?	Anor qalamchalaridan ko'chat qilishda 25 sm qalamchalardan foydalaniladi
182.	Vegetativ usuda ko'payadigan nokni payvandtagini ko'rsating?	Nok o'simliklari uchun vigitiv usulda ko'payadigan payvandtaglar Behi hisoblanadi.
183.	Yashil qalamchalarning ildiz olishi va rivojlanishi uchun sun'iy tuman inshootlaridagi optimal namlikni aniqlang?	Yashil qalamchalarni ildiz olishi va rivojlanishi uchun suniy inshootlarda namlik 75-80% ni talab qiladi.
184.	Olmaning lotincha nomi nima?	Malus Mill. deb ataladi.
185.	Nokning lotincha nomi nima?	Pyrus Mill. deb ataladi.
186.	Behi avlodi qaysi botanik oilaga mansub?	Ra'nodoshlar oilasiga mansub.
187.	Yong'oqsimonlar meva turlariga qaysi mevalar kiradi?	Yong'oqsimonlar mevalarga yong'oq, bodom, pista, funduk, pekan o'simliklari kiradi.
188.	Meva daraxtlarini past bo'yli payvantaglarda yetishtirishni ahamiyati	Kuchsiz o'suvchi payvantagli bog'lar barpo qilish uchun joy tanlash, ularni joylashtirish (ekish sxemalari) va ekish. Bog'larda navlarni va changlatuvchi navlarni qo'llash. Meva daraxtlariga shakl berish va butash usullari. Hosilni parvarish qilish, terish, tashish, saralash va joylashtirish.
189.	Intensiv bog' va tokzorlarning asosiy agrotexnik tadbirlariga nimalar kiradi.	Intensiv tipdagi bog' va tokzorlarni kvartallarining hajmi, shakli va joylashtirish relyefi, tashkiliy – iqtisodiy omillari, sug'orish va o'g'itlash texnikasi, hosilini parvarish qilish, terish, tashish, saralash va joylashtirish. Mevali bog' va tok tuplarini qishki va erta bohorgi sovuqlardan himoyalash usullari.
190.	Qaysi meva ekin turlari suvga talabchan hisoblanadi ?.	Mevali ekinlardan smorodina, qulupnay, olxo'ri, behi, anjir ekinlari suvga talabchan bo'ladi.
191.	Nokning qaysi navlari sho'rga nisbatan chidamliroq?	Nokning olmurut, shakar-murut navlari shurga nisbattan chidamli hisoblanadi.
192.	Smorodina (qorag'at) qanday oralig'ida ekiladi m?	Smorodina o'simliklari asosan 3,0x1,5 oralig'ida ekiladi.

№	Savol	Javob
193.	Shaftoli uchun qaysi xillari payvandtag sifatida keng qo'llaniladi?	Mahalliy oq shaftoli, bodomlar payvandtag sifatida qo'llanilgan.
194.	Ko'chatzorning ikkinchi dalasida bajariladigan ishlarni tartib bilan ko'rsating?	Payvandust uchini kesish, kurtak o'stirish, shakl berish ishlari amalga oshiriladi.
195.	Olma uchun kuchli o'suvchi payvandtaglar sifatida asosan qaysilarini qo'llash mumkin?	Olmaning kuchli usuvchi payvandtaglariga Sivers olmasi, M111, M14,M15 turlari kiradi.
196.	Tog'li mintaqalarda olxo'ri ko'chatlari qanday sxemada ekiladi, m. ?	Tog'li mintaqalarda olxo'ri ko'chatlarini 6x5m sxemada ekiladi.
197.	Tog'li hududlarda ko'chat ekish chuqurlarini kattaligi qancha bo'ladi, sm?	Tog'li hududlarda ko'chatlarni 60 sm chuqurlmikda ekish tafsiya etiladi.
198.	Qaysi meva turlarini ko'chatlari sovuqdan saqlash uchun kuzda ko'miladi?	Mevali ekinlardan anor, anjir ko'chatlari ko'milib sovuqdan saqlanadi.
199.	Mevali o'simliklar turlari uchun payvantaglar yetishtirishga nimalar kiradi.	Vegetativ payvandtaglar ona bog'larini tashkillashtirish va o'stirish texnologiyasi. Ona bog'lardan urug' tayyorlash, saqlash, urug'larni qumlash (stratifikatsiyalash), ekish muddatlari va me'yorlari kiradi.
200.	Kurtak payvand qilishda necha yillik kurtaklardan foydalaniladi?	Kurtak payvand qilishda 1 yillik novdalarda hosil bo'lgan kurtaklardan foydalaniladi
Bog' va uzumzor, issiqxona yerlaridan foydalanishni tashkil etish, yer axborot bazasini yuritish va tuproq unumdorligini aniqlash bo'limi		
201.	Yer tuzish ishlari qaysi hujjatlarga asoslanadi?	O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", "Yer tuzish to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi.
202.	Yer kodeksi nima?	huquqiy prinsiplar va normalarni mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi, shuningdek ijtimoiy munosabatlar eng muhim sohasining huquqiy jihatdan kompleks tartibga solinishini ta'minlovchi qonun;
203.	O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi qachon qabul qilingan?	1998-yil 30-aprel
204.	O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi nechta bobdan iborat?	14 bob
205.	O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi nechta moddadan iborat?	91 modda
206.	Yer uchastkasi ijarasi yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	24-modda
207.	Doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan yer uchastkalarining ijarasi yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	24 ¹ -modda

№	Savol	Javob
208.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berish yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	24 ² -modda
209.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasini (qayta ijaraga berish) deganda nimani tushunasiz?	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish
210.	Yer uchastkasini unga bo‘lgan meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, ijara yoki mulk huquqini saqlab qolgan holda vaqtincha foydalanishga berish yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	24 ³ -modda
211.	Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	24 ⁴ -modda
212.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish (qayta ijaraga berish) moddada belgilangan?	24 ⁵ -modda
213.	Yer fondi toifalari yer kodeksining qaysi moddasida belgilangan?	8-modda
214.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra nechta toifalarga bo‘linadi?	8 turga
215.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 1 turga qaysi yerlar kiradi?	qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar
216.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 2 turga qaysi yerlar kiradi?	aholi punktlari yerlari
217.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 3 turga qaysi yerlar kiradi?	sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar
218.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 4 turga qaysi yerlar kiradi?	tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar
219.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 5 turga qaysi yerlar kiradi?	tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar

№	Savol	Javob
220.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 6 turga qaysi yerlar kiradi?	o‘rmon fondi yerlari
221.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 7 turga qaysi yerlar kiradi?	suv fondi yerlari
222.	O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 8 turga qaysi yerlar kiradi?	zaxira yerlar.
223.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-151-son farmoni qachon qabul qilingan?	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-151-son farmoni bilan 2024-yil 30-sentabrda
224.	Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori qachon qabul qilingan?	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-344-son qarori bilan 2024-yil 30-sentabrda
225.	Agentlik nizomi qachon qabul qilingan?	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 23-apreldagi 255-son qarori bilan agentlik nizomi qabul qilingan.
226.	Agentlik nizomining 3-ilovasi nima haqida?	Respublika hududlarida sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish tartibi to‘g‘risida.
227.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024 yildagi PF-151-sonli farmonida qanday yerlarda sanoatlashgan yangi intensiv bog‘ va tokzorlarni barpo etish mumkin?	Zaxiradagi yer uchastkalari hamda yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va qishloq xo‘jaligi korxonalariga tegishli past hosilli paxta va g‘alla yer maydonlari, tog‘ oldi, qir-adirliklar, shuningdek, samarasiz hamda eskirgan bog‘ va tokzorlar o‘rnida
228.	tuman (shahar) hokimligi zaxirasida bo‘sh turgan hamda tuman (shahar) hokimligi nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasi nima deb ataladi?	zaxiradagi yer uchastkasi
229.	fermer xo‘jaliklari yoki boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga ijara huquqi asosida berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalaridan foydalanuvchilar nima deb ataladi?	ijarachilar
230.	sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish maqsadida ishlab chiqilgan yer tuzish loyihasi,	loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari

№	Savol	Javob
	ko‘chatlarni ekish sxemasi va navi, sug‘orish texnologiyasi, shuningdek, loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘lar va ularni o‘zlashtirish muddatlari hamda texnik shartlarni asoslab beruvchi loyihaoldi hujjati nima deb ataladi?	
231.	10 gektar va undan ortiq yer uchastkasida intensiv (sermahsul) ko‘chatlar (pakana va yarimpakana) va payvandtaglardan yetishtirilgan ko‘chatlarni zich ekish sxemasida resurs-tejamkor agrotexnologik tadbirlar asosida barpo etilgan hamda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan mevali bog‘ va tokzorlarga nima deb ataladi?	sanoatlashgan yangi intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar
232.	sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlar barpo etishda ko‘chat ekish sxemasi, ko‘chatni kafolatlangan navi, sug‘orish tizimi va boshqa shartlarni belgilab beruvchi texnik talablar nima deb ataladi?	texnik shart
233.	tuman (shahar) hokimligi zaxirasida bo‘sh turgan yoki fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga ijara huquqi asosida berilgan yer uchastkalarida sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish istagini bildirgan yuridik shaxslar nima deb ataladi?	talabgor
234.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024 yildagi PF-151-sonli farmonida zaxiradagi yer uchastkalari yangi bog‘larni barpo etish uchun Agentlikka yoki u tomonidan tanlangan tadbirkorlik subyektiga ijara huquqi bilan yer uchastkalarini realizatsiya qilishga kim tomonidan ruxsat berilgan?	Zaxiradagi yer uchastkalari yangi bog‘larni barpo etish uchun Agentlikka yoki u tomonidan tanlangan tadbirkorlik subyektiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijara huquqi bilan yer uchastkalarini ajratishga ruxsat berilgan.
235.	Zaxiradagi yer uchastkalarida sanoatlashgan intensiv bog‘ va tokzorlarni barpo etish tartib-taomillari necha bosqichda amalga oshiriladi?	6-bosqich
236.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari Sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish uchun zaxiradagi yer uchastkalari hududiy manzilli ro‘yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi va qachon Agentlikka taqdim etadi?	Har yili 1-iyungacha
237.	Fermer xo‘jaliklari yoki boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga ijara huquqi asosida berilgan yer	5-bosqich

№	Savol	Javob
	uchastkalarida sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni barpo etish tartib-taomili necha bosqichda amalga oshiriladi?	
238.	Sanoatlashgan intensiv (sermahsul) bog‘ va tokzorlarni “tayyor holda barpo etish” tamoyili asosida tashabbuskorlarga berish tartibi taomili necha bosqichda amalga oshiriladi?	5-bosqich
239.	Zaxiradagi yer uchastkalarini Agentlikka ijara huquqi asosida ajratish va ushbu yer uchastkalarini qayta ijaraga berish tartib-taomili necha bosqichda amalga oshiriladi?	5-bosqich
240.		
241.	Yer uchastkalarini topografik xaritasini ishlab chiqish uchun qaysi dasturlardan foydalaniladi?	Auto Cad
242.	Bog‘ va uzumzorlarning elektron ro‘yxatini raqamlashgan (geoportal) axborot tizimini yaratish uchun qaysi dasturdan foydalaniladi?	Arc GIS yoki ushbu ma’lumotlarni kiritish uchun maxsus geoportallardan
243.	Topografik syomka ishlari nimalar yordamida amalga oshiriladi?	GNNS priyomnik, Taxeometr va Dronlar yordamida
244.	Suv tejoychi texnologiyalar loyihasini qilish uchun eng birinchi nima kerak bo‘ladi?	Topografik syomka ishlari
245.	Topografik syomka ishlari nima uchun kerak?	Loyihalarni yaratishda yerning holatini aniqlash uchun
246.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli farmoniga asosan sug‘oriladigan yerlar hisobidan bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa ko‘p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarni tashkil etish kimning xulosasiga asosan amalga oshiriladi?	Sug‘oriladigan yerlar hisobidan bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa ko‘p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasiga asosan amalga oshiriladi;
247.	Tuproqning sifati va tabiiy unumdorlik qobiliyatini 100 balli shkala bo‘yicha qiyosiy baholashga nima deb ataladi?	Tuproq sifatini baholash (tuproq bonitirovkasi)
248.	Tuproqning o‘simliklarni oziqli moddalar, issiqlik, namlik, havo va boshqa yashash faoliyati omillari bilan ta’minlaydigan xususiyatlariga nima deyiladi?	Tuproq unumdorligi
249.	Tashkil etiloyotgan bog‘ yerlarini xaritasini shakllantirish jarayonlari ketma-ketligi?	1.Joyning joylashgan o‘rni aniqlanadi (konturlari) 2. Joyni topografik syomka qilinadi 3. Syomkadan foydalanib kameral ishlar qilinadi.

№	Savol	Javob
250.	Yerlarning joylashgan joyini .kml yoki .kmz formatda qaysi programmalar orqali olish mumkin?	Arc GIS, Google earth, Sasplanet, QGIS.
251.	Topografik xaritalarni yaratishda gorizontallar qaysi dastur orqali yaratiladi?	GeoniCS, Autocad Civil 3d, Menyu geo, Arc GIS
252.	Geodeziya qanday soha ?	Yer shaklini, tashqi gravitatsiya maydonini, yer sathining koordinata nuqtalarini va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy, ta'lim, ishlab chiqarish hamda boshqa faoliyat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar sohasi;
253.	Geodeziya va kartografiyaga doir materiallar (ma'lumotlar) nima ?	Axborotni qayd etish turi va usulidan qat'i nazar, geodeziya va kartografiya faoliyati amalga oshirilayotganda olingan geodeziya, nivelir, gravimetriya o'lchovlarining, aerokosmik va kartografik tasvirlarning barcha yakuniy va oraliq natijalari;
254.	Geografik axborot tizimi nima?	geografik ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, ularni tahlil qilish, saqlash, modellastirish va aks ettirish uchun, shuningdek kartografiyaga oid axborotdan foydalangan holda umumdavlat ahamiyatiga yoki tarmoq ahamiyatiga molik axborotga va hisob kitobga doir vazifalarni hal etish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan tizim;
255.	Hudud nima?	yer yuzasining o'ziga xos tabiiy va antropogen (texnogen) xususiyatlari va resurslari bilan (maydoni, joylashuv manzili, shakli va boshqa sifatleri bilan tavsiflanadigan) cheklangan qismi;
256.	Topografik xarita nima?	joyning muayyan masshtabdagi batafsil kartografik tasviri bo'lib, u yer yuzasida nuqtalarning ham rejadagi, ham balandlikdagi holatini aniqlash imkonini beradi;
257.	Tuproq manosi ?	yer qobig'ining o'simlik qoplami va unumdorlikka ega bo'lgan yuza qatlami;
258.	Yer fondi deganda nimani tushunasiz?	ma'lum bir hududdagi uning chegaralarida (mamlakat, viloyat, tuman va boshqalar) xo'jalik faoliyati ob'yekti, mulk, yerdan foydalanish, egalik qilish ob'yekti bo'lgan barcha yerlarning yig'indisi
259.	Yer fondi toifalari nima?	yer fondining asosiy maqsadiga ko'ra ajratilgan va ma'lum bir foydalanish va muhofaza qilish holatiga ega bo'lgan qismi;
260.	Yer ijarasi nima?	Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iborat;
261.	Yer islohoti nima?	davlat tomonidan amalga oshirilgan, jamiyatdagi yer tizimi va yer munosabatlarini qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan jiddiy o'zgarishlar va qayta tashkil etish, mulk shakllarining yerga egalik qilish, foydalanish, ijaraga olishga aylanishiga sabab bo'ladigan, huquqiy maqomga, belgilangan hududga, joylashgan joyiga va aniq yopiq chegarasiga ega bo'lgan, qat'iy belgilangan o'zgarishlar tizimi;

№	Savol	Javob
262.	Yer munosabatlari nima?	bu davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, fuqarolar o‘rtasidagi yerdan foydalanish va muhofaza qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar;
263.	Yer resurslari deganda nimani tushunasiz?	iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan va ishlatilishi mumkin bo‘lgan yerlar;
264.	Yer turlari deganda nimani tushunasiz?	muayyan xo‘jalik maqsadlarida muntazam (barqaror) foydalaniladigan va tabiiy -tarixiy xususiyatlari va kelib chiqish belgilari bo‘yicha farqlanuvchi yer uchastkalari;
265.	Yer tuzish hujjatlari nima?	bir-biriga bog‘langan loyiha hujjatlarining yagona tizimi (loyihalar, sxemalar, planlar), keyingi loyihalarni ishlab chiqishda avval tasdiqlangan, umumiyroq turdagi chizmalar va loyihalarni majburiy ko‘rib chiqishni nazarda tutadi;
266.	Yer tuzish jarayoni qanday buladi?	yer tuzishning ma’lum tartibi, ya’ni uning harakatlarining tarkibi va ketma-ketligi;
267.	Yer tuzish loyihasi nima?	bu hududni tashkil etishning yangi shakllarini yaratish (hisob-kitoblar, chizmalar va boshqalar), ularni ekologik, iqtisodiy, texnik va huquqiy asoslash, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etishni ta’minlash uchun hujjatlar to‘plami;
268.	Yer tuzish loyihasini asoslash nima?	hududni tashkil etish, yerdan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha loyiha takliflarining maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tasdiqlovchi texnik, iqtisodiy va boshqa ko‘rsatkichlar va hisob kitoblar tizimi;
269.	Yerlarni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?	ulardan belgilangan maqsadda, oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o‘rmon fondi yerlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo‘jalik oborotidan va tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qo‘yilishi oldini olish, ularni zararli antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi;
270.	Yerlarni o‘zlashtirish deganda nimani tushunasiz?	ularni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida (yoki boshqa maqsadlar uchun) foydalanishga jalb qilish;
Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash boshqarmasi		
271.	Bog‘dorchilik va uzumchilik loyihalarida TIA nima?	TIA — bog‘ yoki uzumzor barpo etish loyihasining iqtisodiy samaradorligi, xarajatlari va kelgusidagi daromadini baholashga xizmat qiladigan asosiy hujjatdir.
272.	Bog‘ yoki uzumzor uchun TIA tuzishdan asosiy maqsad nima?	Loyihani amalga oshirish iqtisodiy jihatdan foydali yoki foydali emasligini oldindan aniqlashdir.
273.	TIAda yer maydoni haqidagi ma’lumotlar nima uchun muhim?	Er maydoni loyiha hajmini, ekish zichligini va umumiy investitsiya miqdorini belgilab beradi.
274.	TIAda tuproq tahlili qanday ahamiyatga ega?	Tuproq tahlili orqali nav tanlash, o‘g‘itlash me’yori va hosildorlik prognoz qilinadi.
275.	Iqlim sharoiti TIAda nima uchun hisobga olinadi?	Iqlim hosildorlik, suv sarfi va navlarning mosligiga bevosita ta’sir qiladi.
276.	TIAda nav tanlash qanday asoslanadi?	Nav tanlash hudud iqlimi, tuproq turi va bozor talabiga asosan amalga oshiriladi.
277.	Uzumchilikda ekish sxemasi TIAda nima uchun muhim?	Ekish sxemasi hosil hajmi, parvarish xarajatlari va mehnat samaradorligiga ta’sir qiladi.

№	Savol	Javob
278.	Ko‘chatlar soni TIAda qanday aniqlanadi?	Ko‘chatlar soni ekish sxemasi va yer maydoniga asosan hisoblanadi.
279.	Ko‘chat xarajatlari TIAda qanday hisobga olinadi?	Ko‘chatning bozor narxi va umumiy soni asosida hisoblanadi.
280.	TIAda sug‘orish manbalari nima uchun ko‘rsatiladi?	Suv ta‘minoti loyihaning barqaror ishlashi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.
281.	Tomchilatib sug‘orish TIAda qanday baholanadi?	Suv tejalishi, hosil o‘lishi va ekspluatatsiya xarajatlarining kamayishi orqali baholanadi.
282.	Investitsiya xarajatlari deganda nima tushuniladi?	Bog‘ barpo etishga ketadigan barcha boshlang‘ich xarajatlar investitsiya hisoblanadi.
283.	Ekspluatatsiya xarajatlari nimalardan iborat?	Parvarish, sug‘orish, o‘g‘itlash, mehnat va xizmat xarajatlaridan iborat.
284.	Bog‘ dorchilikda hosilga kirish muddati TIAda qanday ko‘rsatiladi?	Hosilga kirish odatda 3-yildan boshlanishi alohida qayd etiladi.
285.	Uzumchilikda hosilga kirish necha yilda bo‘ladi?	Uzumzorlar ko‘p hollarda 2–3 yilda hosilga kiradi.
286.	TIAda mehnat xarajatlari qanday hisoblanadi?	Qo‘l mehnati va texnika ishlari hisobga olingan holda hisoblanadi.
287.	O‘g‘it xarajatlari TIAda nimaga asoslanadi?	Agrotexnik me‘yorlar va tuproq holatiga asoslanadi.
288.	Himoya vositalari TIAda nima uchun kiritiladi?	Kasallik va zararkunandalarning oldini olish xarajatlari uchun.
289.	TIAda hosil prognozlari nima uchun kerak?	Daromad va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun.
290.	Daromad TIAda qanday aniqlanadi?	Hosil hajmi va bozordagi o‘rtacha narx asosida aniqlanadi.
291.	TIAda bozor tahlili qanday ahamiyatga ega?	Mahsulotni sotish imkoniyati va raqobat darajasini baholaydi.
292.	TIAda risklar deganda nima tushuniladi?	Tabiiy, iqtisodiy va bozor xavflari nazarda tutiladi.
293.	Qurg‘oqchilik riski TIAda qanday hisobga olinadi?	Suv tejash texnologiyalari orqali risk kamaytirilishi ko‘rsatiladi.
294.	Davlat qo‘llab-quvvatlash choralari TIAda aks ettiriladimi?	Ha, subsidiya va imtiyozlar alohida ko‘rsatiladi.
295.	Intensiv bog‘ loyihasi TIAda qanday baholanadi?	Yuqori sarf, ammo yuqori hosil va daromad bilan.
296.	An‘anaviy bog‘ loyihasi qanday baholanadi?	Kam sarf, lekin nisbatan past hosil bilan.
297.	Uzumchilikda shpaler xarajatlari TIAda kiritiladimi?	Ha, alohida investitsiya qismi sifatida kiritiladi.
298.	Texnika vositalari TIAda nima uchun hisobga olinadi?	Ish jarayonini ta‘minlash va mehnat unumdorligini oshirish uchun.
299.	TIAda xizmat muddati deganda nima tushuniladi?	Loyiha qancha yil foyda keltirishi prognoz qilinadi.
300.	TIAda amortizatsiya nima?	Asbob-uskunalarining eskirishi hisoblanadi.
301.	TIAda foyda qanday hisoblanadi?	Daromaddan barcha xarajatlar ayirilib hisoblanadi.
302.	Soliqlar TIAda qanday aks ettiriladi?	Amaldagi soliq qonunchiligi asosida hisobga olinadi.
303.	TIAda logistika xarajatlari nima?	Mahsulotni tashish va yetkazib berish xarajatlari.
304.	Ombor xarajatlari TIAda nima uchun kerak?	Mahsulotni saqlash uchun.
305.	Eksport imkoniyati TIAda qachon ko‘rsatiladi?	Agar mahsulot tashqi bozorga mo‘ljallangan bo‘lsa.
306.	Ish o‘rinlari TIAda qanday hisobga olinadi?	Loyiha doirasida yaratiladigan ish o‘rinlari ko‘rsatiladi.
307.	TIA kim tomonidan tayyorlanadi?	Agronom, iqtisodchi va loyiha mutaxassislari tomonidan.
308.	TIA kim tomonidan tasdiqlanadi?	Vakolatli tashkilotlar tomonidan.
309.	TIA qachon tayyorlanadi?	Loyiha amalga oshirishdan oldin.
310.	TIA texnik shart uchun asos bo‘ladimi?	Ha, TSh TIAda asoslanib tuziladi.

№	Savol	Javob
311.	TIA bo‘lmasa loyihaga ruxsat beriladimi?	Ko‘p hollarda yo‘q.
312.	TIA loyihani o‘zgartirish imkonini beradimi?	Ha, muqobil variantlarni ko‘rib chiqish mumkin.
313.	TIAda muqobil variantlar nima uchun kerak?	Eng samarali variantni tanlash uchun.
314.	TIAda asosiy ma’lumotlar qaysilar?	Er, suv, hosil, xarajat va daromad.
315.	TIAda aniqlik nima uchun muhim?	Noto‘g‘ri hisoblar moliyaviy zarar keltiradi.
316.	TIAda soddalik nima uchun kerak?	Tushunarli va amaliy bo‘lishi uchun.
317.	TIA attestatsiyada qanday ahamiyatga ega?	Mutaxassis bilim darajasini ko‘rsatadi.
318.	TIA qishloq xo‘jaligida rejalashtirishga yordam beradimi?	Ha, strategik qaror qabul qilishga yordam beradi.
319.	TIAda barqarorlik tushunchasi nima?	Uzoq muddatli samarali ishlash.
320.	TIAning asosiy vazifasi nima?	Loyihaning iqtisodiy asoslanganligini isbotlash.
321.	Bog‘dorchilik va uzumchilikda texnik shart (TSh) nima?	TSh — bog‘ yoki uzumzorni barpo etish va parvarish qilishda bajarilishi shart bo‘lgan texnik talablar va me‘yorlarni belgilaydigan hujjatdir.
322.	TShni ishlab chiqishdan asosiy maqsad nima?	Loyihani texnik jihatdan to‘g‘ri, xavfsiz va samarali amalga oshirishni ta‘minlashdir.
323.	TSh qachon ishlab chiqiladi?	TIA tayyorlanib, loyiha parametrlari aniq bo‘lganidan so‘ng ishlab chiqiladi.
324.	TSh kim tomonidan tayyorlanadi?	Loyiha tashkiloti yoki sohaviy mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi.
325.	TSh kim tomonidan tasdiqlanadi?	Buyurtmachi va tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadi.
326.	TShda yer maydoniga oid qanday talablar ko‘rsatiladi?	Erning maydoni, joylashuvi va qishloq xo‘jaligiga mosligi ko‘rsatiladi.
327.	Bog‘ uchun ekish sxemasi TShda qanday belgilanadi?	Nav xususiyati va intensivlik darajasiga mos ravishda belgilanadi.
328.	TShda ko‘chatlarga qanday talablar qo‘yiladi?	Ko‘chatlar sog‘lom, kasalliksiz va sertifikatlangan bo‘lishi shart.
329.	Nav tanlash TShda qanday asoslanadi?	Iqlim, tuproq va bozor talablariga mos navlar tanlanadi.
330.	TShda sug‘orish tizimi qanday belgilanadi?	Suv manbasi va suv tejovchi texnologiyalarga asoslanib belgilanadi.
331.	Texnik shart nima maqsadda ishlab chiqiladi?	Texnik shart bog‘ va uzumzorni amalda barpo etishda bajarilishi shart bo‘lgan aniq texnik talablarni belgilash uchun ishlab chiqiladi.
332.	TSh qaysi normativ hujjatlarga asoslanib ishlab chiqiladi?	Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 255-son qarori hamda amaldagi standartlar asosida.
333.	TShda loyiha tashabbuskori haqida qanday ma’lumotlar ko‘rsatiladi?	Xo‘jalik nomi, rahbar FIOsi, joylashuv manzili va yuridik rekvizitlar ko‘rsatiladi.
334.	Er uchastkasining toifasi TShda nima uchun muhim?	Erning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangani va sug‘oriladigan yer ekani loyiha qonuniyligini ta‘minlaydi.
335.	Erga bo‘lgan huquq TShda qanday tasdiqlanadi?	Ijara shartnomasi va davlat ro‘yxatidan o‘tgan reestr ma’lumotlari orqali.
336.	Er uchastkasining lokatsiyasi TShda nima uchun ko‘rsatiladi?	Loyihaning aniq joylashuvini belgilash va monitoring qilish uchun.
337.	Tuproq haqidagi ma’lumotlar TShda qanday ahamiyatga ega?	Nav tanlash, o‘g‘itlash va agrotexnik tadbirlarni belgilashga asos bo‘ladi.

№	Savol	Javob
338.	Suv ta'minoti bo'yicha xulosa TShda nima uchun talab etiladi?	Loyihaning barqaror ishlashi uchun suv manbasi yetarli ekanini tasdiqlaydi.
339.	Ob-havo tahlili TShda nima uchun kiritiladi?	Hosildorlik va agrotexnika tadbirlarini to'g'ri rejalashtirish uchun.
340.	Ilmiy tavsiyalar TShda qanday ahamiyatga ega?	Hududga mos navlarni tanlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.
341.	Ko'chat navlarini belgilash nimaga asoslanadi?	Ilmiy tavsiya, iqlim va bozor talabiga asoslanadi.
342.	Ekish sxemasi TShda nima uchun muhim?	Hosildorlik, parvarish qulayligi va iqtisodiy samaraga ta'sir qiladi.
343.	Ko'chat soni TShda qanday hisoblanadi?	Ekish sxemasi va umumiy yer maydoniga qarab hisoblanadi.
344.	Ko'chatlar TShda nima uchun aniq ko'rsatiladi?	Davlat subsidiyasi va monitoring talablari uchun.
345.	Ekish sxemasi TShda nima uchun muhim?	Hosildorlik, parvarish qulayligi va iqtisodiy samaraga ta'sir qiladi.
346.	Ko'chat soni TShda qanday hisoblanadi?	Ekish sxemasi va umumiy yer maydoniga qarab hisoblanadi.
347.	TShda zamonaviy texnologiyalar qo'llash majburiymi?	Ha, PF-151 va VM 255-son qaroriga asosan.
348.	Tomchilatib sug'orish nima uchun majburiy?	Suv tejash va hosilni barqaror oshirish uchun.
349.	TSh da nasos stansiyasiga qanday talab qo'yiladi?	Barqaror bosim va xavfsiz ishlashni ta'minlashi shart.
350.	Monitoring kim tomonidan olib boriladi?	Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tomonidan.
351.	Monitoring qancha muddat davom etadi?	Kamida 3 yil.
352.	TSh bajarilmasa qanday oqibat bo'ladi?	Subsidiya bekor qilinishi mumkin.
353.	TShda muddatlar nima uchun belgilanadi?	Ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun.
Qayta ishlash va qo'shilgan qiymatni rivojlantirish bo'limi		
354.	Qayta ishlash va qiymat zanjiri deganda nimani tushunasiz?	Bu jarayon xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish, uni qadoqlash, saqlash, logistika orqali iste'molchiga yetkazish va bu orqali mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shishdir.
355.	"Daladan dasturxongacha" tamoyili nimani anglatadi?	Bu tamoyil mahsulot yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, saqlash, transport qilish va iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.
356.	Qayta ishlash korxonalarining qanday xalqaro standartlarini bilasiz?	HACCP, ISO 22000, GlobalG.A.P., Halal, Organic kabi oziq-ovqat xavfsizligi va sifati bo'yicha standartlar mavjud.
357.	Qayta ishlashda marketing boshqaruvi vazifalari qanday?	Bozor ehtiyojlarini o'rganish, mahsulotni to'g'ri joylashtirish, reklama, narx siyosatini belgilash.
358.	Meva va sabzavotlarni qayta ishlash bosqichlari qanday ketma-ketlikda amalga oshiriladi?	Tozalash → Saralash → Kalibrlash → Qayta ishlash → Qadoqlash → Sertifikatlash → Saqlash → Tashish.
359.	Quritilgan meva-sabzavot mahsulotlarining sifati qanday aniqlanadi?	Namlik miqdori, rangi, hidi va tashqi ko'rinishi orqali.
360.	Meva-sabzavotlarni vakuum qadoqlashning afzalliklari nimalarda?	Yaroqlilik muddati uzayadi, mikroorganizmlar rivojlanishi to'xtaydi, rang va ta'm saqlanadi.

№	Savol	Javob
361.	Agroklaster deganda nimani tushunasiz?	Bu bir yoki bir nechta yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilishni o'z ichiga olgan tizimdir.
362.	Qiymat zanjirini uzviy rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?	Mahsulotni joyida qayta ishlash, saqlash va eksport qilish uchun logistika va infratuzilma yaratish.
363.	Qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligini qanday baholaysiz?	Ishlab chiqarish hajmi, xarajat va daromad tahlili, foydalilik, resurslardan foydalanish samarasi asosida.
364.	Mahsulot tannarxini qanday aniqlaysiz?	Xomashyo narxi + ishlab chiqarish xarajatlari + qadoqlash + logistika + ishchi haqi = umumiy tannarx formulasi orqali hisoblanadi.
365.	Mahsulot eksportini rivojlantirish uchun nimalar qilasiz?	Bozor tahlili, xalqaro sertifikatlar olish, eksportga mo'ljallangan qadoqlash, brend yaratish va logistika hamkorlari bilan ishlash lozim.
366.	Sovutkich omborlarida mahsulot saqlash uchun optimal harorat qanday bo'lishi kerak?	Har bir mahsulotga qarab farqlanadi. Masalan, mevalar uchun +0°C dan +5°C gacha.
367.	Mahsulotning qadoqlash texnologiyalariga misol keltiring.	Vakuum qadoqlash, plastmassa yoki shisha bankalar, konserva idishlari, plyonka va qog'ozli qadoqlash.
368.	Kalibrlash jarayoni nima?	Meva va sabzavotlarni o'lchami bo'yicha saralash jarayoni.
369.	Barqaror qadoqlash materiallari qanday afzalliklarga ega?	Biologik parchalanadi, tabiatga zarar yetkazmaydi, qayta ishlanishi mumkin, ekologik jihatdan xavfsiz.
370.	Qayta ishlashning asosiy maqsadi nima?	Xomashyoni yuqori qiymatli tayyor mahsulotga aylantirish va ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish.
371.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida xalqaro talablar qanday?	Mahsulot sifati, sertifikatlash, fitosanitar talablar, qadoqlash va yorliqlash qoidalariga rioya etish.
372.	Agrokooperatsiya deganda nima tushuniladi?	Fermer va tadbirkorlarning birlashib, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va sotishni birgalikda tashkil etishi.
373.	Qiymat zanjiri tahlili qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?	Xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, logistika va bozor tahlili.
374.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashda mavsumiy muammolar qanday?	Hosil yetishtirish mavsumiyligi, saqlash imkoniyati cheklanganligi va eksportga logistika murakkabligi.
375.	Agrosanoatda "klaster" va "kooperatsiya" o'rtasidagi farq nima?	Klaster yagona boshqaruv asosidagi tizim bo'lsa, kooperatsiya esa fermer va korxonalarning erkin ixtiyoriy birlashmasi.
376.	Qiymat zanjiri samaradorligini oshirish usullari qanday?	Innovatsion texnologiyalar, logistikani optimallashtirish, eksport diversifikatsiyasi va brend yaratish.
377.	Agar sizga qishloq hududida qayta ishlash loyihasini ishga tushirish vazifasi topshirilsa, birinchi qiladigan ishingiz nima bo'ladi?	Bozor va xomashyo tahlili, infratuzilma imkoniyatlarini o'rganish, talab va eksport imkoniyatini aniqlash.

№	Savol	Javob
378.	Yangi brend ostida eksportni yo‘lga qo‘yish uchun qanday strategiya taklif qilasiz?	Sifat kafolati, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok, targ‘ibot.
379.	Qayta ishlashda halal sertifikatini qanday ahamiyatga ega?	Qayta ishlashda halal sertifikatini mahsulotni islomiy talablar asosida ishlab chiqarilganini tasdiqlab, eksport va iste‘molchiga ishonchni oshiradi.
380.	Fermerlar uchun qayta ishlash nega muhim?	Fermerlar mahsulotiga qo‘shilgan qiymatni oshiradi, barqaror daromad manbai yaratadi va yo‘qotishlarni kamaytiradi.
381.	Qadoqlash dizayni sotuvga ta‘sir qiladimi?	Ha, dizayn mahsulotning jalb etuvchanligini oshiradi, brend imidjini yaratadi va iste‘molchini xarid qilishga undaydi.
382.	Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda chiqindilarni qanday foydalansa bo‘ladi?	Chiqindilarni kompost, o‘g‘it, hayvon yemiga aylantirish yoki biogaz ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.
383.	Qadoqlashda innovatsion yondashuvlar qanday?	Biologik parchalanadigan materiallar, aqlli qadoqlar (harorat/namlik nazorati), QR kodli izlanish tizimlari.
384.	Sertifikatlangan mahsulot nima?	Muayyan standartlarga (HACCP, ISO, Halal, Organik va h.k.) javob beruvchi, rasmiy tekshiruvdan o‘tgan mahsulot.
385.	Meva pishganligining darajasi mahsulot sifatiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?	To‘g‘ri pishgan meva – sifatli mahsulot, notekis pishgan meva – ta‘m, rang va saqlash muddatiga salbiy ta‘sir qiladi.
386.	Qayta ishlash uchun meva yetkazib beruvchilar kimlar bo‘ladi?	Fermerlar, kooperativlar, agroklastlar va dehqon bozorlari asosiy yetkazib beruvchilardir.
387.	Qanday mevalar qayta ishlashga yaroqli?	Pishgan, ammo tashqi ko‘rinishi eksportga yaroqsiz, ammo sifati yaxshi bo‘lgan mevalar qayta ishlashga yaroqli.
388.	Mevalarni qanday saqlash kerak?	Mahsulot xususiyatiga qarab: muzlatkichda, ventilyatsiyalangan quruq joyda, qadoqlangan holda yoki vakuumda saqlanadi.
389.	Muzlatilgan mevalar qanday texnologiya bilan tayyorlanadi?	Tez muzlatish texnologiyasi orqali mevalar oziq moddalarini saqlagan holda -18°C va undan past haroratda muzlatiladi.
390.	Qayta ishlash korxonalarida sanitariya talablariga rioya qilish nega muhim?	Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, sog‘liq uchun xavfni kamaytirish va xalqaro standartlarga javob berish uchun zarur.
391.	Mevalarni quyoshda quritishning kamchiligi nima?	Chang, hasharotlar, gigiyena muammolari, notekis qurish va ko‘p vaqt talab etilishi.
392.	Qayta ishlangan mahsulotlarni sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?	Maxsus laboratoriyalar orqali sifat, xavfsizlik, gigiyena, kelib chiqish manbai kabi mezonlar asosida baholanadi.
393.	Mevalarni saralash va kalibrlash o‘rtasidagi farq nimada?	Saralash – sifatiga ko‘ra ajratish; kalibrlash – o‘lcham va og‘irligiga ko‘ra ajratish.
394.	Mevalar eksportga tayyorlanayotganda qanday standartlarga amal qilinadi?	ISO, GlobalG.A.P., Halal, HACCP, organik sertifikatlar va mamlakatlar bo‘yicha fitosanitar talablar.
395.	Organik mevalarni qayta ishlashda qanday farqlar mavjud?	Kimyoviy moddalar, konservantlar, sun‘iy bo‘yoqlar ishlatilmaydi; alohida saqlash, sertifikat talab etiladi.

№	Savol	Javob
396.	Sterilizatsiya nima?	Yuqori haroratda (100°C dan yuqori) ishlov berish orqali mikroorganizmlarni butunlay yo'q qilish jarayoni.
397.	Pasterizatsiya nima?	60–90°C atrofidagi haroratda qisqa muddatli ishlov berish orqali zararli bakteriyalarni yo'q qilish usuli.
398.	Mevalarni qayta ishlashdan asosiy maqsad nima?	Mevalarning saqlash muddatini uzaytirish, ularga qo'shilgan qiymatni oshirish va eksport imkoniyatini kengaytirish.
399.	Quritilgan mevalar qanday sharoitda saqlanishi kerak?	Quruq, ventilyatsiyalangan, qorong'i va salqin joyda; namlik <60%, harorat 5–15°C orasida.
400.	Mevalarni qayta ishlash qaysi faslda faollashadi?	Asosan yoz va kuz fasllarida – hosil yig'ish davrida.
401.	Qanday hujjatlar qayta ishlovchi korxonalarda bo'lishi shart?	Ro'yxatga olish guvohnomasi, sanitariya-epidemiologik xulosa, texnik reglamentlar, sertifikatlar, mehnat sharoitlariga oid hujjatlar.
402.	Brendlashtirish qayta ishlashda qanday rol o'ynaydi?	Mahsulotni bozorda ajratib ko'rsatadi, ishonchni oshiradi, narxni yuqori saqlashga yordam beradi.
403.	Organik mevalarni qayta ishlashda qanday farqlar mavjud?	Albatta alohida liniyalarda, kimyoviy moddalarsiz, sertifikatlangan usullarda amalga oshiriladi.
404.	Elektron savdo platformalari eksportda qanday rol o'ynaydi?	Kichik ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar, to'g'ridan-to'g'ri mijozlar bilan aloqalar va marketing xarajatlarini kamaytiradi.
405.	Qayta ishlashda qanday uskunalar kerak bo'ladi?	Tozalash, maydalash, siqish, quritish, muzlatish, qadoqlash, sterilizatsiya va laboratoriya uskunolari.
406.	Qayta ishlash sanoatining rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatadi?	Yo'qotishlar kamayadi.
407.	Sublimatsiya usulida qurutish nima	Sublimatsiya – bu moddaning suyuqlik holatiga o'tmasdan bevosita qattiq holatdan gaz holatiga o'tishi jarayonidir. Mevalar sublimatsion quritish usulida, ularning suvini qattiq holatdan gaz holatiga o'zgartirish orqali quritiladi.
408.	100 tonna uzum quritish uchun qancha oltingugurt talab qilinadi (kg)?	150-180 kg
409.	Mahsulotni o'lchamlari bo'yicha saralash jarayoni bu...	Kalibrlash
410.	Mevalarni qisqa muddatga qaynab turgan suv yoki bug' bilan ishlash nima deyiladi?	Blanshirlash
411.	Quritilgan mahsulotlarda necha foizgacha namlik bo'lishi kerak?	12-14
412.	Termosterilizatsiya nima?	Yuqori haroratda qizdirib saqlash
413.	Uzum navlarini quritishda qo'llaniladigan umumiy majburiy ishlab chiqarish-texnologik jarayonlari?	Tashish, saqlash, sortlarga ajratish va tekshirishdan o'tkazish
414.	Mahsulotlarni naviga qarab ajratish nima deyiladi?	Sortirovka

№	Savol	Javob
415.	Mevalarning shirinligi uning tarkibidagi nimaga bog'liq	Fruktoza
416.	Uzumning shirinligi uning tarkibidagi nimaga bog'liq	Glyukoza
417.	Sublimatsion quritish uslubida mahsulotdagi namlik qanday holatda yo'qotiladi?	namlikning muz agregat holatida bug' agregat holatiga suyuq fazaga utmasdan 0 gradusdan past holatda
418.	Meva-sabzavotlarni inspeksiyalash deganda nimani tushinasiz?	sifatiga qarab ajratish
419.	Qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladigan blansirovatelni vazifasi	Blansirovatel meva-sabzavotlarni suvda yoki rasolda qizidirib po'stini yumshatish uchun qo'llaniladi
420.	Sublimatsion quritishda birlamchi texnologik jarayon nima hisoblanadi?	mahsulotni muzlatish
421.	100 tonna uzum quritish uchun qancha yog'och padnos talab qilinadi (ming dona)?	5-6 ming dona
422.	Har xil nav uzumlardan ishqor bilan ishlanmay faqat oftobda quritib olingan mayiz qanday nomlanadi?	Avlon
423.	Quritish jarayonida quritiladigan meva va sabzavotlardan, birinchi navbatda namlik qanday va qaysi qismidan ajralib chiqadi?	ustki qismdan va kapillyar ichidan bug'lanib ketadigan kapillyar namlik ajralib chiqadi
424.	Sublimatsion quritishda muzlatish davomiyligi qancha vaqt sarflanadi (minut)?	10-15 minut
425.	Uzum quritish uchun, yuqori sifatli mahsulot olishga nimalar imkon yaratadi?	Issiq yozning davomiyligi, nisbiy namalikning past bo'lishi
426.	Meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalarida elevatorlar nima uchun ishlatiladi?	yuklarni vertikal yo'nalishda tashish uchun
427.	Mahsulotlarni organoliptik usulda nazorat qilish nima	Inson sezgi organlari orqali nazorat qilish
428.	Sublimatsiyali quritgichlar vazifasi nimadan iborat?	muzlagan holda yuqori vakuum ostida suvsizlantiriladi
429.	Mahsulotlarni chirigan va kasallanganlaridan tozalash nima deyiladi?	Inspeksiya
430.	100 tonna uzumni oftobda quritish uchun qancha maydon talab qilinadi?	0,5-0,6 gektar quritish maydoni
431.	Ko'kat sabzavotlarni quritishdan asosiy maqsad nima?	Saqlash muddatini uzaytirish
432.	Quritishning afzalligi nimada?	o'zidagi hamma mazali sifatlarni ancha vaqt saqlashi, uzoq masofalarga tashishga yaroqli mahsulot ekanligi
433.	Sifatli saqlash nuqtai nazaridan qaysi uslubi barcha quritish uslublaridan mukammal sanaladi?	Sublimatsion quritish
434.	Tabiiy quritish usuli qanday amalga oshiriladi?	Quyoshda yoki soyada

№	Savol	Javob
435.	Tayyor mahsulotning nordonligi qaysi ko'rsatkich orqali aniqlanadi?	pH ko'rsatkichi
436.	Yuqori sifatli quritilgan mahsulot olish qanday faktorlarga bogliq?	xom ashyo sifati, yigishli texnologiyaga rioya qilish, ishlab chiqarish sharoiti va boshqalarga
437.	Ekotester nima?	Meva-sabzavot va poliz mahsulotlari tarkibini aniqlaydi
438.	Refroktometer nima?	Mevalarni quruqlik miqdorini aniqlaydi
439.	Olmani pishib yetilganligini qanaqa asbobda aniqlasa bo'ladi	Penetrometr
440.	Kichik va o'rta korxonalarning qayta ishlashdagi o'rnini nimada?	Hududiy bandlikni ta'minlaydi.
441.	Qayta ishlashda Texnik reglamentlarga amal qilinmasligi qanday oqibatlariga olib keladi?	Xavfli mahsulot tarqaladi.
442.	Oziq-ovqat sanoatida qo'shimcha qiymat yaratish mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyatga ega?	Daromad va eksport salohiyatini oshiradi.
443.	Oziq-ovqat sanoatida sifat nazorati tizimi qanday bosqichlarni qamrab olishi kerak?	Xomashyodan tayyor mahsulotgacha.
444.	Meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonada qanday iqtisodiy xatarlar bo'lishi mumkin?	Bozor narxlarining o'zgarishi, mahsulot sifati, valyuta kursi, yetkazib berishdagi kechikishlar.
445.	Qiymat zanjiri orqali mahsulotga qiymat qanday qo'shiladi?	Qadoqlash, brendlash, qayta ishlash, marketing va logistik xizmatlar orqali mahsulotning bozordagi narxi oshiriladi.
446.	Quritilgan mevalar eksporti uchun qanday bozorlar mavjud?	Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, Yaqin Sharq, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlar.
447.	Yuqori haroratda ishlov berishning kamchiligi nima?	Ba'zi foydali moddalar (vitaminlar) yo'qoladi, ta'm o'zgarishi va mahsulot rangi pasayishi mumkin.
448.	Organik mevalarni qayta ishlashda qanday farqlar mavjud?	Albatta alohida liniyalarda, kimyoviy moddalarsiz, sertifikatlangan usullarda amalga oshiriladi.
449.	Halal xalqaro standarti talablari qaysi ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlariga tatbiq etiladi?	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xomashyo tanlash, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashga tatbiq etiladi.
450.	Sertifikatlashtirish tushunchasiga ta'rif bering?	Sertifikatlashtirish — muvofiqlikni tasdiqlash jarayoni.
451.	Milliy standart nima?	Milliy standart — davlat miqyosida amal qiluvchi me'yoriy hujjat.
452.	Talab nima?	Talab - bu bozor iqtisodiyotida iste'molchilarning tovar yoki xizmatga bo'lgan ehtiyoji, qobiliyati va xohishi bilan belgilanadi.
453.	Taklif nima?	Taklif - bu ma'lum bir narxda bozorga taqdim etilishi mumkin bo'lgan tovar yoki xizmat hajmi.
Agrologistika markazlari va sovutgichli omborlarni rivojlantirish bo'limi		

№	Savol	Javob
454.	Agrologistika markazlari nima?	Agrologistika markazi — qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, saralash, qadoqlash va eksportga tayyorlashga ixtisoslashgan kompleks
455.	O‘zbekistonda nechta agrologistika markazlari mavjud?	88 ta
456.	Agrologistika zanjiriga qaysi bosqichlar kiradi?	Etishtirish-yig‘ish-saralash-saqlash-transportirovka-bozorga chiqarish.
457.	O‘zbekistonda qaysi hududlar logistika markazi sifatida rivojlanmoqda?	Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg‘ona.
458.	Raqamli logistika tizimi nimalarni qamrab oladi?	GPS kuzatuv, ma’lumotlarni real vaqtda tahlil qilish, ombor nazorati.
459.	Sovutgichli ombor qanday ishlaydi?	Harorat va namlikni avtomatik nazorat qilib, mahsulotni uzoq vaqt saqlaydi.
460.	Xalqaro GAP, HACCP talablari haqida nimalar bilasiz?	Bu oziq-ovqat xavfsizligi standartlari bo‘lib, ombor va logistika jarayonlarida joriy etiladi.
461.	Omborlarda mahsulot aylanmasi nima?	Omborga tushgan va chiqarilgan mahsulot miqdori va vaqtini anglatadi.
462.	Fermerlar uchun omborlar qanday ahamiyatga ega?	Mahsulotni bozorda yuqori narxda sotish uchun vaqtida saqlash imkoni
463.	Zamonaviy sovutgichli omborda harorat nazorati qanday amalga oshiriladi?	Datchiklar orqali markazlashtirilgan tizim yordamida
464.	Agrologistika markazlarining sovutgichli omborlardan farqi	Sovutgichli ombor — faqat mahsulotni saqlaydi. Agrologistika markazi — saqlash bilan birga saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksportga tayyorlashni ham qiladi.
465.	Sovutgichli ombor nima?	Sovutgichli ombor — mahsulotlarni belgilangan haroratda saqlash uchun mo‘ljallangan inshoot
466.	Agrologistika markazlari qaysi sohalarga xizmat qiladi?	Mevachilik, sabzavotchilik, uzumchilik va qayta ishlash sohalariga
467.	Agrologistika markazlari qaysi bozorlarga yo‘naltirilgan?	Ichki va tashqi (eksport) bozorlarga.
468.	Sovutgichli omborda asosiy jihoz nima?	Sovitish tizimi
469.	Agrologistika markazida asosiy jihozlar nima?	Sovutgichlar, saralash liniyasi, qadoqlash uskunalari.
470.	Agrologistika markazlari qishloq xo‘jaligiga qanday ta’sir qiladi?	Qiymat zanjirini oshiradi.
471.	Agrologistika markazlari qanday muammoni hal qiladi?	Sifatli eksport ta’minotini yaratadi.
472.	Sovutgichli omborlar qanday muammoni hal qiladi?	Mahsulot yo‘qotilishini kamaytiradi.
473.	Agrologistika markazlari daromadni qanday oshiradi?	Qadoqlangan mahsulot qimmatroq sotiladi.
474.	Sovutgichli omborlar iqtisodiy jihatdan nima beradi?	Narx mavsumiy tushib ketishini oldini oladi.
475.	Agrologistika markazlari investitsiya jalb qiladimi?	Ha, ichki va tashqi investorlar uchun jozibali.
476.	Agrologistika markazlari hamda sovutgichli omborlardan qaysi biri ko‘proq daromad keltiradi?	Agrologistika markazlari.
477.	Sovutgichli omborlar eksportga qanday ta’sir qiladi?	Saqlash orqali bilvosita
478.	Sovutgichli omborlar narxga ta’sir qiladimi?	Qisman ta’sir qiladi.

№	Savol	Javob
479.	Agrologistika markazlari fermer foydasini oshiradimi?	Ha, qiymat qo‘shadi.
480.	Sovutgichli omborlar fermerga qanday foyda beradi?	Mahsulotni yo‘qotmasdan saqlaydi.
481.	Agrologistika markazlari davlat byudjetiga ta’sir qiladimi?	Eksport orqali soliq tushumlarini oshiradi.
482.	Agrologistika markazlari qaysi standartlarga javob beradi?	GlobalG.A.P, HACCP.
483.	Sovutgichli omborlarda standartlar bormi?	Asosiy sanitar standartlar.
484.	Agrologistika markazlari logistikani yaxshilaydimi?	Ha, yetkazib berishni tezlashtiradi.
485.	Sovutgichli omborlar logistikaga ta’siri qanday?	Saqlash bosqichini ta’minlaydi
486.	Eksportda qadoqlash nima uchun muhim?	Sifat va tashqi ko‘rinish uchun.
487.	Sovutgichli omborlarda qadoqlash bormi?	Odatda yo‘q.
488.	Agrologistika markazlari transportni muvofiqlashtiradimi?	Ha.
489.	Eksportda mahsulot yo‘qotilishi qaysida kam?	Agrologistika markazlarida.
490.	Agrologistika markazlari eksport hajmini oshiradimi?	Ha.
491.	Agrologistika markazlari tashqi bozorga chiqishni osonlashtiradimi?	Albatta.
492.	Agrologistika markazlarini rivojlantirish nega muhim?	Eksport raqobatbardoshligi uchun.
493.	Sovutgichli omborlarni rivojlantirish nega kerak?	Mahsulot yo‘qotilishini kamaytirish uchun.
494.	Sovutgichli omborlar barqarormi?	Energiyaga bog‘liq.
495.	Uzoq muddatli rivojlanish uchun qaysi muhim?	Agrologistika markazlari.
496.	Eksportda sovutgichli ombor yetarlimi?	Yo‘q, eksport uchun saralash, qadoqlash va sertifikatlash ham kerak.
497.	Fermer uchun qaysi biri foydali?	Ikkalasi ham kerak, lekin agrologistika markazi ko‘proq daromad beradi.
498.	Agrologistika markazlari logistikaga qanday ta’sir qiladi?	Etkazib berish muddatini qisqartiradi.
499.	Agrologistika markazlari va sovutgichli omborlarning ahamiyati	“Agrologistika markazlari qiymat zanjirini to‘liqlaydi.” “Eksport sifati faqat saqlash bilan emas, qayta ishlash bilan oshadi.” “Sovutgichli ombor — baza, agrologistika markazi — strategiya.”
500.	Mahsulot yo‘qotilishi qaerda kam Agrologistika markazlari va sovutgichli omborlardami?	Agrologistika markazlarida
501.	Eksportda sovutgichli ombor yetarlimi?	Yo‘q, eksport uchun saralash, qadoqlash va sertifikatlash ham kerak.
502.	Qanday standartlar muhim?	GlobalG.A.P, HACCP, ISO.
503.	Agrologistika markazi qanday funksiyalarni bajaradi?	Saqlash, saralash, qadoqlash, logistika va eksportga tayyorlash.
Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo‘nalishi		
504.	Yangi Mehnat kodeksi qachon qabul qilindi, qachon kuchga kirdi va nechta moddadan iborat?	Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan bo‘lib jami 581 moddadan iborat.
505.	Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat bu?	O‘zbekiston Respublikasida Mehnat kodeksi

№	Savol	Javob
506.	Mehnat kodeksining asosiy maqsadi nima?	Ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.
507.	Xodimning asosiy huquqlari nimadan iborat?	Munosib mehnat sharoiti, mehnatiga haq to'lanishi, ta'til olish, xavfsiz muhit va boshqa huquqlar.
508.	Majburiy mehnat deganda nima tushuniladi va Mehnat kodeksiga muvofiq qanday hollarda ishlash majburiy mehnat hisoblanmaydi?	Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi. Harbiy xususiyatga ega bo'lgan ishlarni, bajarilishiga favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishi sabab bo'ladigan ish, sud qarorlarini ijro etish chog'ida qonunchilikka rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari nazorati ostida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo'yicha jazo sifatida bajariladigan ish majburiy mehnat hisoblanmaydi.
509.	Mehnat shartnomasi bu qanday hujjat hisoblanadi?	Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi taraflarning o'zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv hisoblanadi.
510.	Mehnat shartnomasining shakli va muddatlari haqida so'zlab bering?	Mehnat shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq faqat yozma shaklda tuziladi va unda ish beruvchi hamda xodimning ma'lumotlari, lavozim, ish haqi, ish vaqti, mehnat sharoitlari va tugash muddati kabi shartlar ko'rsatiladi. Shartnoma nomuayyan muddatga (doimiy ishlar uchun) yoki muayyan muddatga (mavsumiy, vaqtinchalik, loyiha ishlari yoki boshqa asoslar bo'lsa) tuzilishi mumkin; mavsumiy ishlar 6 oygacha, vaqtinchalik ishlar 6 oygacha, sinov muddati esa 3 oygacha belgilanishi mumkin.
511.	Qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishi qaysi hollarda va kimlarga cheklanadi?	MKning 121-moddasiga muvofiq O'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi. Ushbu qoidadan istisnolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi mumkin.
512.	Ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov va uning muddatlari haqida so'zlab bering?	O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 129-130-moddalariga ko'ra, ishga qabul qilishda dastlabki sinov xodimning lavozimga mosligini aniqlash uchun qo'yiladi va u shartnomada ko'rsatilishi shart. Odatiy xodimlar uchun sinov muddati 3 oygacha, rahbarlar, ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar va tarkibiy bo'linma rahbarlari uchun esa 6 oygacha belgilanishi mumkin. MKning 129-moddasiga muvofiq, homilador ayollar, 3 yoshgacha farzandi bor ayollar, oliy ta'lim muassasasini tamomlab birinchi marta mutaxassisligi bo'yicha ishga kirayotganlar, shuningdek 6 oygacha tuzilgan mehnat shartnomalari bo'yicha ishlovchilarga sinov muddati qo'yilmaydi.

№	Savol	Javob
513.	Ishga qabul qilish bosqichlari haqida tushuncha bering?	Ishga qabul qilish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: ishga qabul qilish chog'idagi tanishtirish tartib-taomilini; mehnat shartnomasi shartlari bo'yicha taraflarning kelishuvga erishishini hamda shartnomani xodim va ish beruvchi tomonidan imzolashni; ish beruvchi tomonidan xodimni ishga qabul qilish to'g'risida buyruq qabul qilishni hamda ishga qabul qilish haqidagi ma'lumotlarni xodimning mehnat daftarchasiga va "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritish.
514.	Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslari haqida so'zlab bering?	Mehnat shartnomasini bekor qilish – bu xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari tugatilishi bo'lib, MK 155-moddasiga muvofiq tartibga solinadi. Taraflarning kelishuvi (MK 157-modda), shartnoma muddatining tugashi (MK 158-modda), xodimning tashabbusi bilan bekor qilish (MK 160-modda), ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish (MK 161-modda), shuningdek boshqa holatlar – masalan, mulkdorning o'zgarishi, ish sharoitlari o'zgarishi, xodimning yangi shartlarga rozi emasligi, sog'liq sababli ishga mos emasligi yoki taraflardan mustaqil vaziyatlar tufayli shartnoma bekor qilinishi (masalan, MK 156, 137, 146, 143 va 168-modda muvofiq).
515.	Mehnat daftarchasi nima?	Lozim darajada tasdiqlangan qog'oz yoki elektron shaklidagi mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi va jismoniy shaxsning mehnat faoliyati to'g'risidagi verifikatsiya qilingan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asosiy hujjatdir.
516.	Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish asoslari haqida so'zlab bering?	Mehnat munosabatlarini ish beruvchi tomonidan asosli sabablar bilan tugatish bo'lib, bu tushuncha va umumiy tartib MK 155-moddada belgilangan; ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishning aniq sabab va tartibi MK 161-moddada ko'rsatilgan. Masalan, asoslar qatoriga: tashkilot yoki uning bo'linmasi tugatilishi, ishlab chiqarish yoki texnologik o'zgarishlar hamda shtat (ish o'rinlari) qisqarishi, xodimning malakasi yoki sog'lig'i lavozim talablariga mos kelmasligi, mehnat majburiyatlarini muntazam yoki qo'pol buzishi, xodimning yangi mehnat shartlarini qabul qilmasligi, ish beruvchining tashkiliy-iqtisodiy o'zgarishlari yoki tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar (masalan, mulkdor almashishi, majburiy holatlar) kiradi (MK 161; MK 156; MK 137; MK 146; MK 143; MK 168). Bekor qilish qarori qonunda belgilangan protseduralarga (oldindan ogohlantirish, hisob-kitob, mehnat daftarchasiga yozuv va boshqalar) muvofiq amalga oshirilishi shart.
517.	Ish beruvchi xodimni ogohlantirmasdan ishdan bo'shatishi mumkinmi?	Yo'q. Bo'shatish faqat Kodeksda belgilangan asoslar bilan va yozma ravishda xabardor qilgan holda amalga oshiriladi. Bekor qilinadigan shartnoma turi (muddatli/muddatli emas) va sababga qarab ogohlantirish muddati farq qiladi.

№	Savol	Javob
518.	Qanday holatlar mehnat shartnomasini o'zgartirishga asos hisoblanadi?	Mehnat shartlarining o'zgarishi, xodimning boshqa ishga o'tkazilishi, ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyning o'zgarishi, xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilishi, mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ish joyining o'zgarishi.
519.	Xodimni boshqa ishga o'tkazish deb nimaga aytiladi?	Xodim aynan o'sha ish beruvchida ishni davom ettirganda uning mehnat vazifalarini o'zgartirish xodimni boshqa ishga o'tkazish hisoblanadi. Xodim uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan qarshi ko'rsatmalar bo'lganda xodimni boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.
520.	Ish vaqtining turlari va ish vaqtining normal davomiyligi haqida so'zlab bering?	Mehnat kodeksining 13-bobida "Ish vaqti" tartiblari va normalari belgilangan, jumladan, MKning 181-moddasiga ko'ra "Xodim ichki mehnat tartib qoidalariga, smenalarga bo'linib ishlash (ish) jadvalariga, boshqa ichki hujjatlarga yoki mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini qaysi vaqt mobaynida bajarishi kerak bo'lsa, o'sha vaqt ish vaqtidir" deb tushuncha berilgan, shuningdek, ish vaqtining turlari sifatida ish vaqtining normal davomiyligi, ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi, to'liqsiz ish vaqti belgilangan. MKning 182-moddasiga ko'ra Xodim uchun ish vaqtining normal davomiyligi besh kunlik yoki olti kunlik ish haftasida haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.
521.	Qisqartirilgan ish vaqti kimlarga belgilanadi?	14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar, nogironligi bo'lganlar kabi toifalarga
522.	Xodimlarni ish vaqtidan tashqari ishga jalb qilish mumkinmi?	Mumkin, faqat xodim roziligi bilan va chegaralangan vaqtlarda, ya'ni, Favqulodda holatlar, ishlab chiqarishdagi avariyalarni bartaraf etish, jamiyat manfaatlariga tahdid bo'lganda va xodim roziligi bilan qonunda belgilangan limitlardan oshmagan holda.
523.	I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi qancha?	I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — yetti soatu o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak.
524.	Mehnat ta'tili nima va u qachon beriladi?	Har yilgi mehnat ta'tili dam olish va ishlash qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni (lavozimi) hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolinganda xodim ishdan ozod etiladigan, xodimga har yili ish yili davomida beriladigan vaqt davridir.
525.	Ta'tillarning turlari haqida so'zlab bering?	MKning 213-moddasiga muvofiq ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlar har yilgi mehnat ta'tili, ijtimoiy ta'tillar, ish haqi qisman saqlanadigan ta'til va ish haqi saqlanmaydigan ta'til turlaridan iborat
526.	Xodimni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olish mumkinmi va qanday holatda?	Har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga ta'tilning istalgan vaqtida faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Shu munosabat bilan ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi

№	Savol	Javob
		xodimga mazkur ish yili davomida boshqa vaqtda berilishi yoki belgilangan tartibda keyingi ish yilida berilishi lozim.
527.	Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilini berish tartibi haqida qisqacha so'zlab bering?	MKning 227-moddasiga asosan Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy o'tganidan keyin yuzaga keladi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra xodimga ishlagan olti oy o'tguniga qadar ham mehnat ta'tili berilishi mumkin. Birinchi bor tashkil etilgan tashkilotlar uchun xodimlarga birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tili birinchi ish yili tugaguniga qadar ushbu ta'tilni berish sharti bilan olti oy ishlamasidan ilgari yoki undan keyin berilishi mumkin.
528.	Har yilgi mehnat ta'tilini qismlarga bo'lish tartibi haqida so'zlab bering?	MKning 231-moddasiga asosan Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra har yilgi mehnat ta'tili qismlarga bo'linishi mumkin. Bunda ushbu ta'tilning hech bo'lmaganda bir qismi o'n to'rt kalendar kundan kam bo'lmazligi kerak.
529.	Qanday toifadagi xodimlar har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olinmaydi?	O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarni, homilador ayollarni va mehnat sharoitlari o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlarni har yilgi mehnat ta'tilidan chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.
530.	Intizomiy jazo nima?	Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi tomonidan xodimga qo'llaniladigan jazo chorasi.
531.	Intizomiy jazo choralarining qanday turlari mavjud?	MKning 312-moddasiga asosan, hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima va mehnat shartnomasini bekor qilish. Ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda, intizom to'g'risidagi ustavlar yoki nizomlarda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.
532.	Intizomiy jazo choralarini qanday muddatlarda qo'llash mumkin?	Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi. Intizomiy jazo intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay, taftish yoki moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran ikki yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Ushbu muddatlarga jinoyat ishini yuritish vaqti kiritilmaydi.
533.	Meritokratiya tamoyili nima?	Meritokratiya tamoyili – bu shaxsning lavozimga yoki ma'suliyatga tanlanishi va rag'batlantirilishi faqat uning qobiliyati, bilimlari, malakasi va ishdagi natijalari asosida amalga oshirilishi prinsipi. Meritokratiya tamoyili ayniqsa kadrlarni tanlash, rag'batlantirish va karera rivoji jarayonlarida qo'llaniladi, bu esa ish samaradorligini oshirish va adolatli mehnat muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.
534.	Xizmat safari nima?	Tashkilot rahbarining buyrug'iga asosan xodimning o'zining doimiy ish joyidan boshqa joyga xizmat topshirig'ini bajarish uchun ma'lum bir muddatga yuborilishi.

№	Savol	Javob
535.	O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlarini amalga oshirish qanday hujjat asosida tartibga solinadi?	Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 424-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risidagi nizom” asosida tartibga solinadi.
536.	Xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish qanday tartibda va muddatga yuborish mumkin?	Xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish faqat uning yozma roziligi bilan bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga amalga oshirilishi mumkin va bu xodim vaqtincha xizmat safariga yuborilgan ish beruvchi bilan tuziladigan alohida muddatli mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi.
537.	Xizmat safaridagi ish vaqti rejimi haqida so‘zlab bering?	Xizmat safariga yuborilgan xodimga nisbatan xizmat safariga yuborilgan ish beruvchida belgilangan ish vaqti rejimi tatbiq etiladi yoxud xizmat safaridagi ish rejimi xodimni xizmat safariga yuborgan ish beruvchi tomonidan tasdiqlanadigan xizmat safariga oid topshiriq bilan belgilanadi.
538.	Xodim xizmat safariga yuborilgan taqdirda ish beruvchi qanday xarajatlarni to‘lashi lozim?	Xizmat safariga yuborilgan taqdirda ish beruvchi xodimga quyidagilarni qoplashi shart: yo‘lkira xarajatlari, turar joy ijarasi xarajatlari, doimiy yashash joyidan tashqarida yashash bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar (sutkalik), xodim tomonidan ish beruvchining ruxsati yoki roziligi bilan qilingan boshqa xarajatlar.
539.	O‘rindoshlik asosida ishlash tushunchasi haqida so‘zlab bering?	O‘rindoshlik asosida ishlash xodimning o‘zining asosiy ishidan tashqari alohida mehnat shartnomasi shartlari bo‘yicha asosiy ishidan bo‘sh vaqtda boshqa muntazam haq to‘lanadigan ishni bajarishidir. O‘rindoshlik asosidagi ish xodim tomonidan o‘zining asosiy ish joyida (ichki o‘rindoshlik) yoki boshqa ish beruvchida (tashqi o‘rindoshlik) bajarilishi mumkin.
540.	O‘rindoshlik asosida ishlash chog‘ida ish vaqtining davomiyligi va uni hisobga olish qanday tartibda amalga oshiriladi?	O‘rindoshlik asosida ishlash chog‘ida o‘rindoshlik asosida ishlashning davomiyligi xodimlarning mazkur toifasi uchun belgilangan ish vaqti normasining yarmidan ortiq bo‘lishi mumkin emas (bundan sog‘liqni saqlash tizimi tashkilotlarining shifokor xodimlari mustasno). Xodim asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarini bajarishdan bo‘shagan kunlarda o‘rindoshlik asosida to‘liq ish kunida ishlashi mumkin
541.	O‘rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik mehnat ta‘tillari berish tartibi haqida so‘zlab bering?	O‘rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarga yillik asosiy ta‘tillar, shuningdek o‘rindoshlar haqli bo‘lgan qo‘shimcha mehnat ta‘tillari asosiy ish joyidagi yillik mehnat ta‘tili bilan bir vaqtda beriladi. Agar o‘rindoshlik asosida ishning birinchi ish yilida xodim olti oydan kam ishlagan bo‘lsa, o‘rindoshlik asosida ishda yillik mehnat ta‘tili uchun ishlangan vaqtga mutanosib ravishda haq to‘lanadi.
542.	Kimlarga o‘rindoshlik asosida ishlash taqiqlanadi?	o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar;

№	Savol	Javob
		agar o‘rindoshlik asosida ishlovchining asosiy ishi mehnatning noqulay shart-sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lsa, shunday shart-sharoitdagi ishlarda ishlash (sog‘liqni saqlash tizimi tashkilotlari xodimlari bundan mustasno); avtomobil tashuvlari xavfsizligini ta‘minlash xizmatining ishchisi (mutaxassisi) sifatida; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati va Bosh vazir o‘rinbosarlari kotibiyatlari xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan tashqari), davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari va tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va a‘zolari; viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari va ularning o‘rinbosarlari; bir-biriga bo‘ysunuvchi yoki bir-birining nazoratidagi tashkilotlarda davlat boshqaruvi organlari mutaxassislari; qonunchilikka muvofiq o‘rindoshlik asosida ishlashi taqiqlangan boshqa shaxslar (xodimlar).
543.	Ish beruvchi o‘zining mehnat shartnomasini bekor qilish niyati haqida xodimni qancha muddatlarda yozma shaklda (imzo qo‘ydirib) ogohlantirishi shart?	1) mehnat shartnomasi: tashkilot (uning alohida bo‘linmasi) o‘z muassislarining (ishtirokchilarining) yoxud ta‘sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilganligi; texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishiga, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishiga bog‘liq bo‘lgan tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o‘zgarganligi; tashkilot rahbariga, uning o‘rinbosarlariga, bosh buxgalterga va tashkilotning alohida bo‘linmasi rahbariga nisbatan tashkilot mulkdorining o‘zgarganligi munosabati bilan bekor qilinganda kamida ikki oy oldin; 2) mehnat shartnomasi xodimning malakasi yetarli bo‘lmaganligi tufayli bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi munosabati bilan bekor qilinganda kamida ikki hafta oldin; 3) mehnat shartnomasi xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) munosabati bilan bekor qilinganda kamida uch kun oldin.
544.	Ichki mehnat tartibi qoidalariga ta‘rif bering?	Ichki mehnat tartibi qoidalariga mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq ishga qabul qilish va xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi, mehnat shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, ish rejimi, dam olish vaqti, xodimlarga nisbatan qo‘llaniladigan imtiyozlar va jazo choralari, shuningdek ushbu ish beruvchida mehnat munosabatlarini tartibga solishga oid boshqa masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatdir. Ichki mehnat tartibi qoidalariga ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Ichki mehnat tartibi qoidalariga intizom to‘g‘risidagi

№	Savol	Javob
		ustavlar va nizomlarning amal qilishi o'ziga nisbatan tatbiq etiladigan xodimlarga ushbu ustavlar va nizomlarga zid bo'lmagan qismi bo'yicha qo'llaniladi.
545.	Davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar haqida so'zlab bering?	MKning 536-moddasiga muvofiq Davlat mehnat inspektorlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga hamda mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining hududida ish beruvchilarni qonunchilikda belgilangan tartibda rejali hamda rejadan tashqari tekshiruvlardan o'tkazadi. Mehnat to'g'risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga talablariga rioya etilishi, davlat mehnat inspektorlarining tekshiruvlar davomida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarining ish beruvchilar tomonidan bajarilishi tekshirish predmetidir.
546.	Ish beruvchi tomonidan dastlabki sinov muddati belgilanmaydigan xodimlar toifasiga kimlar kiradi?	Mkning 129-moddasiga ko'ra Quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi: homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki vasiy; zaxiraga qo'yiladigan ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar; davlat grantlari asosida o'qigan va tamomlagandan uch oy ichida ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari; tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan birinchi bor ishga kirayotgan bitiruvchilar; o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar; o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar; ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi ilgari qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar; ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar; jamoalari kelishuvlarida, shuningdek jamoalari shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.
547.	Malaka normasi deb nimaga aytiladi?	MKning 273-moddasiga muvofiq malaka normasi - xodimning mehnat vazifasini bajarishi uchun zarur bo'lgan malaka (bilim, mahorat, ko'nikma) darajasi.
548.	Davlat organlari va tashkilotlarida hujjatlar bilan ishlashni tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?	O'zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 31-martda "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash uslubiyoti hamda hisobot shakllarini tasdiqlash haqida"gi 7-mh-son buyrug'i asosida amalga oshiriladi

№	Savol	Javob
549.	Normativ-huquqiy hujjat nima?	Normativ-huquqiy hujjat — bu davlat organlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan va umumiy, majburiy huquqiy me’yorlarni belgilovchi rasmiy hujjatdir.
550.	“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nimada?	“Ijro.gov.uz” – bu O‘zbekiston Respublikasida ijro intizomini yaxshilash va nazoratni kuchaytirish maqsadida yaratilgan idoralararo yagona elektron tizimdir. Uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: Ijro hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish – barcha ijro hujjatlari (qarorlar, buyruqlar, majburiyatlar) yagona tizimga kiritiladi va ularning bajarilishi onlayn kuzatiladi. Idoralararo hamkorlikni oshirish – turli davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvi soddalashtiriladi va ishlar tezroq bajariladi. Shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash – tizim yordamida ijro jarayonidagi kechikishlar va buzilishlar aniqlanadi, javobgarlikni oshiradi. Xatolik va byurokratiya kamayadi – barcha hujjatlar elektron shaklda bo‘lgani sababli qog‘oz hujjatlar bilan ishlash zaruriyati kamayadi va jarayon tezlashadi. Shu bilan, “Ijro.gov.uz” tizimi davlat organlarining ijro intizomini samarali boshqarish va fuqarolarga xizmat sifatini oshirishga xizmat qiladi.
551.	Murojaatlar qaysi hujjat asosida tartibga solinadi va amalga oshiriladi?	O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” O‘RQ-445-son Qonuni asosida
552.	“Shikoyat” deganda nimani tushunasiz?	Buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat;
553.	Murojaatlarning shakllari va turlari haqida so‘zlab bering?	O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasiga asosan Murojaatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo‘lishi mumkin. Arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi. Murojaatlar, ularning shakli va turidan qat’i nazar, bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi.
554.	Qanday murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi?	O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasiga asosan Quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi: anonim murojaatlar; jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda; mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.
555.	Murojaatlarni ko‘rmay qoldirish qanday tartibda amalga oshiriladi?	O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasiga asosan murojaatlarni ko‘rmay qoldirish tegishli xulosa tuziladi, u davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan

№	Savol	Javob
		mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi. Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar koʻrmay qoldirilganligi toʻgʻrisida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi.
556.	Murojaatlarni koʻrib chiqish muddatlari haqida soʻzlab bering?	Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart boʻlgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan eʼtiboran oʻn besh kun ichida, qoʻshimcha oʻrganish va (yoki) tekshirish, qoʻshimcha hujjatlarni soʻrab olish talab etilganda esa, bir oygacha boʻlgan muddatda koʻrib chiqiladi.
557.	Manfaatlar toʻqnashuvi deb nimaga aytiladi?	Manfaatlar toʻqnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning oʻz lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir koʻrsatayotgan yoxud taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar toʻqnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan (ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi) vaziyat.
558.	Kadrlar xizmati qanday jarayon va qanday harakatlarni amalga oshiradi?	Kadrlar xizmati xodimlar bilan mehnat munosabatlarini qonuniy, shaffof va tartibli yuritishga qaratilgan majburiy jarayondir. Kadrlar boʻlimi mehnat shartnomalarini tuzish, oʻzgartirish yoki bekor qilishda Mehnat qonunchiligi talablariga qatʼiy amal qiladi, xodimlarning ishga qabul qilinishi, lavozimga tayinlanishi, boshqa boʻlimga oʻtkazilishi yoki ishdan boʻshatilishini rasmiy hujjatlar asosida yuritadi. Shuningdek, ish vaqti, taʼtil, mehnat intizomi, intizomiy jazo choralari qoʻllash, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish, xodimlarning shaxsiy hujjatlarini toʻgʻri yuritish, buyruqlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish va hisobini yuritish ham kadrlar xizmati masʼuliyatiga kiradi.
559.	Kadrlar siyosati deganda nima tushunasiz?	Kadrlar siyosati – bu korxona, tashkilot yoki muassasaning xodimlarni tanlash, joylashtirish, rivojlantirish, ragʻbatlantirish va ularning mehnatini boshqarish boʻyicha yuritadigan uzoq muddatli strategiyasi va tizimli yondashuvidir.
560.	Oʻn ikki yoshga toʻlmagan bolalarning yoki oʻn olti yoshga toʻlmagan nogironligi boʻlgan bolaning ota-onasidan biriga nechchi kundan iborat haq toʻlanadigan qoʻshimcha taʼtil beriladi?	MKning 401-moddasiga asosan uchbu holatda har yili davomiyligi kamida toʻrt kalendar kun boʻlgan haq toʻlanadigan qoʻshimcha taʼtil beriladi. Ushbu taʼtil yillik mehnat taʼtiliga qoʻshib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda ushbu taʼtildan alohida (toʻliq yoxud qismlarga boʻlib), lekin faqat tegishli ish yili davomida foydalanilishi mumkin. Ushbu taʼtilni keyingi ish yiliga koʻchirishga yoki uni pulli kompensatsiya bilan almashtirishga yoʻl qoʻyilmaydi.
561.	Homiladorlik va tugʻish taʼtili haqida soʻzlab bering?	MKning 404-moddasiga asosan ayolga tugʻruqqacha yetmish kalendar kun hamda tugʻruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tugʻish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tugʻilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tugʻish taʼtili berilib,

№	Savol	Javob
		qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'lanadi.
562.	Bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun beriladigan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili haqida so'zla bering?	MKning 220-moddasiga asosan Xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi. Qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi yoxud boshqa tarmoqdagi ish stajini kiritish nazarda tutilishi mumkin.
563.	Har yilgi mehnat ta'tillarining davomiyligini hisoblab chiqarish haqida so'zlab bering?	MKning 221-moddasiga asosan Har yilgi mehnat ta'tillarining davomiyligi Xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomiyligi kalendar kunlarda hisoblab chiqariladi. Har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomiyligini belgilashda hisobga olinmaydi.
564.	Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvlari qanday hujjat hisoblanadi?	Jamoa shartnomasi — bu tashkilotda ish beruvchi va Kasaba uyushmasi (yoki ularning vakillari) o'rtasida tuziladigan me'yoriy-huquqiy hujjat. Jamoa kelishuvi – bu jamoa shartnomasini to'ldiruvchi yoki aniqlashtiruvchi hujjat bo'lib, maxsus shartlar, bonuslar yoki muayyan xodimlar guruhiga oid qo'shimcha huquq va imtiyozlarni belgilaydigan hujjat hisoblanadi.
565.	Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvlari asosiy maqsadi nima?	Jamoa shartnomasi va kelishuvining asosiy maqsadi – mehnat munosabatlarini qonuniy asosda tartibga solish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, motivatsiyani oshirish va nizolarni oldini olishdir.
566.	Qanday holatlar Jamoa shartnomasi shartlarining haqiqiy emasligini bildiradi?	Xodimlarning holatini mazkur xodimlarga tatbiq etiladigan qonunchilikka yoki jamoa kelishuvlariga nisbatan yomonlashtiradigan, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash haqidagi talablarni buzadigan, majburiy mehnatni taqiqlash to'g'risidagi talablarni buzadigan, ichki darajada hal etilishi mumkin bo'lgan masalalardan tashqariga chiqadigan.
567.	Jamoa shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida tushuncha bering?	Jamoa shartnomasi, agar mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferensiyasida) hozir bo'lganlarning ellik foizidan ko'prog'i uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, ma'qullangan hisoblanadi. Agar jamoa shartnomasining loyihasi ma'qullanmasa, ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya uni umumiy yig'ilishning (konferensiyaning) takliflari va mulohazalariga muvofiq maromiga yetkazadi hamda o'n besh kun ichida umumiy yig'ilishda (konferensiyada) ko'rib chiqish uchun takroran taqdim etadi.

№	Savol	Javob
		Jamoa shartnomasi mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferensiyasida) ma'qullanganidan keyin taraflarning vakillari uch kun ichida jamoa shartnomasini imzolaydi.
568.	Jamoa shartnomasining kuchga kirishi va amal qilish muddati qanday?	Jamoa shartnomasi imzolangan kundan e'tiboran yoki jamoa shartnomasida belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va shartnomada nazarda tutilgan muddat ichida, biroq ko'pi bilan uch yil amal qiladi. Mazkur muddat tugagach, jamoa shartnomasi taraflar yangi shartnoma tuzguniga yoki amaldagi jamoa shartnomasini o'zgartirguniga, to'ldirguniga qadar amal qiladi. Taraflar jamoa shartnomasining amal qilish muddati tugaguniga qadar uni uzaytirishi mumkin.
569.	Xodimlarni jamoa shartnomasi bilan tanishtirish shartmi? Shart bo'lsa qanday tartib va muddatda?	Ish beruvchi jamoa shartnomasi kuchga kirganidan keyin o'n kundan kechiktirmay xodimlarni jamoa shartnomasi bilan imzo qo'ydirib tanishtirishi shart. Mehnat shartnomasini tuzishda ish beruvchi ishga qabul qilinayotgan xodimni jamoa shartnomasi bilan imzo qo'ydirib tanishtirishi shart.
570.	Jamoa shartnomasining bajarilishi ustidan nazorat qanday tartiblarda va kimlar tomonidan amalga oshiriladi?	Jamoa shartnomasining bajarilishi ustidan nazorat shartnoma taraflarining vakillari, ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya, mehnat jamoasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tegishli organlari hamda boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shartnoma taraflarining vakillari har yili yoki jamoa shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferensiyasida) jamoa shartnomasining bajarilishi haqida hisobot beradi.
571.	Mehnat shartnomasi qancha muddatga tuziladi?	MKning 110-moddasiga asosan Mehnat shartnomasi: nomuayyan muddatga; uch yildan ko'p bo'lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin. Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati shartlashilmagan bo'lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi.
572.	Mehnat shartnomasi xodim aybli xatti-harakatlar sodir etganligi munosabati bilan bekor qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?	MKning 161-moddasiga ko'ra ish beruvchi tomonidan xodim tomonidan quyidagi aybli xatti-xarakatlarini sodir etgan taqdirda mehnat shartnomasi bekor qilinadi: xodimning o'z mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzganligi. Avval mehnat majburiyatlarini buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodim tomonidan takroran intizomiy nojo'ya harakat sodir etilganligi mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzish; xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi.

№	Savol	Javob
		Mehnat shartnomasini xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) uchun bekor qilish intizomiy jazo chorasi bo‘lib, u ushbu Kodeksda belgilangan intizomiy jazolarni qo‘llash tartibi va muddatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.
573.	Xodim o‘z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqida qancha oldin ish beruvchini ogohlantirishi kerak?	MKning 160-moddasiga asosan Xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek muddati tugaguniga qadar muddatli mehnat shartnomasini o‘n to‘rt kalendar kun oldin bu haqda ish beruvchini yozma shaklda ogohlantirgan holda bekor qilishga haqli ekanligi belgilangan
574.	Xodim qachondan mehnat faoliyatini boshlagan deb hisoblanadi?	MKning 108-moddasiga asosan Mehnat shartnomasi ish beruvchi va xodim tomonidan imzolangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi. Xodim mehnat shartnomasida belgilangan sanadan e‘tiboran mehnat vazifalarini bajarishga kirishishi shart. Agar mehnat shartnomasida ish boshlanadigan kun belgilanmagan bo‘lsa, xodim shartnoma kuchga kirgan kundan keyingi ish kunida ishga kirishishi kerak.
575.	Milliy kadrlar zaxirasining asosiy maqsadi nima?	O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida qonunining 25-moddasiga ko‘ra Milliy kadrlar zaxirasi davlat fuqarolik xizmatchilarining rahbarlik lavozimlarini malakali kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini markazlashtirilgan holda saralab olish, tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish tizimidir. Milliy kadrlar zaxirasi davlat fuqarolik xizmatining rahbar kadrlar tarkibini barqaror ta‘minlash va uning sifatini yaxshilash, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarish maqsadida shakllantiriladi.
576.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhleri va toifalari haqida so‘zlab bering?	O‘zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida Qonuni 23-moddasiga ko‘ra Davlat fuqarolik xizmati lavozimlari siyosiy, boshqaruv va yordamchi lavozim guruhlaridan iboratdir. Bunda mazkur guruhlarga tegishli lavozimlarning toifalari Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrda belgilanadi. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga taalluqli davlat fuqarolik xizmatchilarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi alohida qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilari davlat fuqarolik xizmatining boshqaruv va yordamchi guruhlariga taalluqli davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga tanlov asosida tayinlanadi hamda davlat organi rahbari tomonidan lavozimidan ozod qilinadi.
577.	Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarligi haqida so‘zlab bering?	Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan lavozim yo‘riqnomasiga va Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga, shuningdek ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan cheklovlariga rioya etmaganlik uchun unga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi: hayfsan, o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima, malaka darajasini pasaytirish, davlat

№	Savol	Javob
		fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish, egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish. Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilmagan boshqa intizomiy jazo choralari qo'llash taqiqlanadi.
578.	Davlat fuqarolik xizmati bu qanday tizim?	Davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka martabalari (darajalari) berish orqali xizmat karerasining lavozim pog'onalarida bosqichma-bosqich o'tish tizimidir.
579.	Davlat organlari va tashkilotlarida ishlayotgan 3 yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar uchun haftalik ish vaqtining muddati necha qancha soat?	MKning 397-moddasiga asosan Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.
580.	Davlat xizmatchilarining kasbiy madaniyatga oid umumiy odob-axloq qoidalarini sanab bering?	O'zbekiston Respublikasining Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida Qonuni 17-moddasiga ko'ra Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarida quyidagilar belgilanadi: rahbarlar, bo'ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro axloqiy munosabatlar; davlat fuqarolik xizmatchisining ishchanlik obro'siga va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar (harakatsizlik); davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorining asosiy qoidalari.
581.	Davlat xizmatchilarning xizmatdan tashqari odob-axloq qoidalariga nimalardan kiradi?	Ijtimoiy mas'uliyat – jamiyat oldidagi majburiyatlarni bajarish, qonuniy normalarga rioya qilish. Shaxsiy hayot va xizmat majburiyatlari muvofiqligi – xizmatdan tashqarida xatti-harakatlari davlat xizmatchisining obro'siga salbiy ta'sir qilmasligi. Qonuniy va axloqiy qoidalarni buzmaslik – jinoyat, korrupsiya yoki boshqa nojo'ya faoliyatda qatnashmaslik.
582.	Mehnat munosabatlari deb nimaga aytiladi?	Mehnat munosabatlari — bu xodim va ish beruvchi o'rtasida mehnat faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ular xodimning ish sharoitlari, huquqlari va majburiyatlari, ish haqi, ta'til, ish vaqti va ijtimoiy kafolatlarini o'z ichiga oladi va mehnat qonunchiligi hamda shartnomaviy huquqlar asosida tartibga solinadi.
583.	Korxona yoki tashkilotning ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni yoki ishlar xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishda qoldirish uchun qaysi toifadagi xodimlarga imtiyozli huquq berilgan?	MKning 387-moddasiga asosan ushbu huququyidagilarga taqdim etiladi: qaramog'ida ikki yoki undan ortiq kishi bo'lgan xodimlarga; oilasida mustaqil ish haqi oluvchi boshqa xodimlar mavjud bo'lmagan shaxslarga; mazkur ish beruvchidagi uzoq muddatli ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida mehnat shartnomasiga ko'ra tegishli mutaxassislik bo'yicha o'z malakasini oshirayotgan xodimlarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy va

№	Savol	Javob
		oʻrta maxsus, professional taʼlim tashkilotlarini tamomlagan shaxslarga oʻqishni tamomlaganidan keyin mutaxassisligi boʻyicha ishlash sharti bilan uch yil mobaynida; ushbu tashkilotda mehnatda mayib boʻlgan yoki kasb kasalligiga uchragan shaxslarga; nogironligi boʻlgan shaxslarga; 1941 — 1945-yillardagi urush qatnashchilariga va imtiyozlar boʻyicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga; mehnatdagi yutuqlari uchun ragʻbatlantirishlarga ega boʻlgan va intizomiy jazolarga ega boʻlmagan xodimlarga; atom obyektlaridagi avariya oqibatida kelib chiqqan yuqori radiatsiyaviy nurlanish bilan bogʻliq boʻlgan nurlanish kasalligiga va boshqa kasalliklarga yoʻliqqan yoki shunday kasalliklarni boshidan kechirgan shaxslarga, oʻziga nisbatan boshlangan nogironligining atom obyektlaridagi avariya bilan bogʻliqligi aniqlangan nogironligi boʻlgan shaxslarga, ushbu avariya va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish ishtirokchilariga, shuningdek mazkur obyektlardan evakuatsiya qilingan yoki koʻchirilgan shaxslarga hamda ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga.
584.	Homilador va uch yoshgacha farzandi bor ayollar bilan nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish mumkinmi?	Homilador ayollar va uch yoshgacha farzandi boʻlgan ayollar bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilish mumkin emas. Bunday xodimlarni mehnat qonunchiligi va ijtimoiy himoya talablari muhofaza qiladi, shartnomani bekor qilish faqatgina xodimning oʻzi ariza bergan hollarda, tashkilot yopilganda yoki jiddiy intizomiy buzilishlar sodir boʻlganda (qonunda belgilangan shartlar asosida) amalga oshirilishi mumkin.
585.	Mehnat qonunchiligiga koʻra ijodiy taʼtillar kimlarga va qancha muddatga beriladi?	MKning 387-moddaasiga asosan Ijodiy taʼtillar Mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga asosiy ish joyida oʻrtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda quyidagi muddatlarga beriladigan taʼtil. falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasini olishga doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar qoʻlyozmalarining mualliflariga — uch oygacha; fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun — olti oygacha.
586.	«Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi nimalarni taʼminlashga xizmat qiladi?	Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksi Oʻzbekiston Respublikasi mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim quyidagilarni taʼminlaydi: Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish – mehnat shartnomalari, taʼtillar, ish haqi va boshqa mehnat munosabatlari boʻyicha maʼlumotlar yagona tizimda qayd etiladi. Idoralararo axborot almashinuvi – bandlik, ish haqi, pensiya va boshqa mehnat bilan bogʻliq maʼlumotlar turli davlat organlari oʻrtasida tez va xavfsiz tarzda uzatiladi.

№	Savol	Javob
		Mehnat monitoringi va nazoratini kuchaytirish – ish beruvchi va xodimlarning majburiyatlari, ish vaqti, intizomiy jazo va boshqa mehnat tartibi holatlari onlayn nazorat qilinadi. Avtomatlashtirilgan hisobot va tahlil – mehnat statistikasi, ishga joylashish va bandlik darajasi bo'yicha axborot yig'iladi va tahlil qilinadi, bu esa davlat siyosatini shakllantirishga yordam beradi. Shaffoflik va samaradorlikni oshirish – tizim orqali fuqarolar va tashkilotlar mehnat sohasidagi xizmatlardan tez va shaffof foydalanish imkoniga ega bo'ladi.
587.	Mehnat shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish jarayoniga qisqa ta'rif bering?	Mehnat haqidagi qonunchilik talablariga muvofiq ish beruvchi bilan xodim o'rtasida tuzilgan qog'oz shakldagi mehnat shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlarni "YAMMT" IDAKga kiritish jarayoni
588.	Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi shartnoma tuzilgan kundan boshlab necha kun mobaynida ro'yxatdan o'tkazish lozim?	Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan qog'oz shaklidagi mehnat shartnomasi "YAMMT" IDAKka mehnat shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnoma tuzilgan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida kiritish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi
589.	Mehnat shartnomasining bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni necha kun mobaynida ro'yxatdan o'tkazish lozim?	Mehnat shartnomasining bekor qilinishi "YAMMT" IDAKka ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasining bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni uch ish kuni mobaynida kiritish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi
590.	Xodimga intizomiy chora qo'llanilgan davrda unga moddiy yordam puli berish mumkinmi?	MKning 132-moddasiga asosan Intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmaligi belgilangan. Biroq, moddiy yordam puli berilishi mumkin.
591.	Xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlari nimalardan iborat?	Ommaviy ravishda ishdan bo'shatish ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi sababli yoki tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilganligi munosabati bilan o'zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi nazarda tutilayotgan xodimlar sonining ko'rsatkichlaridan iboratdir.
592.	Dastlabki sinovdan o'ta olmagan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha tushuntirib bering?	MKning 132-moddasiga asosan Dastlabki sinov muddati tugaguniga qadar taraflarning har biri ikkinchi tarafni kamida uch kun oldin yozma shaklda ogohlantirgan holda mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli. Ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini sinov natijasi qoniqarsiz bo'lganda, xodimni sinovdan o'tmagan deb e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablarni ko'rsatgan holda o'z tashabbusiga ko'ra, dastlabki sinov davrida bekor qilishga haqli.
593.	Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari haqida so'zlab bering?	Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;

№	Savol	Javob
		qonuniylik; adolatlilik; xalqqa xizmat qilish; davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas’ulligi; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik, professionallik va kompetentlik; davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi; davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.
594.	Davlat fuqarolik xizmatchisiga ta’rif bering?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimida o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmatchisidir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e’tiboran davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomiga ega bo‘ladi va davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyati tugatilishi munosabati bilan uni yo‘qotadi.
595.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri nima?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri davlat organi darajasidan (milliy, respublika, hududiy va tuman) kelib chiqqan holda, malaka talablariga muvofiq bixillashtirilgan va tasniflangan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlarini hamda toifalaridan, shuningdek davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalaridan iborat bo‘ladi.
596.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri kim tomonidan tasdiqlanadi?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.
597.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining “Rahbar kadrlar” toifasiga qanday malaka darajalari beriladi?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining “Rahbar kadrlar” toifasiga quyidagi malaka darajalari beriladi: Oliy darajali maslahatchi 1-darajali maslahatchi 2-darajali maslahatchi 3-darajali maslahatchi
598.	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining “Boshqaruv” guruhiga qanday malaka darajalari beriladi?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining “Boshqaruv” guruhiga quyidagi malaka darajalari beriladi: 1-darajali xizmatchi 2-darajali xizmatchi 3-darajali xizmatchi

№	Savol	Javob
599.	Qaysi guruhga kiruvchi davlat fuqarolik xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi tuzilmaydi?	Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga
600.	Davlat fuqarolik xizmati bo'yicha ko'tarilish haqida so'zlab bering?	Davlat fuqarolik xizmati bo'yicha ko'tarilish davlat fuqarolik xizmatchisining o'z kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirib borishi hisobiga xizmat faoliyatining natijadorligi asosida yuqoriroq lavozimga tayinlash yoki yuqoriroq malaka darajasini berish orqali amalga oshiriladi.
601.	Davlat fuqarolik xizmatchisiga davomiyligi necha kalendar kunidan iborat yillik asosiy ta'til beriladi?	Davomiyligi yigirma yetti kalendar kunidan kam bo'lmagan yillik asosiy ta'til beriladi
602.	Davlat fuqarolik xizmati bilan davlat siyosiy xizmati o'rtasidagi asosiy farqlarni aytib bering	Davlat fuqarolik xizmati professional, doimiy va siyosatdan xoli faoliyat bo'lsa, davlat siyosiy xizmati siyosiy xizmati lavozimlarini egallash bilan bog'liq bo'lib, u saylov yoki siyosiy ishonch asosida amalga oshiriladi. Fuqarolik xizmatchisi siyosiy betaraf bo'lishi shart.
603.	O'quv ta'tili vaqtida xodim kasal bo'lib qolsa unga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi (bolnichniy) to'lab beriladimi?	Yo'q, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik o'quv ta'tili vaqtiga to'g'ri kelganda nafaqa to'lab berilmaydi.
604.	Kasaba uyushmasi tushunchasi?	Fuqarolarning o'z faoliyati yoki o'qishi turi bo'yicha umumiy kasbiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan, ularning mehnatiga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, o'z ustavi asosida faoliyat ko'rsatadigan ixtiyoriy jamoat berlashmasi.
605.	Kasaba uyushmasi faoliyati qaysi asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi?	-Mehnat sharoitlarini yaxshilash: -Ish haqi va ijtimoiy kafolatlarini himoya qilish: -Ish beruvchi bilan muzokara va kelishuvlar o'tkazish: -Xodimlarning professional va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish.
606.	Kasaba uyushmasining majburiyatlari nimalardan iborat?	-A'zolarining huquqlarini himoya qilish. -Ish beruvchiga qonun talablarini bajarishda yordam berish. -Mehnat nizolarini hal qilishga ko'maklashish.
Ijro nazorati bo'limi		
607.	Bugungi kunda, Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmonlarini aytib bering?	- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 10.02.2021 yildagi PF-6166-son Farmonlari. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "«ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorlari.

№	Savol	Javob
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-117-son Farmonlari
608.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydagi PF-5132-sonli Farmoniga asosan Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda nechta bosqichdan iborat?	7 ta bosqichdan iborat.
609.	Ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan murojaatlar bilan ish yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini ayting?	Davlat organining rahbariga yoki vakolat berilgan mansabdor shaxsiga ommaviy qabullar vaqtida tushgan va joyida hal etilgan og‘zaki murojaatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talab qilinmaydi. Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek uni ko‘rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko‘rsatiladi. Ommaviy qabullar vaqtida davlat organining rahbariga yoki vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxsiga kelib tushgan va joyida hal etilgan og‘zaki murojaatlarga yozma javob yoki elektron shakldagi javob talab etilmaydi.
610.	Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi qarori qachon qabul qilingan va raqamini ayting?	140-sonli qaror 1999 yil 29 martda qabul qilingan
611.	Hujjatlarning ijrosini ta’minlashda 1-kartotekada qanday hujjatlar nazoratga olinadi?	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmoni, farmoyishi, qarorlari hamda Prezident topshiriqlari
612.	Hujjatlarning ijrosini ta’minlashda 2-kartotekada qanday hujjatlar nazoratga olinadi?	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoni, farmoyishi, qarorlari
613.	Hujjatlarning ijrosini ta’minlashda 3- kartotekada qanday hujjatlar nazoratga olinadi?	Davlat rahbarining bayon topshiriqlari hamda Vazirlar mahkamasining bayon topshiriqlari.
614.	Murojaat shakllari aytib bering?	Murojaatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo‘lishi mumkin.
615.	Murojaatning turlari aytib bering?	Arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi
616.	Murojaatning ariza turiga ta’rif bering?	Huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat
617.	Murojaatning taklif turiga ta’rif bering?	Davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat;
618.	Murojaatning shikoyat turiga ta’rif bering?	Buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat

№	Savol	Javob
619.	Anonim murojaat deb nimaga aytiladi?	Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoxud ular haqida yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat;
620.	Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi qaysi normativ hujjatlarda aks etirilgan?	O'zbekiston Respublikasining qonuni Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida (yangi tahriri) 2017 yil 11 sentabr, O'RQ-445-son Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qaroriga 1-ILOVA
621.	Murojaatlarni ko'rib chiqishda davlat organining, tashkilotning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari qaysi normativ hujjatda ko'rsatilgan?	O'RQ-445-son 33-moddasida Murojaatlarni ko'rib chiqishda davlat organining, tashkilotning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari
622.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati?	28-modda. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari 15 kun, qo'shimcha o'rganish talab qilganda 30 kun talab qiladi.
623.	Murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslari qaysilar?	Anonim murojaatlar, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar,
624.	Anonim murojaatlar qay tarzda yopiladi?	Murojaatlar ko'rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi, u davlat organining, tashkilotning rahbari yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.
625.	Murojaat tartibini buzganlik uchun javobgarlik bormi?	Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, xuddi shuningdek tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi
626.	O'RQ-445-sonli Qonunning 25-moddasi qanday holatda qo'llash mumkin?	Qo'yilgan masalalarni hal etish o'zining vakolati doirasiga kirmaydigan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga, boshqa tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shakldaxabar qilinadi. Bunda kelib tushgan elektron murojaat elektron shaklda yuborilishi mumkin.
627.	Murojaat dublikati deganda nimani tushunasiz?	Ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko'chirma nusxasi
628.	Elektron murojaat deganda nimani tushunasiz?	Belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og'zaki murojaatlar bundan mustasno

№	Savol	Javob
629.	Takroriy murojaat nimani tushunasiz?	ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonun hujjatlarida belgilangan ko‘rib chiqish muddati tugagan bo‘lsa, ilgorigi murojaati o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi to‘g‘risida xabar qilinayotgan murojaat
630.	Ijro intizomiga mas‘ul bo‘linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish masalalari, tartibi va qaysi hujjat asosida tartibga solinadi?	Nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi: yoshi 30 yoshdan kichik bo‘lmasligi; oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi; chet tillarini bilishi (tavsiya sifatida); davlat organlari va tashkilotlar tizimida kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lishi; ijro intizomi nazoratini tashkil qilish va ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini hamda ularning mazmuni va mohiyatini bilishi; tegishli soha faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining mazmun va mohiyatini bilishi; apparat ishini tashkil etish, ish yuritish, nazorat hujjatlari va topshiriqlari bilan «Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida ishlash tajribasiga hamda huquqiy bilimlarga ega bo‘lishi; tahliliy ma‘lumotlar tayyorlash va tizimli fikrlay olish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim. 2. Kadrlar bo‘limi nomzodlar hujjatlarini Vazirlar Mahkamasi apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda Nazorat va ijro intizomi bo‘limiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi va kelishiladi
631.	Normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini sanab bering?	Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasining qonunlari; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.
632.	Qonunchilik va qonunosti hujjatlariga ta’rif bering?	O‘zbekiston Respublikasining <u>Konstitutsiyasi</u> va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

№	Savol	Javob
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.
633.	O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qanday tartibda qabul qilinadi?	O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari huquqiy prinsiplar va normalarni mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi, shuningdek ijtimoiy munosabatlar eng muhim sohasining huquqiy jihatdan kompleks tartibga solinishini ta’minlovchi kodekslar tarzida qabul qilinishi mumkin.
634.	Qaysi hollarda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi” qonun tatbiq etilmaydi?	davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.
635.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tizimini tushuntirib bering?	• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi • O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari • O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi
636.	XALQ QABULXONASIning huquqiy maqomi haqida tushuncha bering?	yuridik shaxs hisoblanmaydi, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lmaydi. tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish hamda o‘z nomidan boshqa shaxslar bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishish huquqiga ega emas
637.	Murojaatlarga qo‘yiladigan talablar?	Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yilishi kerak

№	Savol	Javob
		Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi
638.	Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibi?	Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish davlat organining, tashkilotning rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun davlat organlarida, tashkilotlarda maxsus tarkibiy bo‘linmalar tashkil etilishi mumkin, qabul uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslar belgilanadi. Davlat organlarining rahbarlari yoki bu borada vakolat berilgan boshqa mansabdor shaxslari tomonidan jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining sayyor shaxsiy qabullari, shuningdek ommaviy qabullar tashkil etilishi mumkin
639.	Murojaatlarni ko‘rib chiqish qanday hollarda tugatiladi?	- Agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo‘lsa, ilgari murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to‘la-to‘kis materiallari mavjud bo‘lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo‘lsa; - agar murojaat qiluvchi o‘z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan bo‘lsa yoki uni ko‘rib chiqishni tugatish to‘g‘risida iltimos qilgan bo‘lsa; - yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo‘qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoniyati bo‘lmaganda; Takroriy murojaatni ko‘rib chiqish 30-moddaning birinchi qismi ikkinchi xatboshisiga muvofiq tugatilganda, murojaat qiluvchi takroriy murojaatning asossizligi va ushbu masala yuzasidan u bilan yozishmalar tugatilishi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilinadi. Yozishmalar olib borish tugatilgan murojaat qiluvchidan takroriy murojaat kelib tushgan taqdirda, bunday murojaatni ko‘rib chiqish murojaat qiluvchini bu haqda xabardor qilmasdan tugatiladi.
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi		
640.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?	2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan va davlatda korrupsiyaga qarshi samarali huquqiy, tashkilotchilik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, shuningdek korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va ularga javobgarlikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi
641.	Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?	korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish
642.	Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida Qonunda “korrupsiya” tushunchasi qanday ta’riflanadi?	shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga

№	Savol	Javob
		xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish
643.	Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosati qanday prinsiplarga asoslanadi?	Davlat siyosati qonuniylik, huquq va erkinliklar ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va jamiyat hamkorligi, javobgarlik muqarralligi hamda korrupsiyani oldini olish choralari ustuvorligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi
644.	“Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik” nima?	korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish
645.	Korrupsiya profilaktikasi nima?	Korrupsiya profilaktikasi — korrupsiya sodir bo‘lishiga olib keluvchi omillar va xatarlarni aniqlash, ularni oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, ochiqlik, nazorat va jamoatchilik ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan choralar tizimidir
646.	Korrupsiyaga qarshi nazoratni amalga oshirish kim tomonidan yuritiladi?	Korrupsiyaga qarshi nazorat Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘z sohalarida nazoratni ta‘minlaydi
647.	Pora olish va pora berish qanday huquqbuzarlik sifatida qaraladi?	Pora olish va pora berish korrupsion huquqbuzarlik sifatida qonunda belgilangan
648.	Manfaatlar to‘qnashuvi nima?	shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat
649.	Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish mexanizmlari nima?	Manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish mexanizmlari qonunda quyidagilarni nazarda tutadi: manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, maxsus reestrda qayd etish, nazorat va tekshiruv, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash
650.	Shaxsiy manfaatlar bilan davlat manfaatlari to‘qnashganda nima qilish kerak?	Manfaatlar to‘qnashuvi yuz berganda shaxs majburiy tarzda deklaratsiya qilishi va tegishli organlarga xabar berishi, zarur bo‘lsa, faoliyatdan chetlashtirilishi lozim
651.	Korrupsiya xavfini baholash nima?	Korrupsiya xavfini baholash — davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida korrupsiya ehtimoli va xavfini aniqlash, tahlil qilish va oldini olish choralari belgilashdir
652.	Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari nima?	Profilaktika, huquqbuzarliklarni aniqlash va jazo, ochiqlik va jamoatchilik nazoratini ta‘minlash, davlat xizmatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish
653.	Deklaratsiya qanday maqsadda topshiriladi?	Mansabdor shaxslar shaxsiy va mansab vazifalari bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va nazorat qilish, korrupsiya xavfini kamaytirish uchun

№	Savol	Javob
654.	Korrupsiyaga oid murojaatlar qanday tartibda ko‘rib chiqiladi?	Murojaatlar Reestrda kiritiladi, huquqiy ekspertiza o‘tkaziladi va tegishli organlar tomonidan tezkor tekshiruv olib boriladi
655.	Davlat xizmatchilarining ochiqlik prinsipi nimani anglatadi?	Barcha qarorlar, harakatlar va faoliyat ochiq bo‘lishi, ularni jamoatchilik va tegishli organlar nazorat qilishi mumkinligini anglatadi
656.	Korrupsiyaga qarshi tarbiyaviy choralar nima?	
657.	Korrupsiya xavfini kamaytirishning usullari nima?	Doimiy nazorat, korrupsiyaga qarshi monitoring, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, jamoatchilik va matbuot orqali oshkorlikni ta‘minlash
658.	Manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etish tartibi?	Mansabdor shaxslarning shaxsiy va davlat manfaatlari to‘qnashuvi ma‘lumotlari maxsus elektron reestrda qayd etiladi
659.	Korrupsiyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish maqsadi nima?	Korrupsiyani barvaqt aniqlash va oldini olish, nazorat va profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash
660.	Xodimlarning extimoliy manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi taqdim qilish muddatlari?	Bir yilda bir marta, lavozimi o‘zgargan vaqtda hamda extimoliy manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda
661.	Mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlari davlat manfaatiga zid bo‘lsa nima qilinadi?	Manfaatlar to‘qnashuvini ochiq qilish, tegishli organlar bilan muvofiqlashtirish va zarurat bo‘lsa faoliyatdan chetlashtirish
662.	Korrupsiyaga qarshi qonun qanday sanksiyalarni nazarda tutadi?	Jinoyat, ma‘muriy va fuqarolik javobgarliklari, mansabdan chetlashtirish, moddiy zararni qoplash kabi choralar qo‘llaniladi
663.	Qonunda “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasi qanday ta‘riflangan?	shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat
664.	Korrupsiyaga oid xabar berishda shaxs qanday himoya qilinadi?	Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslar davlatning himoyasi ostida bo‘ladi va maxfiylikka amal qilinadi
665.	Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari qanday vazifalarni bajaradi?	Davlat organlari korrupsiya xavfini kamaytirish, ichki nazoratni tashkil etish, faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olish choralari amalga oshiradi
666.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qanday vazifalarni bajaradi?	Agentlik korrupsiya holatlarini aniqlash va profilaktika qilish, umumiy nazoratni amalga oshirish, manfaatlar to‘qnashuvini monitoring qilish, korrupsiyaga oid xabarlarni ko‘rib chiqish va tegishli choralar qo‘llash vazifasini bajaradi
667.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni aniqlash usullari nima?	Nazorat tadbirlar, tekshiruvlar, jamoatchilik murojaatlari, ichki nazorat va deklaratsiya ma‘lumotlari orqali aniqlash

№	Savol	Javob
668.	Korrupsiya xavfini baholash qanday amalga oshiriladi?	Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida korrupsiya ehtimoli va xavfini tahlil qilish, huquqbuzarliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va oldini olish choralari belgilovchi jarayon
669.	Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda qanday choralar qo'llaniladi?	Xodimlardan deklaratsiya olish, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini maxsus reestrda qayd etish va zarurat bo'lsa xodimni boshqa lavozimga o'tkazish yoki faoliyatdan chetlashtirish
670.	Korrupsiyaga qarshi profilaktika choralari kim tomonidan amalga oshiriladi?	Davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan, qonun va unga asoslangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi
671.	Korrupsiya xavfini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari nima?	Nazorat tadbirlari va monitoringni kuchaytirish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va profilaktika choralari
672.	Mansabdor shaxslarning ochiqlik va shaffoflikka rioya qilish majburiyati nima?	Davlat organlarining barcha qarorlari va faoliyat ochiq va shaffof bo'lishi, jamoatchilik va tegishli organlar nazoratida bo'lishi lozim.
673.	Manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan shaxs qanday hollarda faoliyatdan chetlashtiriladi?	Agar shaxsiy manfaat davlat manfaatiga ta'sir qilsa va uning oldini olish imkoni bo'lmasa, shaxs majburiy tarzda vaqtincha yoki doimiy ravishda faoliyatdan chetlashtiriladi
674.	Davlat xizmatchisi deklaratsiya topshirmasa qanday choralar qo'llaniladi?	Ma'muriy jazo chorasi qo'llash, lavozimidan chetlashtirish va tegishli organlarga xabar berishga sabab bo'ladi
675.	Mansabdor shaxslarning shaxsiy va davlat manfaatlari to'qnashuvi holati qayerda qayd etiladi?	Manfaatlar to'qnashuvi holatlari manfaatlar to'qnashuvini ro'yxatga olish elektron reestrda qayd etib boriladi.
676.	Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik ishtirokining ahamiyati nima?	Jamoatchilik nazorati korrupsiya holatlarini erta aniqlash va oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi
677.	Korrupsiyaga oid murojaatlar qay tartibda ko'rib chiqiladi?	Korrupsiyaga oid murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun talablari asosida va anonim tarzda yuborilgan murojaatlar ham ko'rib chiqiladi.
678.	Korrupsiyaga qarshi nazorat kim tomonidan amalga oshiriladi?	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
679.	Korrupsiyaga qarshi qonunchilikda qanday profilaktika choralari nazarda tutiladi?	Korrupsiyaga olib keluvchi omillar, sharoitlar va xatarlarni aniqlash, ularni oldini olish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, ochiqlik, nazorat va jamoatchilik ishtirokini ta'minlashga qaratilgan choralar tizimi — ya'ni korrupsiya sodir bo'lishidan oldin uning imkoniyatlarini yo'qotish
680.	"Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning asosiy maqsadi?	Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik

№	Savol	Javob
		ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish
681.	Davlat idoralarini korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash qachondan boshlangan?	2022 yil 1 fevraldan boshlab
682.	Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash kimlarga tatbiq etiladi?	Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari
683.	Reyting baholashda nechta yo'nalish mavjud?	Reyting baholash 5 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, 100 ballik sistemada baholanadi
684.	Reyting baholashda birinchi yo'nalish nimalarni o'z ichiga oladi?	davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi
685.	Reyting baholashda ikkinchi yo'nalish nimalarni o'z ichiga oladi?	korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;
686.	Reyting baholashda uchinchi yo'nalish nimalarni o'z ichiga oladi?	davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi
687.	Reyting baholashda to'rtinchi yo'nalish nimalarni o'z ichiga oladi?	xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi
688.	Reyting baholashda beshinchi yo'nalish nimalarni o'z ichiga oladi?	korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi
689.	Reyting baholash natijalari necha ballgacha baholanadi?	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi «yaxshi», «qoniqarli» va «qoniqarsiz» toifalarga ajratiladi
690.	Reytingning «yaxshi», «qoniqarli» va «qoniqarsiz» kategoriyalari qanday belgilanadi?	81 balldan 100 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — «yaxshi»; 55 balldan 81 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — «qoniqarli»; 55 dan past ball to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi — «qoniqarsiz»
691.	Reyting natijalari ommaga qachon e'lon qilinadi?	har yili 1 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan OAVda e'lon qilinadi
692.	Reyting baholash tizimi qanday maqsadda joriy etilgan?	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash, tuzilmalar faoliyatini nazorat qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilish chora-tadbirlarni belgilash
693.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari	Korrupsiyaga qarshi mexanizm va ichki qoidalarni joriy etish, xavf-xatarni baholash, ichki tartib-taomillar bo'yicha xodimlarni xabardor qilish va targ'ibot tadbirlarini o'tkazish

№	Savol	Javob
	to'g'risida"gi qarorda davlat organlariga qanday talablar qo'yilgan?	
694.	Reyting baholash kim tomonidan amalga oshiradi?	Reyting baholash natijalari Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi
695.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda qanday ichki (idoraviy) hujjatlarni qabul qilish ko'rsatilgan?	davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy xujjatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida nizom qabul qilinishi
696.	Korrupsiyaga qarshi menejment tizimi nima?	Davlat tashkilotlarida korrupsiya xavfini aniqlash va boshqarish, tekshiruv va nazorat, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ichki tartib-taomillar orqali profilaktik choralar joriy qilishga qaratilgan tizim
697.	Reyting baholash yakunlari bo'yicha qanlay tadbirlar amalga oshiriladi?	korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi «yaxshi» deb topilgan davlat tashkilotlarining ijobiy ish tajribasini boshqa davlat tashkilotlarida ommalashtirish, «qoniqarli» deb topilgan davlat tashkilotlariga samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, «qoniqarsiz» deb topilgan davlat tashkilotlari chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqish
698.	Reyting baholash tamoyillari nimalardan iborat?	Davlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, kamchiliklarni aniqlar va ularni bartaraf etish
699.	Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 829-son qarori maqsadi?	Korrupsiya haqida ma'lumot beruvchi shaxslarni rag'batlantirish, ularning shaxsiy ma'lumotlari va xavfsizligini ta'minlash, davlatda korrupsiyaga qarshi faollikni qo'llab-quvvatlash
700.	Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 829-son qarori kimlarga qo'llaniladi?	Korrupsiya haqida xabar bergan yuridik va jismoniy shaxslar, jamoat tashkilotlari uchun qo'llaniladi
701.	Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 829-son qaroriga asosan kimlar mukofotlanishi mumkin?	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni xabar qilgan shaxslar va korrupsiyaga qarshi amaliy yordam ko'rsatgan shaxslar
702.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishning asosiy vazifalari	jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga muhosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash; korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish; aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash
703.	Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish printsiplari nima?	qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish

№	Savol	Javob
704.	Korrupsiya haqida xabar berganlik uchun qanday rag‘batlantirish belgilangan?	Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi
705.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar kim tomonidan to‘lanadi?	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi
706.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda qaysi huquqbuzarlik uchun rag‘batlantirish nazarda tutilgan?	korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar hamda korrupsiyaviy jinoyatlar
707.	Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablari kimlarga tatbiq etilmaydi?	mansabdor shaxslar, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko‘maklashuvchi shaxslar; korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan shaxslar
708.	Davlat fuqarolik xizmatchilari biror manfaatni ko‘zlab sovg‘a olishi mumkinmi?	Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan o‘zlarining xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan har qanday sovg‘alar olish taqiqlanadi
709.	Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan taqdim etiladigan sovg‘ani tasarruf qilish tartibi?	Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravariga teng yoki undan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a davlat fuqarolik xizmatchisida qoldiriladi va u tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etiladi. Sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravaridan ortiqligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a moliya-iqtisod bo‘linmasi tomonidan davlat organining balansiga kirim qilinadi.
710.	Korrupsiya haqida xabar beruvchilarga qanday kafolatlar beriladi?	Xabar beruvchilarning shaxsiy ma‘lumotlari sir saqlanadi va e‘lon qilinmaydi
711.	Korrupsiya haqida xabar berish qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin?	Korrupsiya haqida xabar berish og‘zaki, yozma va elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin
712.	Korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar kimlar?	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
713.	Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasi nima?	“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platforma bo‘lib, fuqarolar va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi huquqiy ongini va malakasini oshirish uchun mo‘ljallangan
714.	Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasida qanday o‘quv kurslari mavjud?	Virtual akademiyada 2 xil- bazaviy va maxsus o‘quv kurslari mavjud

№	Savol	Javob
715.	Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasida davlat xizmatchilari qaysi kurslarda o'qishi majburiy qilib belgilangan?	Davlat xizmatchilari virtual akademiyaning maxsus kurslarida o'qishi majburiy qilib belgilangan
716.	Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasining asosiy maqsadi nimada?	fuqarolar va davlat xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi huquqiy ong, huquqiy madaniyat, shaffoflik va korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish; shuningdek, jamiyatda korrupsiyaga qarshi immunitet uyg'unlashtirish va profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish
717.	Korrupsiyaga qarshi kurashish Virtual akademiyasida malaka oshirish muddatlari qanday?	davlat organlari va tashkilotlariga yangi ishga qabul qilingan xodimlar 3 oy o'tgandan keyin, ishlayotgan xodimlar xar 3 yilda 1 marta
718.	Davlat fuqarolik xizmatchisida sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lmasa qiymat qanday aniqlanadi?	sovg'aning bozor narxi savdo do'konlari, internet hamda boshqa manbalar va usullar orqali o'rganilib, uning o'rtacha qiymati aniqlanadi va uning natijasi bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi
719.	Davlat tashkilotlarining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti qaysi tashkilotlarga tatbiq etiladi?	davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar
720.	Davlat tashkilotlarining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadi nimadan iborat?	davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish; korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.
721.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida qanday xujjatlar ishlab chiqiladi?	korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi; korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur; korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati; korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri
722.	“Korrupsiyaviy xavf-xatar” tushunchasi nima?	shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;
723.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayoni qanday amalga oshiriladi?	Tashkilot vazifa va funksiyalarni o'rganish, ichki va tashqi manbalardan ma'lumot to'plash, funksiyalarni tahlil qilish va baholash, umumlashtirilgan «xavf-xatar xaritasi» va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturini tayyorlash
724.	Korrupsiyaviy xavf darajalari turlari qanday?	Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi past, o'rta va yuqori bo'lishi mumkin.
725.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasi nima?	aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

№	Savol	Javob
726.	Korrupsiyaga qarshi dastur nima uchun ishlab chiqiladi?	Korrupsiyaga qarshi dastur xavf-xatarlarni xavf darajasini pasaytirish, bartaraf qilish uchun ishlab chiqiladi
727.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda qanday manbalardan foydalaniladi?	Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida
728.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati qachon?	Davlat tashkiloti markaziy apparatining maxsus bo‘linmasi tomonidan davlat tashkiloti faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash 1 fevralga qadar amalga oshiriladi
729.	Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra sovg‘a tushunchasi?	davlat fuqarolik xizmatchisiga xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bepul taqdim etilgan, moddiy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki beg‘araz ko‘rsatilgan xizmat
730.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari nimalardan iborat?	normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish; inson omilini qisqartirish, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish; davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;
731.	O‘zbekiston-2030 strategiyasida Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda qanday maqsadlar qo‘yilgan?	Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish; Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish; Davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish; 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash
732.	Korrupsiyani qabul qilish indeksi nima?	Korrupsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index - CPI) — bu " Transparency International " tomonidan e‘lon qilinadigan reyting bo‘lib, u davlat sektoridagi korrupsiya darajasini baholaydi
733.	ISO 37001 qanday standart?	bu tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali boshqaruv tizimini joriy etish, qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish bo‘yicha xalqaro talablar va ko‘rsatmalarni belgilayd
734.	Shaxsiy manfaatdorlik tushunchasi nima?	davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik
735.	Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunga asosan yaqin qarindoshlar kimlar?	ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari

№	Savol	Javob
736.	Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari?	qonuniylik; fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik; korrupsiyaga nisbatan murosasizlik
737.	Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar kimlar?	davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari; davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs; davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.
738.	Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar?	xizmat mavqeini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olish; manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etish; biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlash; o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etish; tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lish; o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o'zi ishtirok etishga haqli emas.
739.	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 3569-son buyrug'i asosida qanday xujjatlar tasdiqlangan?	Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestri
Suv tejoyvchi texnologiyalarni rivojlantirish bo'limi		
740.	Dehqon xo'jaliklari va fermerlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 1 kub metr suv uchun qancha etib belgilangan?	PQ-5-son, 100 so'm etib belgilan.
741.	Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash	PQ-5-son, 0,5 kamaytiruvchi yani 1 kub metr suv uchun 50 so'm qo'llaniladi.

№	Savol	Javob
	uskunalari asosida aniqlanganda suv solig'i stavkasiga qanday koeffitsiyent qo'llaniladi?	
742.	Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalarini asosida aniqlanganda suv solig'i stavkasiga qanday koeffitsiyent qo'llaniladi?	PQ-5-son, 0,7 kamaytiruvchi yani 1 kub metr suv uchun 70 so'm qo'llaniladi.
743.	Yer osti suvlari nechta toifaga bo'linadi va qaysilar?	3 toifaga bo'linadi (sizot suvlari, artizan suvlari, bosimli suvlar)
744.	Gidromodul va uning birligi nima?	Gidromodul - 1 gektar ekin maydonini sug'orish uchun bir sekundda sarflangan suv sarfidir, l/sek/ga.
745.	Derenaj moduli nima?	1 sekundda 1 gektar maydondan chiqib ketgan suvning miqdoriga aytiladi.
746.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-sonli Farmoni bilan 2030 yilga qadar sug'oriladigan maydonlarning necha foizi yoki nechi gektar maydonlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish belgilangan?	50 foiz yoki 2 mln gektar
747.	Sug'orish me'yori nima?	1 gektar ekin maydonini bir marta sug'orish uchun beriladigan suv hajmi.
748.	Suvni tuproqqa shimilish kengligi qiymati qaysi parametrlarga bog'liq?	Tuproq mexanik tarkibiga.
749.	Tomchilatib sug'orish tizimining afzalliklarini sanab bering?	Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish suv resurslarini 30–40 foizga, YOMM va mineral o'g'itlarni 25–35 foizga iqtisod qilish bilan birga hosildorlik bog' va tokzorlarda 40–50 foizga gacha ortadi; 2) suvni ekinga me'yor darajasida va belgilangan muddatda berish imkoniyatini yaratadi; 3) suv dalaning faqat ekin joylashgan qismiga beriladi; 4) tuproqda suv kam bug'lanadi; 5) suv tuproqqa singib ketmaydi;
750.	Ko'p yillik bog' va uzumlarni tomchilatib sug'orishda sug'orish me'yori qanday hisob-kitob qilinadi?	Bir daraxtni ildiz qatlamini namlashdigan yuzaga kerak bo'lgan suv xajmidan kelib chiqib
751.	O'zbekiston Respublikasida necha foiz suv qishloq xo'jaligida ishlatiladi?	88%-90%
752.	Sug'oriladigan yerlar nima?	Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'oriladigan yerlar.
753.	Sug'orish me'yori (orositelnaya norma) nima?	O'simlikning o'sib rivojlanishi uchun o'simlikning vegetativ davrida sug'orish uchun sarflanadigan suv miqdori tushiniladi.

№	Savol	Javob
754.	O'zbekiston Respublikasining jami sug'oriladigan yer maydoni qancha va shu maydonlardan nechcha gektariga (foiza) suv tejovchi sug'orish texnologiyasi joriy qilindi?	Respublikamizning jami sug'oriladigan yer maydoni 4.3 mln. gektarni tashkil qiladi va 30 foiz maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyalari joriy qilindi.
755.	Tomchilatib sug'orish tizimi qanday asosiy qismlardan iborat?	Suv manbai (quduq, artezian, hovuz), nasos, filtr, magistral quvur, tarqatuvchi quvur, tomchilatib sug'orish shlangi.
756.	10 gektar mevali bog' maydoni uchun qanday hajmdagi hovuz tanlanadi?	Agar xovuzni to'ldirish uchun suv uzluksiz ta'minlansa, kichik hajmdagi xovuz ham yetarli bo'ladi. Agar suv uzluksiz ta'minlanmasa, suv qay tarzda va qancha muddatda kelishiga qarab xovuz hajmi tanlanadi.
757.	Xovuz tindirgichlarining qanday turlarini bilasiz?	Temir-betonli, geomembranali, plyonkali va grunt o'zanli.
758.	Qanday filtr turlarini bilasiz?	Gidrosiklon, qumli, diskli, setkali.
759.	Mevali bog'larda magistral va tarqatuvchi quvurlar qancha sm chuqurlikda yotqizilishi kerak?	Quvurlar yerning muzlash chuqurligidan pastda yotqizilishi kerak. Muzlash koeffitsiyenti hududlarga qarab farq qiladi o'rtacha 70 sm.
760.	Sug'oriladigan maydonlarda tuproqning mexanik tarkibi qanday bo'ladi?	Qumoq, qumli, loyqa va boshqalar.
761.	1 gektar bog' yoki tok maydonini an'anaviy sug'organda o'rtacha necha m ³ suv sarflanadi?	500-600 m ³ .
762.	Tomchilatib sug'orishda an'anaviy usulga nisbatan necha foiz suv tejaladi?	O'rtacha 30–40 foiz suv tejaladi.
763.	Tomchilatib sug'orish tizimida manometr qanday vazifani bajaradi?	Suv bosimini o'lchash.
764.	Sug'orma dehqonchilikda sug'orish me'yori nimaga asosan belgilanadi?	Yetishtirilayotgan ekinning turi va tuproq-iqlim sharoitiga qarab.
765.	Mevali bog' va tokzorlarda tomchilatib sug'orish tizimni muzlashdan himoya qilish uchun nima qilish kerak?	Qishdan oldin barcha quvurlar va shlanglardan suv to'liq chiqarilishi kerak.
766.	Havuzni dalaning qaysi qismiga joylashtirish maqsadga muvofiq?	Maydonga yaqin, suv va elektr manbai bor, hamda baland joyda joylashtirish tavsiya etiladi.
767.	Bog' hamda tokzorlarda Suvni tejaydigan (tomchilatib) sug'orish texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun ajratiladigan subsidiyaning miqdori 1 gektar uchun qancha	1 gektar bog' va tokzorlar uchun 8 mln so'm, biroq 16 milliondan oshmagan miqdorda
768.	Tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra sug'orish rejasini qanday belgilaydi?	Suv berish vaqti va miqdori tuproq turiga qarab belgilanadi.
769.	Tomchilab sug'orishda nasoslarni avtomatik boshqarishning afzalliklari nimada?	elektr energiyasi tejaladi va nasosning ishlash muddati uzayadi.
770.	Shox ariq nima?	Asosiy ariqdan tarmoqlangan kichik sug'orish arig'i.

№	Savol	Javob
771.	Yomg'irlatib sug'orish nima?	O'simlikka yomg'ir singari mayda tomchilar bilan suv berish usuli.
772.	Qaysi harakat turida suv tezroq oqadi Laminar yoki Turbulent ?	Turbulent harakatda odatda tezroq.
773.	Suv filtratsiyasi nima?	Suvni turli iflosliklardan tozalash jarayoni.
774.	Qishloq xo'jaligida suvni tejash texnologiyalari nima uchun muhim?	Suv sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirish uchun.
775.	Gidravlika nima?	Suv yoki boshqa suyuqliklar harakati va bosimini o'rganadigan fan.
776.	Tomchilatib sug'orish qaerda paydo bo'lgan?	Ushbu usul Izrailda 1960-yillarda paydo bo'lgan.
777.	Artezian qudug'i nima?	yer ostidagi yuqori bosimdagi suv qatlamiga ulangan chuqur quduq.
778.	Suv tejovchi texnologiyasini qanday turlari bor?	Tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, diskret, h.kz
779.	O'zbekistonning sug'oriladigan yer maydoni qancha?	4,3 mln gektar
780.	Tuproqning pH ko'rsatgichi nimani bildiradi?	Tuproqning kislotalik yoki ishqorlilik darajasini.
781.	Qanday tuproqlarda suv sarfi kam bo'ladi?	Og'ir tuproqlarda, chunki suv kam ketadi.
782.	Tomchilatib sug'orish tushunchasi ?	Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda o'simlikning ildizi yonidagi zonaga uning ehtiyojiga mos miqdordagi suvni yetkazib beradigan sug'orish usuli.
783.	Tomchilab sug'orish xovuzi nima uchun kerak?	Suvni yig'ish va tizimga uzoq muddatli ta'minot qilish uchun.
784.	Intensiv mevali bog' va uzumzorlarda tomchilatib sug'orish tizimlari o'rnatgani uchun subsidiya sifat darajasini belgilovchi koeffitsientni qo'llagan holda 1 gektar uchun qancha miqdorda belgilanadi.	16 million so'mdan oshmagan miqdorda belgilanadi
785.	Tomchilatib sug'orish tizimini qancha vaqtda bir marta yuvilishi kerak?	Har 2-4 haftada bir marta, yoki suv sifatidan kelib chiqib.
786.	Tik quduq qazishdan oldin nima qilinadi?	Yer osti suvi borligini aniqlash uchun geologik tahlil o'tkaziladi.
787.	Hovuzdagi suv sifatini qanday saqlash mumkin?	Tozalash va filtrlash tizimlarini joriy etish orqali.
788.	Suv quvurining diametri nimaga ta'sir qiladi?	Suv oqimi va bosimiga.
789.	Tomchilatib sug'orish tizimida manometr qanday vazifani bajaradi?	Suv bosimini o'lchash.
Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va rejalashtirish bo'limi		
790.	Budjet kodeksi qachon qabul qilingan?	26.12.2013 yilda qabul qilingan 01.01.2014 yilda kuchga kirgan.
791.	26.12.2013 yilda qabul qilingan 01.01.2014 yilda kuchga kirgan.	O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini (bundan buyon matnda budjet tizimi budjetlari deb yuritiladi) shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish,

№	Savol	Javob
		tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solidi.
792.	Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchisiga tarif bering.	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan qonun bilan belgilangan miqdorda ajratiladigan budjet mablag‘larini taqsimlovchi yuridik shaxs.
793.	Budjet ssudasi nima?	qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari
794.	Budjet so‘rovi nima?	o‘rta muddatli davr uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat.
795.	Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari nima?	qonunchilikda nazarda tutilgan manbalar hisobidan budjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag‘lar.
796.	Davlat budjeti profitsiti?	muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi.
797.	Davlat budjeti taqchilligi?	muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.
798.	Daromadlar va xarajatlar smetasi tushunchasi?	budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg‘armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat.
799.	Dotatsiya tushunchasi?	budjet tizimi budjetlariga ularning o‘z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.
800.	Jamlanma xarajatlar smetasi tushunchasi?	budjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi.
801.	Subvensiya nima?	muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.
802.	Subsidiya nima?	Tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun budjet tizimi budjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari.

№	Savol	Javob
803.	Shtat jadvali tushunchasi?	Doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, budjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat.
804.	Budjet tashkilotlarida davlat xaridarlari qaysi holatda xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin?	O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonunining 511-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin
805.	Asosiy vositalarni ishchi xolatida saqlab turish qanday amalga oshiriladi?	Joriy ta'mirlash — Asosiy vositalar obyektni ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir. O'rtacha ta'mirlashda ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi. Kapital tarzda ta'mirlash. Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash — agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir.
806.	Moliya bu - ?	Davlatning o'z vazifa funksiyalarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan, davlat tomonidan tashkil qilinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.
807.	Davlat budjetini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?	- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; - davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar; -meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; -yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari 1) belgilangan normativlarga muvofiq: foyda solig'i;jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;aksiz solig'i;yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (bundan qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno); 2) bojxona bojlari; 3) qo'shilgan qiymat solig'i;

№	Savol	Javob
808.	Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi va xarajat qismlari nimalardan iborat?	-ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari -nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari -iqtisodiyot xarajatlari -markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.
809.	“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?	O‘RQ-684 22.04.2021-yilda qabul qilingan.
810.	Agrosanoatni rivojlantirish agentligi qaysi normativ hujjatga asosan tashkil etilgan?	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoniga asosan tashkil etilgan.
811.	“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi nima?	08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-son qonunining maqsadi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.
812.	Budjet xarajatlar smetasi qaysi normativ hujjatga asosan shakllantiriladi?	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014-yil 14-noyabrdagi “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 74-sonli buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 15-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2634) bilan shakllantiriladi hamda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.
813.	Buxgalteriya hisobi nechta asosiy elementdan iborat?	3 ta: aktivlar, majburiyatlar va kapital.
814.	Buxgalteriya balansining asosiy formulasi nima?	Aktivlar = Majburiyatlar + Kapital.
815.	Aktiv nima?	Korxonaga tegishli va foyda keltiruvchi moddiy yoki nomoddiy resurslar.
816.	Majburiyat nima?	Korxonaning uchinchi shaxslarga bo‘lgan qarz yoki majburiyatlari.

№	Savol	Javob
817.	Kapital nima?	Egalarining korxonadagi ulushi, ya'ni aktivlardan majburiyatlar ayirilgandagi qoldiq.
818.	Debet va kredit nima?	Bu ikki tomonlama buxgalteriya hisobining asosiy qismlari; debet — aktivlar oshiriladi, kredit — passivlar oshiriladi.
819.	Inventarizatsiya nima?	Korxonaning moddiy boyliklari, pul mablag'lari va majburiyatlarini haqiqiy holatda tekshirish jarayoni.
820.	Amortizatsiya nima?	Asosiy vositalarning foydalanish muddati davomida ularning qiymatini bosqichma-bosqich xarajatlarga o'tkazish jarayoni.
821.	Asosiy vositalar qanday hisobga olinadi?	Ular aktiv sifatida debetga yoziladi va amortizatsiya ajratiladi.
822.	Soliq hisobi buxgalteriyaga kiradimi?	Ha, lekin u alohida yuritiladi va soliq kodeksi asosida amalga oshiriladi.
823.	Buxgalteriya hisobotlari turlari qanday?	Moliyaviy hisobot, soliq hisobotlari, statistika hisobotlari.
824.	Moliyaviy hisobotlarning asosiy shakllari qanday?	Balans, moliyaviy natija, pul oqimlari hisobi, kapital harakati hisobi.
825.	Buxgalteriya balansining tuzilmasi qanday?	Ikkita qism: aktivlar (jami aktivlar) va passivlar (majburiyatlar va kapital).
826.	Buxgalteriya dasturi nima?	Hisob-kitob va hujjatlashtirish ishlarini avtomatlashtiruvchi dasturiy ta'minot (masalan, UZASBO, 1C, SAP).
827.	Buxgalteriyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?	Moliyaviy axborotlarni to'plash, qayd etish, tahlil qilish va hisobot shaklida taqdim etish.
828.	Monetar siyosat qaysi tashkilot tomonidan yuritiladi?	Markaziy bank.
829.	Budjet tasnifi - bu?	Budjet daromadlari, xarajatlari va taqchillikni qoplash manbalarining turli belgilariga ko'ra guruhlanishi.
830.	Davlat byudjeti funksiyalaridan qaysi birida byudjet intizomiga rioya qilinishi nazorat qilinishi ko'zda tutilgan?	Nazorat funksiyasi.
831.	Kapital tarkibi qanaqa?	Xususiy kapital va qarz kapitali.

№	Savol	Javob
832.	Asosiy vositalar qanday baholanadi?	Ular boshlang'ich qiymat (sotib olish narxi + yetkazib berish va o'rnatish xarajatlari) bo'yicha baholanadi.
833.	Buxgalteriya hujjatlarining saqlanish muddati qancha?	Odatda 5 yildan 75 yilgacha, hujjat turiga qarab (mehnatga oidlari uzoqroq saqlanadi).
834.	Ichki audit nima?	Korxona ichidagi moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobini tekshirish jarayoni.
835.	Uzoq muddatli aktivlar va qisqa muddatli aktivlar o'rtasidagi farq nima?	Uzoq muddatli aktivlar (1 yildan ortiq), qisqa muddatli aktivlar (1 yilgacha ishlatiladigan resurslar).
836.	Moddiy javobgar shaxs nima?	Korxona mulkini saqlash va to'g'ri foydalanish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan xodim.
837.	Sof foyda qanday aniqlanadi?	Yalpi foydadan soliqlar va xarajatlar ayirilgandan keyin qolgan foyda.
838.	Buxgalterlik hisobida "kontragent" kim?	Korxona bilan xo'jalik munosabatlari kirishuvchi boshqa tashkilot yoki shaxs.
839.	Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish kimning zimmasida bo'ladi?	Buxgalteriya hisobini yuritish uchun mas'ul shaxs – bosh buxgalter yoki uning vakolatiga ega buxgalter hisoblanadi.
Devonxona va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis		
840.	O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'RQ-445-son Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida Qonun qaysi sanada qabul qilingan?	11 sentyabr 2017 yilda qabul qilingan
841.	Qonun nimalarni tartibga soladi?	Jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga va mansabdor shaxslarga murojaat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi..
842.	Qonunning maqsadi nima?	Davlat organlari va mansabdor shaxslarga murojaat qilish, javob berish va huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini belgilovchi munosabatlarni hamda kafolatlarni belgilash
843.	Qonun nechta bobdan iborat?	Qonun 5 ta bobdan iborat.
844.	Qonunning 1-bobi nima haqida?	Umumiy qoidalar.
845.	Qonunning 2-bobi nima haqida?	Xalq qabulxonalar va virtual qabulxonalar.
846.	Qonunning 3-bobi nima haqida?	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari va kafolatlar.

№	Savol	Javob
847.	. Qonunning 4-bobi nima haqida?	Murojaatlarni berish va ko‘rib chiqish tartibi.
848.	Qonunning 5-bobi nimani belgilaydi??	Murojaatlarni ko‘rib chiqishda huquqlar va majburiyatlar.
849.	Qonunda “murojaat” degan tushuncha nima?	Davlat organlari va mansabdor shaxslarga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan arizalar, shikoyatlar va takliflar.
850.	Qonunaga ko‘ra murojaat qayerda qabul qilinadi?	Xalq qabulxonalari, virtual qabulxonalar orqali.
851.	Virtual qabulxona nima?	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali onlayn qabul qilingan murojaatlar.
852.	Qonun murojaatlarni tekshirishni qamrab oladimi?	Ha, murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.
853.	Qonun murojaatchilar huquqini qanday himoya qiladi?	Murojaat beruvchilar huquqlari kafolatlanadigan qoidalar orqali.
854.	Qonun murojaatlarni qay tarzda berishni ko‘zda tutadi?	Yozma, elektron, virtual shakllarda.
855.	Murojaat qay tarzda topshirilmasligi mumkin?	Qonunga zid yolg‘on ma‘lumotlar bilan berilishi mumkin emas.
856.	Ariza deganda nima tushuniladi?	Shaxsning o‘z huquqi yoki manfaatini amalga oshirish haqidagi murojaati.
857.	Qonun nima uchun muhim?	Aholi bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlaydi.
858.	Qonunda qanday javob berish usullari bor?	Yozma, elektron, virtual shakllar.
859.	Taklif deganda nima tushuniladi?	Davlat va jamiyat faoliyatini yaxshilashga qaratilgan murojaat.
860.	Shikoyat nima?	Buzilgan huquq yoki qonuniy manfaatni tiklash to‘g‘risidagi murojaat.
861.	Anonim murojaatlar ko‘rib chiqiladimi?	Qoidaga ko‘ra, anonim murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi.
862.	Murojaatni ko‘rib chiqishning umumiy muddati qancha?	15 kungacha, qo‘shimcha o‘rganish talab etilsa — 30 kungacha.
863.	Murojaatni ko‘rib chiqish muddati uzaytirilishi mumkinmi?	Ha, asoslar mavjud bo‘lsa, murojaatchiga xabar berilgan holda.
864.	Takroriy murojaat nima?	Ilgari berilgan murojaat bo‘yicha javob qoniqarli bo‘lmagan holda qayta berilgan murojaat.
865.	Murojaatni boshqa organga yuborish mumkinmi?	Ha, agar masala vakolat doirasiga kirmasa.
866.	Murojaatchi javobdan norozi bo‘lsa nima qiladi?	Yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin.
867.	Davlat organlarining majburiyatlari nimalardan iborat?	Murojaatni o‘z vaqtida, xolisona va to‘liq ko‘rib chiqish.
868.	Murojaat mazmuni uchun kim javobgar?	Murojaatni bergan shaxs.
869.	Murojaatlar bilan ishlashni kim nazorat qiladi?	Davlat organlarining rahbarlari va vakolatli tuzilmalar.
870.	Qanday murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi?	Anonim, haqoratli va mazmunsiz murojaatlar.
871.	Devonxona nima?	Devonxona — tashkilotda hujjatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, saqlash va ijro nazoratini yurituvchi bo‘lim.
872.	Devonxonaning asosiy vazifasi nima?	Hujjatlar harakatini to‘g‘ri tashkil etish va nazorat qilish.
873.	Devonxona qaysi hujjatlar bilan ishlaydi?	Kiruvchi, chiquvchi va ichki hujjatlar bilan.
874.	Kiruvchi hujjat deganda nima tushuniladi?	Tashqi tashkilot yoki shaxslardan kelgan hujjatlar.
875.	Hujjatlarni ro‘yxatga olish nima uchun kerak?	Yo‘qolishini oldini olish va ijrosini nazorat qilish uchun.

№	Savol	Javob
876.	Ro'yxatga olish qaydnomasi nima?	Hujjatlar haqida ma'lumot kiritiladigan jurnal yoki elektron tizim.
877.	Hujjatga ro'yxat raqami qachon beriladi?	Qabul qilingan kuni.
878.	Devonxona hujjatlarni kimga topshiradi?	Rezolyusiya qo'yish uchun rahbarga.
879.	Rezolyusiya nima?	Rahbarning hujjat bo'yicha topshirig'i.
880.	Rezolyusiyada nima ko'rsatiladi?	Ijrochi, bajarish muddati va topshiriq mazmuni.
881.	Hujjatlarni saqlash muddati nimaga bog'liq?	Hujjat turi va normativ hujjatlarga.
882.	Vaqtincha saqlanadigan hujjatlar qancha saqlanadi?	1 yildan 10 yilgacha.
883.	Doimiy saqlanadigan hujjatlar qaysilar?	Buyruqlar, qarorlar, muhim hisobotlar.
884.	Arxivga topshirish qachon amalga oshiriladi?	Yil yakunida yoki belgilangan muddatda.
885.	Xujjatni Nazoratdan chiqarish qachon amalga oshiriladi?	Ijro to'liq bajarilgandan keyin.
886.	Maxfiy hujjatlarga kimlar kirish huquqiga ega?	Faqat vakolatli shaxslar.
887.	Hujjatda xatolik aniqlansa nima qilinadi?	Belgilangan tartibda tuzatish kiritiladi.
888.	Hujjat aylanishining bosqichlari qaysilar?	Qabul qilish, ro'yxatga olish, ijro, saqlash.
889.	Devonxonada muhrlar qaerda saqlanadi?	Maxsus seyfa.
Axborot xizmatlari bo'limi		
890.	Matbuot kotibi nima vazifani bajaradi?	Tashkilot yangiliklarini OAVga yetkazish, press-reliz va rasmiy axborot berish.
891.	Matbuot relizi nima va qanday yoziladi?	OAV uchun qisqa rasmiy xabar; sarlavha, asosiy faktlar va kontakt bilan yoziladi.
892.	Krisis holatida PR kotib nima qiladi?	Vaziyat bo'yicha tezkor izoh beradi, rasmiy pozitsiyani e'lon qiladi va mish-mishlarni to'xtatadi
893.	Press-tur nima?	Jurnalistlar uchun obyektidagi ish jarayonini ko'rsatish maqsadida tashkil qilinadigan safar.
894.	Media-reja nima?	Qaysi material qachon, qayerda va qanday formatda chiqishini belgilovchi reja.
895.	Axborot xizmati nima uchun xizmat qiladi?	Tashkilot faoliyati haqida jamoatchilikka ishonchli ma'lumot tarqatadi.
896.	Axborot xizmati bo'limida ishlaydigan mutaxassis kim?	Press-kotib/PR mutaxassisi (SMM va media bilan ishlovchi xodim).
897.	Axborot tizimi nima?	Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun tizim (dastur + baza).
898.	Elektron pochta nima uchun ishlatiladi?	Rasmiy xatlar, hujjatlar va tezkor xabar almashish uchun ishlatiladi.
899.	Rasmiy bayonot qanday hollarda beriladi?	Muhim voqea, favqulodda holat yoki tushunmovchiliklarda rasmiy munosabat bildirish uchun beriladi.
900.	Ma'lumotlar bazasi nima?	Ma'lumotlar tartibli saqlanadigan elektron tizim (DB)
901.	Axborot xavfsizligi nima uchun muhim?	Ma'lumot yo'qolishi, o'g'irlanishi va sizib chiqishining oldini oladi.
902.	Ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy vositalari qaysilar?	Parol, antivirus, firewall, shifrlash, zaxira nusxa (backup), ruxsat nazorati.
903.	Axborot tarmog'i nima?	Qurilmalar o'rtasida ma'lumot almashish tizimi (internet/LAN).
904.	SMM va PR o'rtasidagi farq nima?	SMM ijtimoiy tarmoqlarda kontent va reklama; PR obro'-e'tibor va jamoatchilik bilan aloqa.

№	Savol	Javob
905.	Axborot xizmati bo‘limida axborot qaysi formatda bo‘lishi mumkin?	Matn, foto, video, audio, infografika, press-reviz, reportaj
906.	Axborot resurslari deganda nimani tushunasiz?	Ma’lumot manbalari: sayt, hujjatlar, arxiv, baza, media materiallar.
907.	Tashkilot ichki kommunikatsiyasining ahamiyati nimada?	Jamoa tushinishi, intizom va samaradorlikni oshiradi.
908.	Brifing nima?	Qisqa rasmiy uchrashuv: jurnalistlarga tezkor ma’lumot va izoh berish.
909.	Matbuot anjumani qanday tashkil etiladi?	Mavzu tanlash, taklifnoma, joy-vaqt, spikerlar, materiallar, ro‘yxatga olish va yoritishni tashkil qilish.
910.	Tezis nima?	Qisqa asosiy fikrlar jamlanmasi.
911.	Munosabat qachon bildiriladi?	Muhim voqea yoki noto‘g‘ri xabar chiqqanda darhol bildiriladi.
912.	Axborot xizmati tomonidan ishlatiladigan asosiy hujjatlar?	Press-reviz, rasmiy bayonot, ma’lumotnoma, brifing matni, media-reja.
913.	Axborot tarqatishda qanday mezonlarga amal qilish kerak?	Aniqlik, ishonchlilik, tezkorlik, xolislik, rasmiylik.
914.	Brifing va press-konferensiya o‘rtasidagi farq nima?	Brifing qisqa va savol-javob kam; press-konferensiya katta va batafsil savol-javob bo‘ladi.
915.	Hashtak nima uchun kerak?	Postni topish oson bo‘lishi va mavzuni birlashtirish uchun.
916.	Telegram postini samarali qilish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?	Sarlavha, qisqa matn, aniq foyda, foto/video, CTA va hashtag muhim.
917.	Axborot xizmati bo‘limida statistik ma’lumotlar qanday yig‘iladi?	OAV chiqishlari, ijtimoiy tarmoq ko‘rsatkichlari va hisobotlar orqali.
918.	Axborotni tezkor yetkazish uchun qanday vositalar bor?	Telegram, e-mail, sayt, SMS, press-reviz, ijtimoiy tarmoqlar.
919.	Axborotlarni tezkor qayta ishlash nima?	Ma’lumotni tez tekshirib, tartiblab va tayyorlab tarqatish.
920.	Media monitoring nima?	OAV va internetdagi xabarlarini kuzatib borish.
921.	Tashkilotga nisbatan biror salbiy xabar tarqalsa, qanday javob berish kerak?	Faktlarni tekshirib, rasmiy izoh berish, rad etish yoki tushuntirish.
922.	Axborotlarning eskirish muddati deganda nimani tushunasiz?	Axborotning dolzarbligi yo‘qoladigan vaqt.
923.	Axborot xizmatida ishlovchi mutaxassis qanday qilib o‘z malakasini oshiradi?	Trening, kurs, tajriba almashish, amaliyot va media tahlil orqali.
924.	Media nima?	Axborotni tarqatadigan vositalar (TV, radio, internet, OAV).
925.	Axborot xizmatida axborot tarqatishda qanday metodlar qo‘llaniladi?	Press-reviz, post, reportaj, intervyu, press-tur, brifing
926.	Axborotlarni qayta ishlashda kompyuterning qaysi qismi eng muhim?	Protssessor va operativ xotira (RAM).
927.	Matbuot anjumani (press-konferensiya) nima?	Jurnalistlar bilan rasmiy uchrashuv va savol-javob tadbiri.
928.	Matbuot kotibingning tenglashtirilgan darajasi?	Axborot xizmati rahbari / PR menejer darajasida.
929.	Tashkilot logotipi va brendi qanday muhim?	Tashkilotni tanitadi, ishonch va imidjni kuchaytiradi.

№	Savol	Javob
930.	Infografika yaratishda nimalarga e'tibor berish kerak?	Sodda dizayn, aniq raqamlar, o'qilishi oson shrift, 1 mavzu–1 g'oya.
931.	kommunikatsiya nima?	Odamlar/tashkilotlar o'rtasida axborot almashish jarayoni.
932.	Matbuot xizmati nima vazifani bajaradi?	Tashkilot haqida rasmiy axborot tarqatish va OAV bilan ishlash
933.	Press-reliz nima?	OAV uchun tayyorlanadigan rasmiy xabar.
934.	Axborot tarqatishda qaysi omil muhim hisoblanadi?	Axborotning aniqligi va ishonchliligi .
935.	PR sohasida “brend” deganda nimani tushunasiz?	Tashkilot/mahsulotning obro'si, imiji va odamlar ongidagi qiyofasi.
936.	Matbuot xizmati qaysi asosiy vositalardan foydalanadi?	Press-reliz, sayt, ijtimoiy tarmoqlar, brifing, press-konferensiya.
937.	Matbuot xizmatida “target auditoriya” deganda nima tushuniladi?	Axborot kimga mo'ljallangan asosiy tinglovchi/foydalanuvchi.
938.	Matbuot relizini tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?	5W (kim, nima, qachon, qayerda, nega), qisqa matn, fakt va kontakt.
939.	Matbuot xizmati uchun qaysi axborot kanallari muhim?	TV/radio, internet saytlar, Telegram, Facebook/Instagram, rasmiy sayt.
940.	Ommaviy axborot vositalarida axborotni qanday taqdim etish lozim?	Sarlavha aniq, faktlar qisqa, rasmiy til va ishonchli manba bilan.
941.	Matbuot xizmati uchun qanday kommunikatsiya usullari mavjud?	Press-reliz, intervyu, brifing, press-tur, ijtimoiy tarmoq postlari.
942.	Tashkilotning ijobiy obro'sini saqlash uchun matbuot xizmati qanday ish olib boradi?	Tezkor izoh, shaffoflik, ijobiy kontent, krizisga tayyor reja.
943.	Ijtimoiy tarmoqlar matbuot xizmati uchun qanday ahamiyatga ega?	Tezkor tarqatish, fikr bilish va auditoriya bilan muloqot.
944.	Jurnalist bilan samarali hamkorlik qanday o'rnatiladi?	Ishonchli aloqa, tez javob, aniq fakt va tayyor material berish.
945.	Ommaviy axborot vositalari qanday turlarga bo'linadi?	Bosma, televideniye, radio, internet OAV, ijtimoiy platformalar.
946.	Matbuot xizmati xodimining ish rejasi qanday tuziladi?	Maqsad, mavzular, muddat, mas'ul, format va media-reja asosida tuziladi
947.	Tashkilotdagi axborot oqimini qanday boshqarish mumkin?	Yig'ish → tekshirish → tasdiqlash → tarqatish tartibini yo'lga qo'yish.
948.	Matbuot xizmati faoliyatini baholash mezonlari qanday?	OAV chiqishlari soni/sifati, qamrov, engagement, obro' ko'rsatkichi
949.	Matbuot xizmati bo'limining asosiy maqsadi nima?	Tashkilot haqida to'g'ri va ijobiy axborot berib, jamoatchilik ishonchini oshirish
950.	Fotosuratlar tanlash mezonlari?	Sifat (aniqlik), mavzuga moslik, yorug'lik, kompozitsiya, rasmiylik
951.	Brend tili (tone of voice) nima?	Brendning gapirish uslubi: rasmiy, do'stona, jiddiy yoki sodda.
952.	Kontent reja tuzishda nimalarga amal qilish kerak?	Maqsad, auditoriya, format, jadval, mavzu va natija (KPI)ga amal qilinadi.
953.	Silkaning afzalligi?	Kerakli sahifaga tez o'tish, trafik oshirish, ma'lumotni to'liq olish.
954.	Video roliklar uchun skript tuzishdagi asosiy qoidalar?	Kirish–asosiy–yakun, qisqa gap, aniq g'oya, CTA, vaqtga mos.
955.	Intervyuni qanday tayyorlash kerak?	Maqsad, savollar ro'yxati, spiker tayyorlash, joy/vaqt va texnikani tekshirish.
956.	Axborot xizmatining boshqa bo'limlar bilan hamkorligi qanday bo'lishi kerak?	Doimiy aloqa, tezkor ma'lumot almashish, yagona pozitsiya bilan ishlash.

№	Savol	Javob
957.	Davlat tashkilotida ishlovchi matbuot kotibining asosiy etikasi nimalardan iborat?	Xolislik, rasmiylik, sir saqlash, qonunga rioya, hurmatli muloqot.
958.	OAV vakillariga noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumot berganingiz aniqlansa, nima qilgan bo‘lardingiz?	Darhol tan olish, to‘g‘rilash, rasmiy izoh va yangilangan faktni berish.
959.	Tashkilot bayram yoki tadbirlarini qanday yoritish kerak?	Oldindan e‘lon, live/post, foto-video, natija va iqtibos bilan yakuniy reliz.
960.	Jurnalistlar bilan aloqani qanday rivojlantirish kerak?	Tez javob, ochiqlik, ishonch, muntazam press-uchrashuvlar.
961.	Axborot xizmati faoliyati yuzasidan hisobot qanday bo‘ladi?	Qilingan ishlar, chiqishlar soni, qamrov, natija va statistik tahlil ko‘rinishida bo‘ladi.
962.	Axborotni baholash mezonlari qanday?	Aniqlik, dolzarblik, ishonchlilik, tushunarlik, ta’sir.
963.	Axborot xizmatining samaradorligi qanday o‘lchanadi?	Qamrov, ko‘rishlar, engagement, OAV chiqishlari, obro‘ ko‘rsatkichi.
964.	Tashkilot ichki yangiliklarini tashqi auditoriyaga qanday yetkazish kerak?	Press-reliz, sayt, ijtimoiy tarmoq, reportaj orqali yetkaziladi.
965.	Axborot tarqatishda qonunchilikka amal qilishning ahamiyati qanday?	Jarima va muammo oldini oladi, ishonch va rasmiylikni saqlaydi.
966.	Axborot xizmatida qaysi grafik tahrirlovchi dasturlardan foydalanish mumkin?	Canva, Photoshop, Illustrator, Figma, coreldraw.
967.	Tashkilot Telegram kanaliga obunachilarni qanday ko‘paytirish mumkin?	Sifatli kontent, reklama, hamkor kanal, repost, CTA, konkurs.
968.	Ijtimoiy tarmoqdagi negativ fikrlarga qanday munosabat bildirish kerak?	Xotirjam javob, fakt bilan tushuntirish, haqorat bo‘lsa moderatsiya.
969.	Qanday ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish zarur deb hisoblaysiz?	Telegram, Instagram, Facebook, youtube (auditoriyaga qarab).
970.	Eng yaxshi matn uzunligi qancha bo‘lishi kerak?	Qisqa va mazmunli: odatda 3–7 jumla (platformaga qarab).
971.	Kontent tayyorlashda auditoriyani qanday aniqlash kerak?	Yosh, hudud, qiziqish, muammo va maqsad bo‘yicha segmentlash.
972.	Video kontentni samarali qilish bo‘yicha tavsiya?	3 soniyada e’tibor, subtitrlar, qisqa montaj, aniq g‘oya.
973.	Post tayyorlashda clickbait usuli haqida nima deya olasiz?	Ehtiyotkorlik bilan: aldamasdan qiziqitiruvchi sarlavha ishlatish kerak.
974.	Axborot xizmatida tezkorlik nima uchun muhim?	Axborot kechiksa, ishonch pasayadi va mish-mish ko‘payadi.
975.	Video, audio va matnli materiallar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.	Video ko‘rsatadi, audio eshittiradi, matn batafsil tushuntiradi.
976.	OAVda noto‘g‘ri ma’lumot e‘lon qilinsa, qanday chora ko‘rish kerak?	Rasmiy rad javobi, tuzatish so‘rash, isbotli fakt berish.
977.	Yozilgan matn ommaviy tanqidga uchrasa, nima qilish kerak?	Vaziyatni tahlil qilish, izoh berish, xato bo‘lsa uzr va tuzatish.
978.	Tashkilot rahbarining ommaviy chiqishi qanday tayyorlanadi?	Tezis, asosiy xabarlar, savol-javobga tayyorgarlik, repetitsiya.
979.	Ish bosimida stressni qanday boshqarish kerak?	Reja, ustuvorlik, tanaffus, uyqu, sport va delegatsiya.

№	Savol	Javob
980.	Matbuot kotibi uchun eng asosiy 3 sifatni qaysilar?	Tezkorlik, muloqotchanlik, mas'uliyat.
981.	DSLR va Mirrorless kameralar o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat? Qaysi birini afzal ko'rasiz va nega?	DSLR og'ir va optik vizor; mirrorless yengil va tez fokus. Ko'pincha mirrorless qulay.
982.	ISO, Shutter Speed va Aperture qanday ishlaydi va videotasvirda bu uchlik qanday rol o'ynaydi?	Yorug'likni boshqaradi: ISO shovqin, shutter harakat, aperture fon xiraligi.
983.	Lavhalarni stabil holatda olish uchun qanday uskunalaridan foydalanish mumkin?	Shtativ, gimbal, stabilizator, monopod, slider.
984.	4K va Full HD formatlar orasidagi farq nimada? Qaysi holatda 4K afzal?	4K sifat yuqori va crop qulay; montaj og'ir. Muhim loyihalarda 4K afzal.
985.	Qanday dronlar video uchun eng mos?	Kamera stabilizatsiyali, 4K/6K, GPS kuchli modellari (DJI turkumlari).
986.	Dron bilan suratga olishda qanday ruxsatnomalar yoki xavfsizlik qoidalariga amal qilinadi?	Parvoz hududi tekshirish, balandlik cheklovi, odamlar ustidan uchmaslik, ruxsatnoma.
987.	GPS signali yo'qolganda dron "return-to-home" rejimiga o'tib qolgan holat bo'lsa, qanday chora ko'riladi?	Signalni tiklash, balandlikni nazorat qilish, qo'lda boshqaruvga o'tish.
988.	Dronning uchish barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar nimalar?	Shamol, GPS, batareya, propeller holati, kalibrovka, og'irlik.
989.	Professional videolar olishda dron sozlamalarini qanday belgilanadi?	FPS/Resolution, shutter 2x qoida, ISO past, ND filter, oq balansni qo'lda qo'yish,
Moliyaviy qo'llab quvvatlash bo'limi		
990.	Qanday normativ hujjatlar asosida subsidiyalar ajratiladi?	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Qarorlari va Farmonlari, Hukumat Qarorlari bilan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (instruksiyalar, nizomlar) asosida ajratiladi.
991.	Subsidiyaning asosiy maqsadi nimadan iborat?	Asosiy maqsadi – bog'dorchilikni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, eksport salohiyatini oshirish, dehqonlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.
992.	Kimlar subsidiya olish huquqiga ega?	O'zbekiston fuqarolari, dehqon xo'jaliklari (DX), fermer xo'jaliklari (FX), qishloq xo'jaligi kooperativlari, bog'dorchilik bilan shugullanuvchi yuridik shaxslar (korxonalar).
993.	Subsidiyalar bir marta beriladimi yoki har yili?	Subsidiya mablag'lari bir martalik hisoblanadi.
994.	Qanday holatlarda subsidiya rad etiladi?	Arizada noto'g'ri ma'lumot berish, zarur hujjatlarni taqdim etmaslik, shartlarni qanoatlantirmaslik, muddatni o'tkazib yuborish, oldingi subsidiyani maqsadsiz ishlatgan bo'lsa.

№	Savol	Javob
995.	Import qilgan ko‘chatlar uchun subsidiya beriladimi?	Ha, agar import qilingan ko‘chatlar sertifikatga ega bo‘lsa hamda “In-vitro” sharoitida yetishtirilgan bo‘lsa.
996.	Subsidiya olish uchun ko‘chatlar sertifikatli bo‘lishi shartmi?	Ha, ko‘chatlarning sifati va sorti to‘g‘risidagi davlat sertifikati yoki rasmiy hujjat bo‘lishi shart. Bu standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi.
997.	Subsidiyalar qaytariladimi?	Subsidiyalar qaytarilmaydi, ammo maqsadsiz ishlatilgan taqdirda qaytarib berish talab qilinadi.
998.	Bitta xo‘jalikka bir necha yo‘nalishda subsidiya olish mumkinmi?	Ha, mumkin. Masalan, yosh bog‘ ekish uchun va suv tejovchi texnologiyalar uchun, quduq qazish, muqobil energiya manbalarini joriy qilish uchun bir vaqtning o‘zida olish mumkin. Bir xil turdagi subsidiyani ikki marta bitta loyiha uchun olish mumkin emas.
999.	Mevali ko‘chatlarning ekish sxemalari subsidiya talablariga ta’sir qiladimi?	Ha, ta’sir qiladi. Ekish sxemasi (qator oralig‘i, chuqurligi) agrotexnika talablariga muvofiq bo‘lishi lozim. Loyiha-smeta shu sxemalar asosida tuzilishi kerak.
1000.	Subsidiyalarning iqtisodiyotga qanday ta’siri bor?	Ishlab chiqarishni oshiradi, eksportni ko‘paytiradi, yangi texnologiyalarni joriy qiladi, ish o‘rni yaratadi, dehqonlar daromadini oshiradi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi.
1001.	Subsidiya berishning maqsadi?	Bog‘dorchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, uning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash.
1002.	Subsidiya mablag‘i talabgorning hisob raqamiga tushadimi?	Ha, talabgorning o‘zi nomiga ochilgan bank hisob raqamiga o‘tkaziladi. Bank rekvizitlari arizada aniq ko‘rsatilishi kerak.
1003.	Agentlikka subsidiya arizalari qaysi platforma orqali keladi?	"Cabinet.agrosubsidiya.uz" platformasi orqali onlayn ariza qabul qilinadi.
1004.	Bog‘dorchilik yo‘nalishida quyosh panellari uchun subsidiya bormi?	Ha, bor. Energiya resurslarini tejash maqsadida quyosh panellarini o‘rnatish uchun subsidiyalash mavjud.
1005.	Subsidiya berishda muddat belgilanadimi?	Ha, belgilanadi. Bir yillik yoki ko‘p yillik muddati shartnomada ko‘rsatiladi.
1006.	Yangi bog‘lar qurilishi uchun subsidiya sharoitlari qanday belgilangan?	Kamida 1 ga yer, zonalashtirilgan meva sortlari, loyihani texnik iqtisodiy asosi yoki texnik shartida ko‘rsatilgan agrotexnika talablariga muvofiq ekish, qurishdan keyin bog‘ni parvarish qilish kafolati talab qilinadi.
1007.	Subsidiyalarni ajratishda eng yaxshi shaffof mexanizm?	Onlayn platformalar (orqali ariza berish, ekspert komissiyalarining ochiq ishi, oluvchilar ro‘yxatining rasmiy saytlarda e‘lon qilinishi, jamoatchilik nazorati.
1008.	Subsidiyalar samaradorligini qanday o‘lchovlar (KPI) orqali baholash mumkin?	Hosildorlik oshishi (%), suv sarfi kamayishi (%), eksport hajmi oshishi (%), ish orni yaratilishi (dona), investitsiyalarning qaytami (ROI), dehqonlar daromadi oshishi (%).
1009.	In vitro ko‘chatlarni subsidiyalashga doir huquqiy asos qaysi qaror yoki farmon bilan belgilangan?	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “«In-vitro» sharoitida ko‘paytirilgan payvandtagli meva va tok ko‘chatlarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025 yil 27-iyuldagi VM-468 sonli qarori asosida
1010.	Subsidiyalar maqsadsiz foydalanilganda qanday choralar ko‘riladi?	Subsidiyani qaytarib berish talabi, jarima solish, kelgusi subsidiyalarni berishni to‘xtatish, jinoiy javobgarlikka tortilish (aldash holatida), rasmiy ogohlantirish.

№	Savol	Javob
1011.	Ikkilamchi ijaraga olingan yer maydonlari uchun subsidiya berish mumkinmi?	Ha, mumkin. Agar ijarra shartnomasi rasmiy ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, yer maydoni chegarasi qanoatlantirsa va ijarra muddati loyihani amalga oshirish uchun yetarli bo'lsa. Ijarra shartnomasi nusxasi hujjatlarga ilova qilinadi.
1012.	Yangi intensiv bog' va tokzorlarda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun subsidiya olishning asosiy shartlari nimalardan iborat?	Asosiy shartlar: - Loyiha asosida 2019 yildan keyin tashkil etilgan intensiv bog'/tokzor maydoni (kamida 1 ga). - Tomchilatib sug'orish tizimi loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan bo'lishi. - Tizimning sifatlik darajasi bazaviy hisoblash miqdori (8 mln so'm/ga) va koeffitsientlar bo'yicha baholanishi (1-ilovaga 3-ilova). - Tuman ishchi guruhining ijobiy xulosasi olingan bo'lishi. - Subsidiyadan foydalanish 5 yil mobaynida nazorat qilinadi (nizomning 16-bandi).
1013.	Qayta tiklanuvchi elektr energiyasi qurilmalarini (quyosh panellari) sotib olish uchun subsidiya olish mumkin bo'lgan holatlar qanday?	Subsidiya olish uchun shartlar: - Aholi yashash punktlaridan 3 km dan ortiq masofada joylashgan hudud. - Kamida 10 gektar yangi intensiv bog'/uzum plantatsiyasi tashkil etilgan bo'lishi. - Qurilma tomchilatib sug'orish tizimini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'lishi. - Subsidiya xarajatlarning 50% gacha (maksimum 100 mln so'm) qoplanadi (qarorning 1-band "v" punkti). - O'zda energonazoratning texnik hujjati (pasport) bo'lishi shart (nizomning 1-ilovasi).
1014.	Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun subsidiya miqdori qanday hisoblanadi?	Miqdor bazaviy hisoblash miqdori (8 mln so'm/ga) va sifatlik koeffitsienti orqali aniqlanadi: $\text{Subsidiya} = \text{Bazaviy hisoblash miqdori} \times \text{Sifatlik koeffitsienti}$ Sifatlik koeffitsienti tizim komponentlari (hovuz, nasos stansiyasi, filtr, quvurlar, shlanglar) bo'yicha ballar yig'indisi sifatida hisoblanadi
1015.	Uzum ko'chatlarini shpalerga ko'tarish uchun subsidiya olishda qanday hujjatlar talab qilinadi?	Talab qilinadigan hujjatlar (2-ilovaga 3-ilova): - Shpaler sotib olish bo'yicha shartnoma va hisob-faktura. - Talabgor va pudrat tashkiloti o'rtasidagi dalolatnoma (ishlar sifatli bajarilganligi to'g'risida). - Temir-beton shpaler uchun sifatlik sertifikat. - Tuman ishchi guruhiga ariza (4-ilovaga 3-ilova shakli). - Talabgorning bank rekvizitlari. - Shpalerlar balansga olinganligi to'g'risidagi hujjat.
1016.	Subsidiya olganda maqsadsiz foydalaning taqdirda qanday javobgarlikka tortiladi?	Moliyaviy javobgarlik: - Birinchi yil foydalanilmasa → subsidiyaning 100% qaytariladi. - Ikkinchi yil foydalanilmasa → subsidiyaning 80% qaytariladi (nizomning 1-ilovasi 22-band).

№	Savol	Javob
		Boshqa choralar: - Subsidiya sud yo‘li bilan undirilishi (nizomning 1-ilovasi 26-band). - Qonunbuzarlikka ko‘ra jinoiy javobgarlik (aldash holatida). - Kelgusi subsidiyalar olish imkoniyasidan mahrum qilinishi.
1017.	Uzum (mayiz) quritish liniyalarini xarid qilish uchun subsidiya miqdori qanday belgilanadi?	Subsidiya xarajatlarning 20% gacha (maksimum 300 mln so‘m) qoplanadi (3-ilovaga 1-ilova). Miqdor: - Xarid qilingan liniyaning qiymatining 20%i lekin 300 mln so‘mdan oshmaydi (masalan, 1,5 mlrd so‘mlik liniya uchun subsidiya 300 mln so‘mdan oshmaydi). - Talabgor quritish liniyasi 2021 yildan keyin ishlab chiqarilganligi va balansga olinganligi to‘g‘risida hujjat taqdim etishi kerak.
1018.	Subsidiya ajratish jarayonida tuman ishchi guruhining roli nima?	Tuman ishchi guruhi: - Arizani qabul qilish va hujjatlarni tekshirish (5 kun mobaynida). - Subsidiya berishga ijobiy yoki salbiy xulosa berish (1-ilovaga 10-band). - Loyihani joyda tekshirish (masalan, tomchilatib sug‘orish tizimining sifati). - Xulosani Agrosanoatni rivojlantirish agentligiga yuborish. - Subsidiyadan foydalanishni 5 yil mobaynida monitoring qilish (1-ilovaga 17-band). - Tarkibida hokim, qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, moliya bo‘limi boshlig‘i, fermerlar kengashi raisi kabi 9 kishidan iborat (1-ilovaga 1-ilova).
1019.	Burg‘ilangan quduq qazish uchun subsidiya olish mumkinmi?	Ha, mumkin, lekin faqat quyidagi shartlar bilan: - Qudug yangi intensiv bog‘/uzum plantatsiyasi uchun qazilishi kerak (qarorning 1-band "b" punkti). - Har 10 gektar maydon uchun bir burg‘ilangan quduq yoki nasos stansiyasi qurilishi. - Subsidiya har metr uchun 600 ming so‘m (maksimum 120 mln so‘m bir dona quduq/nasos stansiyasi uchun). - Davlat geologiya qo‘mitasining yoki Suv xo‘jaligi vazirligining dalolatnomasi bo‘lishi shart.
1020.	Subsidiya olganda qaysi holatlarda javobgarlikka tortiladi?	Quyidagi holatlarda javobgarlikka tortiladi: - Maqsadsiz foydalanish: Subsidiya boshqa maqsadda ishlatilsa (javobgarlik: qaytarib berish + jarima). - Xujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumot berish: Arizada yoki hisobotda aldash qilinsa (javobgarlik: jinoiy javobgarlik). - Shartnoma shartlarini bajarmaslik: Masalan, shpalarni 5 yildan oldin olib tashlasa (javobgarlik: subsidiyani qaytarish). - Nazoratni rad etish: Tuman ishchi guruhining monitoringiga qarshilik ko‘rsatsa (javobgarlik: subsidiyani to‘xtatish).
1021.	Subsidiya miqdorini oshirish imkoniyati bormi?	Yo‘q, chunki subsidiya miqdori qarorda qat’iy belgilangan:

№	Savol	Javob
		- Tomchilatib sug'orish: bazaviy hisoblash miqdori (8 mln so'm/ga) + sifatlilik koeffitsienti. - Shpaler: maksimum 15 000 so'm/dona. - Quduq/nasos stansiyasi: maksimum 120 mln so'm bir dona uchun. - Quritish liniyasi: maksimum 300 mln so'm.
1022.	Subsidiyadan foydalanishni qanday nazorat qilinadi?	Nazorat tizimi: - Davlat nazorati: Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda 5 yil mobaynida monitoring olib boradi. - Hududiy nazorat: Tuman ishchi guruhi har oyda kamida bir marta joyda tekshirish o'tkazadi (1-ilovaga 24-band). - Jamoatchilik nazorati: Fuqarolar videojovka orqali qonunbuzarliklarni fosh qilishi mumkin (1-ilovaga 27-band). - Moliyaviy nazorat: Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi xarajatlarni qonunga muvofiqlikni tekshiradi.
1023.	Subsidiya olish uchun zarur bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini kim tayyorlaydi?	Loyiha-smeta hujjatlarini: - Talabgor o'zi tayyorlaydi yoki maxsus loyiha tashkilotiga buyurtma beradi. - Loyiha tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tgan va litsenziyaga ega bo'lishi shart. - Loyiha-smeta hujjatlari tuman loyiha ofisi tomonidan tekshiriladi (1-ilovaga 12-band). - Subsidiya miqdorini aniqlash uchun loyiha-smeta to'liq va aniq bo'lishi kerak (masalan, tomchilatib sug'orish tizimining barcha komponentlari ko'rsatilishi shart).
1024.	Muqobil energiya qurilmalari bilan ishlaydigan limon issiqxonalarini barpo etish uchun subsidiya olishning asosiy shartlari nimalar?	Asosiy shartlar: - Talabgor limon yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi tashkiloti (fermer, dehqon xo'jaligi, MChJ) bo'lishi kerak. - Issiqxona muqobil energiya qurilmasi (quyosh, shamol, suv orqali ishlaydigan) bilan ta'minlanishi lozim. - Qurilma xorijiy davlatlardan yoki mahalliy ishlab chiqaruvchidan sotib olingan bo'lishi va texnik pasportiga ega bo'lishi shart. - Subsidiya qurilma qiymatining 30% gacha qismini qoplaydi (qarorning 1-band "a" punkti). - Tuman komissiyasining ijobiy xulosasi olingan bo'lishi (1-ilovaga 6-band). - Subsidiyadan foydalanish 5 yil mobaynida nazorat qilinadi (nizomning 17-band).
1025.	Yangi limonzorlarni barpo etish va ko'chatlarni xarid qilish uchun subsidiya miqdori qanday belgilanadi?	Subsidiya miqdori: - Har bir sotix uchun 300 ming so'mdan oshmaydigan miqdorda belgilanadi (qarorning 1-band "b" punkti). - Miqdor loyiha tashabbuskorning loyihasi asosida hisoblanadi: - Limonzor maydoni, ko'chatlar soni, ekish sxemasi.

№	Savol	Javob
		- Suv tejovchi texnologiyalar (tomchilatib sug'orish) mavjudligi. - Tuman komissiyasi tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma asosida ajratiladi (2-ilovaga 14-band).
1026.	Agrobiznes deganda nima tushuniladi?	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish bilan bog'liq faoliyat.
1027.	Iqtisodiy resurslar qancha turga bo'linadi?	To'rtta: yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati.
1028.	Subsidiya qaytariladimi?	Yo'q, bu bepul yordam, lekin shartlar buzilsa, davlat qaytarishni talab qilishi mumkin.
1029.	Rentabillik nima ?	Rentabillik — bu iqtisodiy faoliyatning samaradorligini ifoda etadigan ko'rsatkich bo'lib, foyda va resurslar (masalan, xarajatlar, aktivlar yoki kapital) o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi
1030.	Tomchilatib sug'orish nima?	Bu sug'orish texnologiyasida suv ko'chatning ildizlari joylashgan yerga tomchi-tomchi qilib, uzluksiz va dozalangan tarzda beriladi. Buning uchun plastik quvurlar, tomizgichlar, filtrlar va nazorat tizimlari kerak bo'ladi
1031.	Davlat byudjeti nima?	Davlat byudjeti – davlatning yillik daromadlari va xarajatlari rejasi bo'lib, u davlat funksiyalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Davlat byudjeti — bu qonun bilan tasdiqlangan moliyaviy hujjat bo'lib, u orqali davlat o'zining iqtisodiy faoliyatini moliyalashtiradi. U mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning (YaIM) muayyan qismini to'plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalariga yo'naltirish imkonini beradi.
1032.	Davlat byudjeti nimalardan tashkil topgan?	1. Daromadlar qismi: Soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i va boshqalar. Soliqsiz tushumlar: davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar, davlat korxonalarining foydasi, jarimalar va boshqalar. Tashqi manbalar: xalqaro moliyaviy institutlardan olingan kreditlar va grantlar. 2. Xarajatlar qismi: Ijtimoiy sohalar: maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot. Iqtisodiy sohalar: infratuzilma rivojlantirish, sanoat, qishloq xo'jaligi. Davlat boshqaruvi: ma'muriy xarajatlar, xavfsizlik va mudofaa. Qarz xizmatlari: davlat qarzlarini qaytarish va foiz to'lovlari.
1033.	Yashil iqtisodiyot nima?	Bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan ekologik barqaror iqtisodiy modeldir
1034.	Yashil iqtisodiyotning maqsadi?	Atrof-muhitni asrash. Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanish.

№	Savol	Javob
		Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash
1035.	Subsidiya berilishi iqtisodiyotga qanday ta’sir qiladi?	Ishlab chiqarishni kengaytiradi, mahalliy mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi.
1036.	Agrar sektorda raqamlashtirish nimaga kerak?	Xisobot va nazoratni yaxshilaydi, samaradorlikni oshiradi.
1037.	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy risklari nimalar?	Iqlim, suv yetishmovchiligi, bozor narxlarining o‘zgarishi.
1038.	Qishloqda aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish nima?	Faqat dehqonchilik emas, zanjabilchilik, asalchilik, qo‘l mehnati va servis sohalariga kengaytirish.
1039.	Xalqaro iqtisodiyotda “erkin iqtisodiy zona” tushunchasi nima?	Soliq va bojxona imtiyozlari berilgan hudud, xorijiy investitsiyani jalb qilish maqsadida.
1040.	Yashil iqtisodiyot nimaga xalqaro ahamiyat kasb etgan?	Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va ekologik barqaror rivojlanish uchun.
1041.	Xufyona iqtisodiyot (yoki qora iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot) nima?	Bu davlat nazoratidan tashqarida faoliyat yuritadigan, soliq to‘lanmaydigan, hisobga olinmaydigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir.
1042.	Qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarga davlat investitsiyasi samaralimi?	Ha, chunki suv tanqisligi fonida mahsulot hosildorligini saqlab qolish uchun adaptiv agrotexnologiyalar muhim hisoblanadi.
1043.	Qishloq xo‘jaligiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishda to‘siqlar nimalar?	Moliyaviy resurs yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, infratuzilmaning qoloqligi va fermerlarning texnologiyalarga ishonmasligi.
1044.	Manfaatlar to‘qnashuvi nima?	Bu — shaxsning shaxsiy (moliyaviy, mulkiy, oilaviy va boshqa) manfaatlari o‘z xizmat vazifalarini adolatli bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi holatdir.
Marketing va export bolimi		
1045.	Marketing nima?	Tovar yoki xizmatni bozorga chiqarish, sotish va mijoz ehtiyojini qondirish jarayonidir.
1046.	Marketingning asosiy maqsadi nima?	Mijoz ehtiyojini aniqlash va ularni qondirgan holda foyda keltirish.
1047.	Marketing miksi nima va uning tarkibi?	Marketing miksi — 4P: Product (Mahsulot), Price (Narx), Place (Joylashuv), Promotion (Reklama/Ilgari surish).
1048.	Bozor segmentatsiyasi nima?	Bozorni iste’molchilar ehtiyoji, yosh, daromad, joy va boshqa belgilarga ko‘ra bo‘lish jarayoni.
1049.	Reklama nima?	Mahsulotni ommaga tanitish
1050.	PR nima?	Jamoatchilik bilan aloqa
1051.	Reklama bilan PRning farqi nimada?	Reklama — pullik targ‘ibot; PR — jamoatchilik bilan aloqa, obro‘ orqali ishonch qozonish.

№	Savol	Javob
1052.	Brend nima?	Brend — mahsulot yoki kompaniyaning nom, belgi yoki obraz orqali shakllangan imidji.
1053.	Brending nima?	Brendni yaratish va rivojlantirish jarayoni.
1054.	SWOT tahlil nima?	Kompaniyaning kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses) tomonlari, imkoniyat (Opportunities) va xatarlarini (Threats) tahlil qilish usuli.
1055.	Mijozlar talabini qanday aniqlash mumkin?	So‘rovnoma, intervyu, bozor tadqiqoti va mijoz fikrlarini o‘rganish orqali.
1056.	Targeting (Targeting) nima?	Bozor segmentlaridan eng mosini tanlab, marketing faoliyatini shu guruhga qaratirish jarayoni.
1057.	Pozitsiyalash (Positioning) nima?	Mahsulotni raqiblardan farqli qilib, mijoz ongida o‘ziga xos o‘rin yaratish.
1058.	Maqsadli auditoriya nima?	Mahsulotga qiziquvchi mijozlar guruhi.
1059.	Marketing tadqiqoti nima?	Bozorni o‘rganish jarayoni
1060.	Digital marketing nima?	Internet orqali marketing
1061.	SMM nima?	Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing
1062.	SEO nima?	Saytni qidiruvda yuqori chiqarish.
1063.	Kontent marketing nima?	Foydali kontent orqali mijoz jalb qilish
1064.	Lid nima?	Potensial mijoz
1065.	Konversiya nima?	Mijoz harakatga o‘tishi
1066.	Marketing strategiyasi nima?	Uzoq muddatli reja
1067.	B2B nima?	Biznesdan biznesga savdo
1068.	B2C nima?	Biznesdan iste’molchiga savdo

№	Savol	Javob
1069.	Unikal taklif nima?	Boshqalardan farqli afzallik
1070.	Narx strategiyasi nima?	Narx belgilash usuli
1071.	Raqobat tahlili nima?	Raqiblarni o‘rganish
1072.	Fidbek nima?	Mijoz fikri
1073.	Loyallik nima?	Mijozning brendga sodiqligi
1074.	Reklamaviy kanal nima?	Reklama tarqatiladigan joy
1075.	Marketing byudjeti nima?	Marketing uchun ajratilgan mablag‘
1076.	Kampaniya nima?	Maqsadli reklama tadbiri
1077.	Analitika nima?	Natijalarni tahlil qilish.
1078.	Eksport nima?	Mahsulotni chet davlatga sotish
1079.	Import nima?	Chetdan tovar olib kirish.
1080.	Eksport qiluvchi kim?	Tovarni sotuvchi kompaniya.
1081.	Importyor kim?	Tovarni qabul qiluvchi
1082.	Eksport shartnomasi nima?	Savdo kelishuvi
1083.	Inkoterms nima?	Xalqaro savdo qoidalari.
1084.	FOB nima?	Tovar kemada yuklangancha javobgarlik
1085.	CIF nima?	Narx, sug‘urta va fraxt kiritilgan
1086.	Eksport litsenziyasi nima?	Eksportga ruxsat hujjati

№	Savol	Javob
1087.	Sertifikat nima?	Mahsulot sifat tasdig'i
1088.	Bojxona nima?	Chegara nazorat organi
1089.	Boj to'lovi nima?	Davlatga to'lanadigan soliq
1090.	Logistika nima?	Tovarni yetkazish jarayoni
1091.	Transport hujjati nima?	Yuk tashish dalili
1092.	Invoys nima?	Hisob-faktura
1093.	Qadoqlash nima uchun muhim?	Xavfsizlik va tashqi ko'rinish uchun
1094.	Eksport bozori nima?	Tovar sotiladigan davlat
1095.	Valyuta tushumi nima?	Chet el pulidagi daromad
1096.	Eksport narxi nima?	Chet el bozori uchun narx
1097.	Xalqaro standart nima?	Umumqabul qilingan talablar
1098.	Sifat nazorati nima?	Mahsulotni tekshirish
1099.	Eksport xavfi nima?	Yo'qotish ehtimoli
1100.	Sug'urta nima uchun kerak?	Xavfdan himoya qilish uchun
1101.	Eksport strategiyasi nima?	Chet bozorga chiqish rejasi
1102.	Broker kim?	Bojxona vositachisi
1103.	Eksport hajmi nima?	Sotilgan tovar miqdori
1104.	Kontragent nima?	Shartnoma tomoni.
1105.	Eksport hujjatlari nima?	Savdo uchun zarur qog'ozlar
1106.	Xalqaro ko'rgazma nima?	Mahsulot taqdimoti maydoni
1107.	Eksportning foydasi nima?	Daromad va bozor kengayishi

№	Savol	Javob
Issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘limi		
1108.	Gidroponika issiqxonasi deganda nimani tushunasiz?	Gidroponika bu – o‘simlikni tuproqsiz, ozuqaviy eritmalarda sun’iy muhitda o‘stirish.
1109.	Aeroponika deb nimaga aytiladi?	O‘simliklarni havo muhitida tuproq ishlatmasdan yetishtirish texnologiyasi bo‘lib, oziqa moddalar ildiz tizimiga aerosol ko‘rinishida yetkaziladi.
1110.	1 gektar gidroponikada necha dona pomidor ko‘chatlari ekiladi?	1 gektar gidroponikaga 25-30 ming dona pomidor ko‘chatlari ekiladi.
1111.	Limonchilik issiqxona xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha hozirgi kunda qanaqa subsidiyalar mavjud.	Yangi limonzorlarni barpo etish va ko‘chatlarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning har bir sotixi uchun 300 ming so‘mdan oshmaydigan miqdorida. (PQ-4610-son qarorga asosan)
1112.	Vegetativ sabzavot turlariga misol keltiring	Ismaloq, ukrob, petrushka, selderey, karam, piyozlar, lavlagi, sabzi, sholgom, turp va rediska
1113.	Generativ sabzavot turlariga misol keltiring	Tarvuz, qovun, qovoq, pomidor, qalampir, bodring, patisson, baqlajon, shirin qalampir, shirin makkajo‘xori va dukkaklilar hamda mevalar.
1114.	Bir gektar yer maydonda pomidordan qancha urug‘lik olinadi?	30-60 kg
1115.	Qaysi sabzavotlar ko‘p miqdorda efir moylari saqlaydi?	Piyoz, sarimsoqpiyoz
1116.	Sabzavot ekinlari xayotini davomiyligiga ko‘ra necha yillik bo‘ladi?	Bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik
1117.	Ta‘minlanish qaysi darajada bo‘lsa davlat oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanishi xavfsiz hisoblanadi?	Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini kamida 80%ini o‘zi ishlab chiqarsa.
1118.	Meva va sabzavotlarni qayta ishlash texnologiyasining qay biri innovatsion hisoblanadi?	Ozonlashtirish, nur yordamida va impuls elektr maydonida ishlov berish, membrana texnologiyalaridan foydalanish.
1119.	Amaliy nuqtai-nazardan logistika — bu:	Tashkiliy-analitik maqbullashtirish asosida minimal xarajatlar bilan zaruriy sifatdagi va miqdordagi talab etiladigan mahsulotni kerakli joyda va vaqtda mavjudlariga nisbatan samarali variantlarini tanlash.
1120.	Meva-sabzavotlarni saqlashdagi muhim omillar nima?	Harorat, nisbiy namlik, dezinfeksiya
1121.	Etishtirilgan meva va sabzavotlarni necha foizi qayta ishlashga yo‘naltiriladi?	o‘rtacha 20-25 %
1122.	Issiqxonalarda zamonaviy –gidroponika usulida sabzavot yetishtirish, bu:	Bu usul o‘simliklarni tuproqsiz joyda parvarishlash bo‘lib, o‘simlik talab etiladigan oziqaviy moddalarni zaruriy miqdor va aniq nisbatlarda eritmalaridan oladi.
1123.	Ko‘p yillik sabzavot ekinlari bu ...	Otquloq, sparja, xren
1124.	Qovoqdoshlar oilasiga mansub sabzavot ...	Patisson
1125.	Tibbiy me‘yorlarga asosan har bir kishi yil davomida eng kamida necha kg sabzavot iste‘mol qilishi kerak?	119 kg
1126.	Karamguldoshlar oilasiga mansub sabzavotni ko‘rsating?	turp

№	Savol	Javob
1127.	Pomidorning eksport uchun mos nav va duragaylari qaysi	TMK-22, Zakovot, Sitora, Sulton
1128.	Pomidor oʻsimligini yilning qaysi davrlarida yetishtirish mumkin?	Yil davomida yetishtirish mumkin.
1129.	Issiqxonalarda pomidor va bodring qaysi muddatlarda yetishtiriladi?	Kuz-qish, qish-bahor
1130.	Ikki yillik sabzavotlar guruhini koʻrsating?	piyoz, sabzi, turp
1131.	Oziq-ovqat xavfsizligi nima?	Bu har bir odamning faol va sogʻlom xayot uchun zarur boʻlgan yetarli miqdordagi xavfsiz oziq-ovqat maxsulotlari uchun jismoniy va iqtisodiy imkoniyatga ega boʻlgan xolatdir.
1132.	Nima uchun sunʼiy mahsulotlar ishlab chiqariladi?	Oqsil resursini koʻpaytirish uchun.
1133.	Rivojlanayotgan davlatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini yoʻqotilish darajasi	40% dan ortiq
1134.	Gidroponika issiqxonalarda bodring yetishtirish afzalligi	Yersiz — zararkunandalar va kasalliklar kam boʻladi Vaqt va suv tejaldi Oziq moddalar aniq hisobda beriladi Oʻrtacha hosil: 30–50 kg/m ² (300–500 t/ga).
1135.	Issiqxona xoʻjaliklari faoliyati vaqtincha toʻxtatish sabablar	Zamonaviy qishloq xoʻjaligi laboratoriyalarining yetishmasligi, tabiiy gaz xarajatlarining oshib ketishi, gaz uchun toʻlov miqdorining xorijiy davlatlarga nisbatan ancha yuqoriligi, valyuta kursining keskin va doimiy ravishda oʻsib borishi, gidraponika usulida sabzavotlarni yetishtiruvchi professional mutaxasislarning yetishmasligi, belgilangan biznes-reja parametrlarining bajarilishi, har bir gektar issiqxonaning yetishtirilgan hosili va uni sotishdan tushumini bank hisobraqamlariga kirim qilinishi boʻyicha davlat soliq organlari va tijorat banklari tomonidan doimiy monitoring qilinmaganligi.
1136.	Zamonaviy issiqxona turlari	Haroratni boshqarishiga koʻra: Passiv issiqxonalar va Faol (klimat-kontrol) issiqxonalar Qurilish materiali boʻyicha: Polikarbonat issiqxonalar, Shisha (steklo) issiqxonalar, Plyonkali issiqxonalar Texnologik darajasi boʻyicha: yarim avtomatlashtirilgan, toʻliq avtomatlashtirilgan, internet orqali boshqariladigan.
1137.	Issiqxona xoʻjaliklarida yetishtirilaetgan shirin qalampir navlari	Klaudio F1, Kaliforniya Vandar, Belozerka, Atlant F1, Indalo F1
1138.	Issiqxonalarda pomidor hosildorligiga taʼsir etuvchi omillar.	harorat va namlik, oʻgʻitlash, yoritish, sugʻorish va xavo namligi, nav tanlovi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash
1139.	Issiqxonalarda pomidor niholini yetishtirishda issiqxona harorati nechki gradus boʻladi?	Harorat kunduzi 25-28 gradus kechasi 18-20

№	Savol	Javob
1140.	Oynavand issiqxona bilan plyonkali issiqxonalar yorug‘lik o‘tkazish foizi qancha va qaysi issiqxonada samaradorlik yuqori	Oynavand – 90% dan yuqori Plyonka 1-yil – 80% ga yaqinroq 2-yil – 70% dan past 3-yil 65 %
1141.	Limon yetishtirish uchun iqlimning qaysi ko‘rsatkichlari hal qiluvchi hisoblanadi?	Haroratning barqarorligi, sovuq stressining yo‘qligi, yetarli yorug‘lik va nisbiy namlik limon o‘sishi uchun asosiy omillardir.
1142.	Nima sababdan limon issiqxona sharoitida ko‘proq yetishtiriladi?	Issiqxonada mikroiklim boshqariladi, bu esa sovuqdan himoya, uzluksiz o‘shish va barqaror hosilni ta’minlaydi.
1143.	Limon uchun tuproqning mexanik tarkibi qanday bo‘lishi kerak?	Yengil qumloq yoki qumloq-loy tuproq, yaxshi aeratsiya va drenajga ega bo‘lishi kerak.
1144.	Limon ko‘chatlari uchun chuqur tayyorlashda nimalar hisobga olinadi?	Ildiz hajmi, tuproq unumdorligi va drenaj sharoiti e’tiborga olinadi.
1145.	Limonga to‘g‘ri shakl berib borilsa necha yil yashaydi	50-yil atrofida
1146.	F1 Toshkent limon navining boshqa limonlardan asosiy farqli jihati qaysilar.	Ta’mi shirin nordon, qand moddasi boshqa limonlarga nisbatan ko‘proq va po‘stlog‘I bilan istemol qilsa bo‘ladi.
1147.	Sitrus mevalar qaysi oilaga mansub?	Rutadoshlar
1148.	Sitrus mevalarning asl vatani qayer?	Janubi sharqiy Osiyo
1149.	Apelsin so‘zining ma’nosi?	Xitoy olmasi
1150.	Inson bir yilda necha kg sitrus istemol qiladi?	5.5 kg
1151.	O‘zbekiston hozirda necha tonna limon yetishtirmoqda?	60 ming
1152.	Limon tezroq hosilga kirishi uchun necha yoshlik ko‘chat ekish joiz?	3 yillik
1153.	Limon yetishtirilayotgan issiqxonadagi harorat necha darajadan yuqori bo‘lmasligi kerak.	35 C
1154.	Normal iqlimiy sharoit ta’minlab berilsa limon mevasi necha kunda yetilib pishadi.	120-140 kunda
1155.	Limon necha darajada sovuqda to‘liq nobut bo‘ladi ?	-8 -9 C
1156.	Limon g‘unchalarining normal rivojlanishi uchun harorat va namlik qanday bo‘lishi kerak?	+16 +18 C 70-80 % namlik
1157.	Tungi haroratning pasayishi limonga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	12°C dan past harorat o‘shishni sekinlashtiradi va stress keltirib chiqaradi.
1158.	Nima uchun havo namligi issiqxonada nazorat qilinadi?	Haddan tashqari namlik zamburug‘li kasalliklarni kuchaytiradi, past namlik esa barg to‘kilishiga olib keladi.
1159.	Limon uchun azotning ortiqcha bo‘lishi qanday oqibatlariga olib keladi?	Barglar haddan tashqari o‘sadi, ammo gullash va mevalanish kamayadi.
1160.	Fosfor limon rivojlanishida qaysi jarayonlarga ta’sir qiladi?	Ildiz rivoji, gullash va meva shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

№	Savol	Javob
1161.	Kaliy limon mevasining qaysi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi?	Meva o'lchami, po'stloq mustahkamligi va saqlanish qobiliyatini oshiradi.
1162.	Organik o'g'itlardan foydalanishning asosiy afzalligi nimada?	Tuproq strukturasi yaxshilaydi va mikroorganizmlar faolligini oshiradi.
1163.	Limonni butashda asosiy maqsad nima?	Yorug'likning toj ichiga kirishini ta'minlash va hosildor shoxlarni shakllantirish.
1164.	Haddan tashqari butash qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?	O'simlik stressga uchraydi va vaqtincha hosil kamayadi.
Jamg'arma faoliyatini rivojlantirish bo'limi		
1165.	Talab qonuni nimani anglatadi?	Narx oshsa, talab kamayadi
1166.	Taklif qonuni nimaga asoslanadi?	Narx oshsa, taklif oshadi
1167.	Bozor muvofiqligi qanday shartlarda yuzaga keladi?	Talab va taklif teng bo'lganda
1168.	Elastik talab deganda nima tushuniladi?	Narx o'zgarishi talabni katta o'zgartiradi
1169.	Monopoliya bozorining asosiy xususiyati nima?	Bitta sotuvchi bozorni nazorat qiladi
1170.	Oligopoliya bozorida nechta firma bozorni nazorat qiladi?	Bir nechta
1171.	Ishlab chiqarish xarajatlarining qaysi turi doimiy bo'ladi?	Ijara to'lovlari
1172.	Firma qisqa muddatda qanday xarajatlarni kamaytira oladi?	O'zgaruvchan xarajatlar
1173.	Foyda maksimizatsiyasi qanday shartda amalga oshadi?	Marginal daromad = marginal xarajat
1174.	To'liq raqobat bozorida narxlar qanday aniqlanadi?	Talab va taklif orqali
1175.	Talabning elastikligining asosiy omillaridan biri nima?	Mahsulotning almashtiruvchilari mavjudligi
1176.	Iste'molchilarning ortiqchasi nimani anglatadi?	Iste'molchi to'lagan narx bilan u to'lashga tayyor bo'lgan narx o'rtasidagi farq
1177.	Ishlab chiqaruvchilarning ortiqchasi qanday hisoblanadi?	Bozor narxi bilan minimal narx o'rtasidagi farq
1178.	"Ekonomika miqyosi" tushunchasi nimani anglatadi?	Ishlab chiqarish miqyosi oshganda birlik xarajatlarining kamayishi

№	Savol	Javob
1179.	To'liq raqobat bozorida firmalar qanday narx siyosatini qo'llaydi? Bozor narxiga amal qiladi	Bozor narxiga amal qiladi
1180.	Monopoliya bozorida narxlar qanday belgilanadi?	Monopolist tomonidan
1181.	Marginal xarajat deganda nima tushuniladi? Bir qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish xarajati	Bir qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish xarajati
1182.	Firma qanday shartda bozordan chiqib ketishi mumkin? Umumiy daromad doimiy xarajatlarni qoplay olmasa	Umumiy daromad doimiy xarajatlarni qoplay olmasa
1183.	Tovarning almashtiruvchisi narxi oshsa, nima yuzaga keladi?	Ushbu tovarga talab oshadi
1184.	Tovarning to'ldiruvchisi narxi oshsa, nima yuzaga keladi?	Ushbu tovarga talab kamayadi
1185.	YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot) nimani o'lchaydi?	Mamlakatdagi umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar
1186.	Inflyatsiya nimani anglatadi?	Narxlarning umumiy darajada ko'tarilishi
1187.	Deflyatsiya qanday vaziyatda yuzaga keladi?	Narxlar pasayganda
1188.	Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?	Ishsizlar soni / ishchi kuchi soni
1189.	Fiskal siyosat nimani nazorat qiladi?	Davlat xarajatlari va soliqlarni
1190.	Monetar siyosatni kim amalga oshiradi?	Markaziy bank
1191.	AQSh dollarining o'zbek sumiga nisbatan qadrsizlanishi qanday ta'sir qiladi?	Import narxlari oshadi
1192.	Iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri nima?	Investitsiyalar
1193.	Keynsian nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy retsessiyani yengish uchun nima qilish kerak?	Davlat xarajatlarini ko'paytirish
1194.	Monetaristlar nazdida inflyatsiyaning asosiy sababi nima?	Pul massasining ortiqcha oshishi

№	Savol	Javob
1195.	YaIMning real va nominal ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq nimada?	Real YaIM inflyatsiyani xisobga oladi, nominal YaIM esa yo'q
1196.	Iqtisodiy siklning qaysi bosqichida ishsizlik yuqori bo'ladi?	Retsessiya
1197.	Fillips qisqari nimani ko'rsatadi?	Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi teskari munosabat
1198.	Davlat byudjeti taqchilligi nimani anglatadi?	Davlat xarajatlari daromadlaridan ko'p
1199.	Monetar siyosatning asosiy maqsadi nima?	Narxlar stabiligini ta'minlash
1200.	Foiz stavkasining oshishi qanday oqibatlarga olib keladi?	Investitsiyalar kamayadi
1201.	Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi nima?	Real YaIMning oshishi
1202.	Keynsian nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun nima qilish kerak?	Davlat xarajatlarini ko'paytirish
1203.	Pul massasining ko'payishi qanday ta'sir qiladi?	Inflyatsiyaga olib keladi
1204.	Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi?	Iqtisodiyotda muqarrar ishsizlik darajasi
1205.	Xalqaro savdo nima uchun muhim?	Davlatlar o'rtasida resurslarni samarali taqsimlash uchun
1206.	Komparativ ustunlik nazariyasiga ko'ra, davlatlar nimaga ixtisoslashishi kerak?	Ular nisbatan samarali ishlab chiqara oladigan tovarlarga
1207.	Tovarning almashtiruvchisi narxi oshsa, nima yuzaga keladi?	Davlatlar o'rtasida resurslarni samarali taqsimlash uchun
1208.	Komparativ ustunlik nazariyasiga ko'ra, davlatlar nimaga ixtisoslashishi kerak	Ular nisbatan samarali ishlab chiqara oladigan tovarlarga
1209.	kursining qadrsizlanishi qanday ta'sir qiladi?	Eksportni oshiradi, importni kamaytiradi
1210.	Tariflar qanday maqsadda qo'yiladi?	Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish
1211.	Xalqaro savdo balansi nimani ko'rsatadi?	Eksport va import o'rtasidagi farqni
1212.	Proteksionizm nimani anglatadi?	Ichki bozorni importdan himoya qilish

№	Savol	Javob
1213.	Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning asosiy maqsadi nima?	Xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta'minlash
1214.	Valyuta kursining qat'iy va o'zgarmas turi qanday ataladi?	Fikslanigan valyuta kursi
1215.	Eksport subsidiyalari qanday ta'sir qiladi?	Eksportni rag'batlantiradi
1216.	To'lov balansi taqchilligi qanday yechiladi?	Valyuta zaxiralarini ishlatish orqali
1579.	Investitsiya loyihalarida risklar qanday baholanadi?	Iqlim, bozor, moliyaviy va siyosiy omillar tahlil qilinadi.
1580.	IFAD (International Fund for Agricultural Development) qaysi sohada faoliyat yuritadi?	IFAD qishloq joylarni rivojlantirish, kichik fermerlar va kam ta‘minlangan qishloq aholisi daromadini oshirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi. Uning asosiy maqsadi — qashshoqlikni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash.
1581.	Qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar qanday ishlar qiladi?	Xalqaro tashkilotlar zamonaviy agroteknologiyalarni joriy etadi, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi, bilim va tajriba almashuvini tashkil etadi hamda fermerlar uchun trening va texnik yordam ko‘rsatadi.
1582.	O‘zbekistonda qaysi agro-IT yechimlarini joriy etish mumkin?	Elektron subsidiyalar platformasi, agrar dashboard, agro mahsulot uchun onlayn birja, logistika trekingi, fermerlar uchun mobil ilovalar.
1583.	Blokcheyn texnologiyasini qishloq xo‘jaligida qanday qo‘llash mumkin?	Mahsulot kelib chiqishini nazorat qilish, eksportda shaffoflikni ta‘minlash, shartnomalarni avtomatlashtirish (smart-kontraktlar) uchun.
1584.	Qaysi agrar innovatsiyalar eksport uchun jozibador?	Organik yetishtirish texnologiyalari, qadoqlashning ekologik turlari, yuqori samarali sug‘orish tizimlari.
SIYoSIY (AGROSANOATNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI MARKAZI APPARAT VA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BO‘LIMI VA TUMAN LOYIHA OFIS XODIMLARI Uchun)		
1585.	2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalishlardan iborat?	Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat: - Xalqchil, adolatli davlat va faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. - Qonun ustuvorligi va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan sud-huquq tizimini ta‘minlash. - Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yuqori o‘sinh sur‘atlariga erishish. - Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish. - Milliy ma‘naviyatni yuksaltirish va sohaga oid islohotlarni amalga oshirish.

№	Savol	Javob
		- Xavfsizlik, do'stona va o'zaro manfaatli tashqi siyosatni yuritish. - Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida barqaror taraqqiyotni ta'minlash.
1586.	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tuzilishi nimalardan iborat?	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 27 bob va 155 moddadan iborat. Asosiy tuzilishi: I bo'lim: O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi. II bo'lim: Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari. III bo'lim: Jamiyat va davlatning iqtisodiy asoslari. IV bo'lim: Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. V bo'lim: Davlat hokimiyati va boshqaruvi. VI bo'lim: Konstitutsiyaning amalga oshirilishi va o'zgartirish tartibi
1587.	O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini aytib bering? Davlat boshqaruvi va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.	-Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. -Iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash. -Ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish. -Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish. -Milliy qadriyatlarni asrash va ma'naviy taraqqiyotga e'tibor qaratish. -Ekologiya va barqaror rivojlanishni ta'minlash.
1588.	O'zbekiston Respublikasi xalqi nomidan kimlar va qaysi organlar ish olib boradi?	Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat). Prezident – davlat boshlig'i sifatida xalq nomidan qarorlar qabul qiladi. Hukumat va mahalliy hokimiyat organlari – ijro hokimiyatini amalga oshiradi. Sud hokimiyati – qonun ustuvorligini ta'minlaydi.
1589.	O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarni sanab bering.	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP) "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP) "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi O'zbekiston Ekologik partiyasi
1590.	O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tizimini tushuntirib bering.	Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat) qonunlar qabul qiladi va hukumat faoliyatini nazorat qiladi. Ijro etuvchi hokimiyat – Prezident, Vazirlar Mahkamasi va hukumat siyosatni amalga oshiradi, davlat boshqaruvini yuritadi. Sud hokimiyati – Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud va boshqa sudlar qonun ustuvorligini ta'minlaydi

№	Savol	Javob
1591.	O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti nomi, palatalarining va a‘zolarining soni, vakolatlari haqida ma’lumot bering?	Palatalar: Qonunchilik palatasi – 150 nafar deputat Senat – 100 nafar senator Vakolatlari: Qonunlar qabul qilish va ko‘rib chiqish Davlat byudjeti va rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish Prezident tomonidan tayinlangan lavozimlarni tasdiqlash.
1592.	O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?	Davlat mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish. Tinchliksevar va do‘stona siyosat yuritish. Hamkorlik va o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlar. Xalqaro huquq normalariga rioya qilish. Davlatning ichki ishlariga aralashmaslik. Barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash.
1593.	O‘zbekistonda 2026 yil qanday nomlandi, bu yilning nomi bilan bog‘liq qanday hujjat qabul qilindi?	“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlandi. Bu yilga oid maxsus davlat dasturi qabul qilinadi, unda Mahallalarni yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish..
1594.	Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?	Biz adolatli, huquqiy va demokratik tamoyillarga asoslangan, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qiladigan, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlaydigan fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz.
1595.	Davlat hokimiyati boshqaruvga qarab qanday turlarga bo‘linadi?	Prezidentlik respublikasi: Prezident davlat boshlig‘i va ijroiya hokimiyat rahbari hisoblanadi. Parlamentlik respublikasi: Parlament qonun chiqaruvchi organ bo‘lib, ijroiya hokimiyatni bosh vazir boshqaradi. Aralash (yarim prezidentlik) respublika: Prezident va bosh vazir o‘rtasida ijroiya hokimiyat vakolatlari taqsimlangan.
1596.	Kimlar deputatlikka nomzod bo‘lishi mumkin? Kimlar nomzod bo‘lishi mumkin emas?	Deputatlikka nomzod bo‘lishi mumkin O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi kerak. 25 yoshga to‘lgan bo‘lishi lozim. Siyosiy partiya tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lishi shart. Doimiy ravishda O‘zbekiston hududida yashovchi shaxs bo‘lishi talab etiladi.

№	Savol	Javob
		Deputatlikka nomzod bo‘lishi mumkin emas Sud tomonidan harakat layoqatsiz deb topilgan shaxslar. Sudlanganligi tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar. Davlat xizmatidagi ayrim yuqori lavozimdagi amaldorlar (masalan, harbiylar, sudyalari, huquq-tartibot organlari xodimlari) o‘z lavozimidan iste’foga chiqmagan holda nomzod bo‘la olmaydi. Qo‘shaloq fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslar.
1597.	Davlat ramzlari deganda nimani tushunasiz? O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?	Davlat ramzlari — bu davlatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi belgilar bo‘lib, ularga davlat gerbi, bayrog‘i va madhiyasi kiradi. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan.
1598.	O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish kimning vakolatiga kiradi?	O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidentining vakolatiga kiradi.
1599.	O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon qabul qilingan?	1992 yil 2 iyulda qabul qilingan.
1600.	. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tarkibi nechta deputatdan iborat?	150 nafar deputatdan iborat
1601.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nechta bo‘lim, bob va moddadan iborat?	6 ta bo‘lim, 27 ta bob, 155 ta moddadan iborat.
1602.	. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?	1992 yil 10 dekabrda
1603.	Jismoniy va yuridik shaxslarning qanday murojaatlari ko‘rib chiqilmaydi?	Anonim murojaatlar (muallifi ko‘rsatilmagan); Qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermaydigan murojaatlar; Mazmunida haqorat, tuhmat yoki boshqa g‘ayriqonuniy ma’lumotlar mavjud bo‘lgan murojaatlar.
1604.	O‘zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasining qachon qabul qilingan?	1990 yil 20 iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan.
1605.	Yangi qabul qilingan konstitutsiyada 10 ta asosiy o‘zgarish bo‘ldi bular	Prezidentlik muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. O‘zbekiston – ijtimoiy davlat degan norma mustahkamlandi. Fuqarolarning ijtimoiy himoya va mehnat huquqlari mustahkamlandi. Sudlar mustaqilligi va inson huquqlarini himoya qilish tizimi kuchaytirildi.

№	Savol	Javob
		Ekologik huquqlar va resurslardan oqilona foydalanish normalari qo‘shildi. Mahalliy davlat organlarining vakolatlari kengaytirildi. Inson huquqlari bo‘yicha ombudsmanning vakolatlari kengaytirildi. Siyosiy plyuralizm va ko‘p partiyaviylik tamoyillari mustahkamlandi. Milliy va madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha normalar kuchaytirildi. Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha qoidalar joriy etildi.
1606.	Davlat byudjeti profitsiti nima?	Davlat byudjeti profitsiti – bu davlatning daromadlari xarajatlaridan ortiq bo‘lgan holatdir. Ya’ni, davlat xarajatlarini qoplagandan so‘ng ortiqcha mablag‘ qoladi.
1607.	Maxfiy axborot nima?	« maxfiy axborot » — ruxsatsiz tarqatilishi O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi xavfsizligiga va/yoki manfaatlariga zarar yetkazadigan, Tomonlar davlatlari milliy qonunlariga muvofiq himoya qilinadigan, ushbu Bitimda o‘rnatilgan tartibda berilgan hamda Tomonlarning hamkorligi jarayonida tashkil topgan barcha turdagi ma’lumotlar;
1608.	G2G ni tushuntirib bering?	G2G (Government-to-Government) — bu hukumatning turli tarmoklari yoki idoralari o‘rtasidagi muomala va xamkorlikni anglatadi. Bu modelda hukumatning bir tarmogi boshqa tarmok yoki idoraga xizmatlar, ma’lumotlar yoki resurslarni taqdim etadi. G2G aloqalar mamlakat ichidagi yoki xalqaro darajada amalga oshirilishi mumkin.
1609.	G2B ni tushuntirib bering?	G2B (inglizcha: Government to Business) – bu biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida ijro hokimiyati va tijorat tuzilmalari o‘rtasidagi onlayn o‘zaro hamkorlik uchun dasturiy va apparat vositalari to‘plami . G2B sinfiga davlat organlarining axborot veb-saytlari , elektron xaridlar tizimlari va boshqalar kiradi.
1610.	G2C ni tushuntirib bering?	G2C (Government to Citizen) modeli davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi elektron aloqadir. Uning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini ko‘rsatishni avtomatlashtirish va soddalashtirish, shuningdek, shaxsiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishdir.
1611.	Elektron hujjat to‘g‘risida tushuncha bering?	Elektron hujjat – elektron shakldagi axborotni o‘z ichiga olgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat hisoblanadi. U qog‘oz hujjatlar bilan teng huquqiy kuchga ega bo‘lib, davlat organlari va tashkilotlar tomonidan rasmiy ravishda qabul qilinishi mumkin. Elektron hujjatlar davlat xizmatlarida va kadrlarni boshqarish tizimida keng qo‘llaniladi, bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.
1612.	Elektron hukumat nima?	Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot elektron hujjatdir. Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi,

№	Savol	Javob
		ishlov beriladi va saqlanadi. Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.
1613.	Axborot xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?	Axborot xavfsizligi – bu axborot foydalanuvchilariga va ko‘plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun‘iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta’sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob’ektlarining himoyalanganligidi
1614.	Shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi qaysi organ?	Shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish agentligi hisoblanadi. U shaxsiy ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va himoya qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.
1615.	O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalish va maqsaddan tashkil topgan?	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalish hamda 100 ta maqsaddan iborat:
1616.	Ijro etuvchi hokimiyatni kim amalga oshiradi?	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari — vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar va inspeksiyalar (keyingi o‘rinlarda — vazirlik va idoralar) hamda ular hududiy va tuman (shahar) bo‘linmalarining Davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan moliyalash-tiriladigan jami boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
1617.	O‘zbekiston Respublikasi (yangi) Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?	2023 yil 30 aprel
1618.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nechta palatadan iborat, ularning vakolatlari nimasi bilan farq qiladi?	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan iborat: Qonunchilik palatasi – doimiy faoliyat yurituvchi quyi palata bo‘lib, qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish bilan shug‘ullanadi. Senat – yuqori palata bo‘lib, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni tasdiqlaydi yoki rad etadi, shuningdek, hududiy manfaatlarni himoya qiladi. Farqi: Qonunchilik palatasi qonunlarni ishlab chiqadi, Senat esa ularni tasdiqlaydi yoki rad etadi
1619.	O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qachon tasdiqlangan?	O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi 1992 yil 10 dekabrda Oliy Kengash tomonidan tasdiqlangan
1620.	O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti necha yil muddatga saylanadi, kimlar Prezidentlikka nomzod bo‘la oladi?	O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti 7 yil muddatga saylanadi. Prezidentlikka nomzod bo‘lishi uchun: O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi, 35 yoshdan kichik bo‘lmasligi, Davlat tilini yaxshi bilishi, O‘zbekistonda kamida 10 yil doimiy yashagan bo‘lishi lozim.
1621.	O‘zbekistonda qaysi davlat hokimiyati organi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi?	O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni Oliy Majlis Senati ratifikatsiya qiladi

№	Savol	Javob
1622.	“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi?	“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi – fuqarolar va tashkilotlarning davlat organlariga murojaat qilish huquqlarini ta’minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilashdan iborat.
1623.	Murojaatlar necha xil shaklda bo‘ladi?	Murojaatlar uch xil shaklda bo‘ladi: Ariza – shaxsiy huquq va manfaatlarga oid masalalarni hal qilish uchun, Taklif – davlat va jamiyat hayotini yaxshilash bo‘yicha takliflar, Shikoyat – huquqbuzarlik yoki nohaqlik yuzasidan shikoyat qilish.
1624.	Murojaatni tugatish qanday amalga oshiriladi?	Murojaatni tugatish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: Murojaatda ko‘tarilgan masala hal etilganda. Murojaat qiluvchiga tegishli javob berilganda. Murojaat tartibga muvofiq ko‘rib chiqilmasligi aniqlanganda. Murojaatni ko‘rib chiqish muddati o‘tgan yoki murojaat bekor qilinganda
1625.	Takroriy murojaat nima?	Shikoyat – shaxsning o‘z huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini buzilganda, qarorlar yoki harakatlar ustidan norozilik bildirib, davlat organlariga murojaat qilishi.
1626.	Elektron murojaat nima?	Elektron murojaat – jismoniy yoki yuridik shaxsning davlat organlariga elektron shaklda (veb-sayt, elektron pochta yoki maxsus platformalar orqali) yuborgan murojaati. U rasmiy hujjat sifatida qabul qilinadi
1627.	Murojaatlar qanday turlarda bo‘lishi mumkin?	Murojaatlar uch turda bo‘lishi mumkin: Ariza – shaxsiy huquq va manfaatlarga oid masalalarni hal etish talabi. Taklif – jamiyat va davlat ishlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar. Shikoyat – huquqbuzarlik yoki nohaq qarorlar yuzasidan norozilik bildirish.
1628.	Anonim murojaat nima? Uni ko‘rib chiqish oqibati qanday?	Anonim murojaat – murojaat qiluvchining shaxsi (ismi, manzili) ko‘rsatilmagan murojaat. Oqibati: Bunday murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi, agar ularda jinoyat yoki xavfli holatlar haqida ma’lumot bo‘lmasa.
1629.	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo‘yicha nazorat rejasi necha kun muddatda ijroga kiritiladi?	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo‘yicha nazorat rejasi qabul qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida ijroga kiritiladi.
1630.	Korrupsiya nima?	Korrupsiya – shaxsiy yoki guruhviy manfaatlarni ko‘zlab xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, pora olish va pora berish, mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish kabi harakatlar.
1631.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarurati nimalardan iborat edi?	-Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy realliklarga moslashtirish, -Fuqarolik jamiyati va inson huquqlarini mustahkamlash, -Davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish,

№	Savol	Javob
		-Raqamli iqtisodiyot va bozor munosabatlarini rivojlantirish, -Xalqaro huquqiy standartlarga muvofiqlashtirish.
1632.	Ijtimoiy davlat deganda nimani tushunasiz?	Ijtimoiy davlat – bu aholining kam ta’minlangan qatlamlarini himoya qilish, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan davlat. Unda ta’lim, tibbiyot, ish bilan ta’minlash va pensiya tizimi kabi sohalarda davlatning kafolatlari kuchli bo’ladi.
1633.	O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat tamoyillarini joriy qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar bosqichlarini aytib bering.	Birinchi bosqich (2016-2020 yillar): «Halq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyili joriy etildi. Ijtimoiy himoyani kuchaytirish maqsadida yangi dasturlar ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqich (2021-2023 yillar): Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi, unda ijtimoiy davlat prinsiplari mustahkamlandi. Kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlar va sog‘liqni saqlash tizimi isloh qilindi. Uchinchi bosqich (2024-yil va keyingi davr): Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat xizmatlarini avtomatlashtirish. Inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy tenglikni ta’minlash. Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni yanada kengaytirish.
1634.	O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida so‘zlab bering	-2020 yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilindi. -"Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. -Davlat xizmatchilari uchun deklaratsiyalash tizimi joriy etilmoqda. -Ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida elektron hukumat tizimi kengaytirildi. -Pora olish va mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish uchun jazo choralari kuchaytirildi.
1635.	Sudlar mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?	Sudlar mustaqilligi – sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmoqlaridan mustaqil bo‘lishi va faqat qonunga asoslanib qaror qabul qilishi. Sudyalar tashqi bosimlarsiz, xolis va adolatli ish yuritishi kerak.
1636.	Inson huquqlarini ta’minlash tamoyillarini aytib bering.	Qonuniylik – inson huquqlari qonunlar asosida himoya qilinadi. Tenglik – barcha fuqarolar irqi, millati, dini va ijtimoiy mavqeiga qaramasdan teng huquqlarga ega. Ochiqlik va oshkoralik – inson huquqlari masalalari jamoatchilikka ma’lum bo‘lishi kerak.

№	Savol	Javob
		Huquqiy himoya – inson huquqlari buzilganda sud va davlat organlari tomonidan himoya qilinadi. Xalqaro standartlarga moslik – inson huquqlari xalqaro normalarga muvofiq ta'minlanadi.
1637.	Jamoat nazorati nima va u qanday tartibga solinadi?.	Jamoat nazorati – fuqarolik jamiyati institutlari (OAV, NNT, jamoatchilik birlashmalari) tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan nazorat. Tartibga solinishi: "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan. Fuqarolar va jamoat tashkilotlari davlat organlari faoliyati bo'yicha taklif va shikoyatlar kiritish huquqiga ega.
1638.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi?	Konstitutsiyada "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan norma mustahkamlandi. Prezidentlik muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Fuqarolar uchun ijtimoiy himoya va mehnat huquqlari mustahkamlandi. Sudlar mustaqilligi va inson huquqlarini himoya qilish tizimi kuchaytirildi. Ekologik huquqlar va resurslardan oqilona foydalanish normalari qo'shildi.
1639.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida mahalliy davlat organlari faoliyati bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlarni so'zlab bering.	Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari kengaytirildi. Mahalla institutining o'rni kuchaytirildi va mahalliy masalalarni hal qilishda vakolatlari oshirildi. Mahalliy Kengashlarning mustaqilligi mustahkamlandi, hokimlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchaytirildi. Hududiy rivojlantirish dasturlari qabul qilindi, mahalliy byudjet va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.
Ichki audit bo'limi		
1640.	Ichki audit xizmati qaysi hujjatga asosan tashkil etiladi?	Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi №416-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom"ga asosan.
1641.	Ichki audit milliy malaka sertifikatini dastlab qancha muddatga beriladi?	Sertifikat dastlab to'rt yil muddatga beriladi, keyinchalik uning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytiriladi
1642.	Ichki audit xizmati kimga bo'ysunadi?	Davlat organi yoki tashkilot rahbariga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi mustaqil bo'linma hisoblanadi
1643.	Ichki audit faoliyatida amal qilinuvchi asosiy prinsiplar qaysilar?	Mustaqillik, xolislik, maxfiylik va kasbiy malaka.

№	Savol	Javob
1644.	Ichki audit milliy standartlariga asosan ichki audit yillik rejasida nimalar ko'rsatiladi?	Ichki audit tadbirlari o'tkaziladigan ichki audit ob'yektlari ro'yxati, ichki audit tadbirini o'tkazish muddati, ichki audit tadbiri bilan qamrab olinadigan davr va mas'ul xodim ko'rsatiladi
1645.	Ichki audit tadbiri hisoboti kimlar tomonidan imzolanadi?	Ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi (ichki audit xizmati xodimi) hamda ichki audit ob'yekti rahbari va moliyaviy-ho'jalik faoliyati bo'yicha mas'ul shaxslar
1646.	Ichki audit tadbiri xisoboti ichki audit ob'yekti rahbari yoki moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha mas'ul shaxslar tomonidan imzolanmagan taqdirda qanday ishlar amalga oshiriladi?	Ichki audit guruxi ushbu xaqida dalolatnoma rasmiylashtirib, ichki audit tadbiri xisobotiga ilova qiladi
1647.	Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq ichki audit ob'yekti tushunchasiga tarif bering?	Ichki audit tadbiri amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazirlik va idoralarning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari hamda tasarrufidagi byudjet tashkilotlari;
1648.	Ichki audit xizmatining hisobdorligi tug'risida tushincha bering	Ichki audit xizmati vazirlik va idoralarning bevosita birinchi rahbarlariga hisobdor hisoblanadi va Ichki audit xizmati faoliyati natijalari yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga hisobot choragidan keyingi oyning 20-sanasigacha choraklik hisobot hamda hisobot yilidan keyingi yilning 25 yanvariga qadar yillik hisobot taqdim etib boradi
1649.	Ichki audit bo'limi tomonidan tuziladigan yillik rejada qanday ma'lumotlar kiritiladi?	Ichki audit tadbirlari o'tkaziladigan ichki audit ob'yektlari ro'yxati, ichki audit tadbirini o'tkazish muddati, ichki audit tadbiri bilan qamrab olinadigan davr va mas'ul xodimlar ko'rsatiladi.
1650.	Ichki audit tadbirini qancha muddatda o'tkazish lozim?	yigirma ish kunidan oshmasligi kerak.
1651.	Ichki audit tadbiri hisobotiga qanday hujjat ilova qilinadi?	ichki audit ob'yektining chora-tadbirlar rejasi.
1652.	Ichki audit xizmatlarining audit tadbirlari qanday dasturiy kompleksda ro'yxatga olinadi?	«Davlat auditi» dasturida ro'yxatga olinadi:
1653.	O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunining asosiy maqsadi nimadan iborat?	Qonunning asosiy maqsadi — xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish va moliyaviy axborotning ishonchliligini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdir.

№	Savol	Javob
1654.	O‘ZASBO dasturining asosiy maqsadi nima?	Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirilgan tarzda yuritish, hisobotlarni elektron shaklda shakllantirish va nazorat qilish tizimini yaratish.
1655.	Byudjet ssudasi deganda nimani tushinasiz?	Qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari;
1656.	Subsidiya deganda nimani tushinasiz?	Tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari
1657.	Kassaning yagonaligi prinsipi degan nimani tushunasiz?	Byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to‘lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi;
1658.	Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish hamda uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi qaysi normativ-xujjat bilan belgilab berilgan?	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-avgustda 3548-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» 19-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) bilan.
1659.	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni baholash ularni qaysi qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi	Aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan;
1660.	Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi birinchi tushum - birinchi chiqim usuli qanday nomlanadi?	- FIFO (First In First Out - birinchi kirim-birinchi chiqim)
1661.	Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qaysi hujjatga asosan tashkil etiladi?	Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda №3406-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “ <i>Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi</i> ”ga asosan.
1662.	Qanday xollarda ichki audit milliy malaka sertifikatining amal kilishi tugatiladi?	Muayyan mansabni egallash, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish xuqukidan maxrum etish tarzidagi yoki ozodlikdan maxrum qilish bilan bog‘lik jazoni nazarda tutuvchi sud xukmi konuniy kuchga kirganda, sertifikat egasi Inspeksiya yoki ichki audit xizmatidagi faoliyati mobaynida olingan ximoyalangan ma’lumotlarni qonunchilikka xilof ravishda uchinchi shaxslarga taqdim etganda, sertifikat egasini belgilangan tartibda muomalaga layokatsiz yoki muomala layokati cheklangan deb topish tug‘risidagi sud qarori konuniy kuchga kirganda;
1663.	. Ichki audit ob’yektida ichki audit tadbirlari qanday xollarda o‘tqazilmaydi?	ob’yektda xuquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan surishtiruv yoki dastlabki tergov xarakatlari olib borilayotgan bo‘lsa;
1664.	Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash kimning vakolatiga kiradi?	Vazirlik va idora rahbari.

№	Savol	Javob
1665.	Ichki audit xizmati xodimi bir vaqtning o'zida nechta ichki audit tadbirida qatnashishi mumkin?	- bir vaqtning o'zida bittadan ortiq ichki audit tadbirlarida ishtirok eta olmaydi
1666.	Ichki audit xizmati davlat moliyaviy nazorati organlari bilan ichki audit tadbirini birgalikda o'tkazishi mumkinmi?	birgalikda o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.
1667.	Ichki audit tadbiri dasturi qanday ma'lumotlarga asos tuziladi?	ichki audit ob'yekti moliyaviy faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, hisobotlar, statistik ma'lumotlar va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa materiallar hamda ichki audit ob'yekti tomonidan xabarnomaga asosan taqdim etilgan ma'lumot va hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida tuziladi.
1668.	Ichki audit xizmati faoliyatini tashqi baholash kim tomonidan amalga oshiriladi?	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan.
1669.	Ichki audit ob'yektining xavf darajasi qanday aniqlanadi?	- xavf omiliga qo'yilgan ballni xavf omili vazniga ko'paytirish orqali xavf omili qiymati hisoblab chiqariladi hamda tanlab olingan xavf omillari qiymatlarining yig'indisi hisoblanadi.
1670.	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma qachon Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan?	O'zR AV 22.12.2010 yilda 2169 -son bilan ro'yxatdan o'tgan
1671.	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma"ga asosan xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi qaysi subschyotda aks ettiriladi?	171 subschyotda.
1672.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan dastlabki nazorat qachon amalga oshiriladi ?	- Moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar.
1673.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan o'rganish va nazorat tartibida tekshirish natijalari bo'yicha qanday xujjat tuziladi?	- ma'lumotnoma yoki xulosa.
1674.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan joriy nazorat qachon amalga oshiriladi?	moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida.
1675.	Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq ichki audit xizmatini tashkil etmasdan ichki audit faoliyatini boshqa qaysi tarkibiy tuzilmalarga yuklash mumkinmi?	Ichki audit faoliyatini boshqa tarkibiy tuzilmalarga yuklashga yo'l qo'yilmaydi.
1676.	. Ichki audit yillik rejasiga ichki audit ob'yektlari qaysi xolatidan kelib chiqib kiritiladi?	xavf darajasidan kelib chiqib.
1677.	. Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga muvofiq audit usullari nima maqsadlarda qo'llaniladi?	Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tadbiri davomida ichki audit ob'yektining moliyaviy faoliyatini o'rganish va audit dalillarini to'plash maqsadida

№	Savol	Javob
1678.	Ichki audit tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida ichki audit ob‘yektiga necha ish kuni oldin xabar beriladi?	- Bunda, xabarnoma ichki audit tadbiri boshlanishidan kamida 5 ish kuni avval ichki audit ob‘yekti rahbariga yuboriladi;
1679.	Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasiga muvofiq audit dalillari deganda nimani tushinasiz?	ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tadbiri davomida audit usullari va tahlillarni amalga oshirish orqali olingan ma‘lumot va hujjatlar.
1680.	Ichki audit xizmati xodimlarining malakasiga qanday talablar qo‘yilgan?	- Ichki audit xizmati xodimining malakasi ichki audit milliy malaka sertifikati orqali tasdiqlanadi.
1681.	Ichki audit tadbirlari qanday maqsadlarda o‘tkaziladi?	- byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlari profilaktikasini amalga oshirish hamda byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida.
1682.	Ichki audit xizmati tomonidan kelgusi yil uchun ichki audit yillik rejasi qachon ishlab chiqiladi.	har yili dekabr oyining 15 sanasiga qadar.
1683.	Ichki audit tadbiri ichki audit xizmati tomonidan qaysi xujjatga asos o‘tkaziladi.	- ichki audit yillik rejasiga asosan.
1684.	Ichki audit ob‘yektiga kimlar kiradi?	- ichki audit tadbiri amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazirlik va idoralar
1685.	Ichki audit ob‘yekti ichki audit xizmatidan chora-tadbirlar rejasida ko‘rsatilgan muayyan tadbirni amalga oshirish muddatini o‘zgartirish to‘g‘risida so‘rov yuborishi mumkinmi?	- faqat bir marta so‘rov yuborishi mumkin.
1686.	Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit ob‘yekti xavf darajalarini aniqlashda qanday xavf omillaridan foydalaniladi?	ichki audit ob‘yektining yillik moliyalashtirish hajmi; ichki audit ob‘yektiga ajratilgan mablag‘larning o‘zlashtirilishi; ichki audit ob‘yektida rahbariyat va moliya-xo‘jalik tuzilmalari xodimlarining qo‘nimsizligi; ichki audit ob‘yekti moliyaviy faoliyatiga oid jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari; ichki audit ob‘yektida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni; ichki audit ob‘yektining moliyalashtirish manbalari soni; ichki audit ob‘yektida o‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni; ichki audit ob‘yektida o‘tgan davr mobaynida tuzilgan shartnomalar soni; ichki audit ob‘yektida so‘nggi besh yil ichida moliyaviy nazorat va ichki audit tadbiri amalga oshirilmagan davr;

№	Savol	Javob
		ichki audit ob'yektining debitor qarzdorlik hajmining o'sishi; ichki audit ob'yektining kreditor qarzdorlik hajmining o'sishi.
1687.	Ichki audit yillik rejasini ishlab chiqish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?	ichki audit ob'yektlari ro'yxatini shakllantirish; ichki audit ob'yektlarining xavf darajasini baholash; ichki audit xizmatidagi mavjud resurslarni (inson va vaqt resurslari) aniqlash; ichki audit yillik rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.
1688.	Ichki audit tadbiri hisoboti tasdiqlangandan so'ng necha ish kuni ichida belgilangan tartibda «Davlat auditi» dasturiy kompleksiga kiritiladi?	- 3 ish kuni ichida
1689.	O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq, davlat moliyaviy nazoratining turlarini sanab bering.	dastlabki nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat
Olma yetishtirish bo'yicha savollar		
1690.	1. Olma yetishtiruvchi nimalarga tayyor turishi kerak?	Bahorda har yomg'irdan oldin va keyin ishlovlarni amalga oshirish Gullash oxiridan boshlab olma qurtiga har 10-14 kunda ishlov berish Kalsiy yetishmovchiligi (saqlashdagi muammolar) Solkashlik To'r yopilmagan holatlarda do'l muammosi Quyosh urishi Qushlar Shamolli hududlarda meva to'kilishi
1691.	Bahorda yomg'irdan oldin va keyin ishlovlarni amalga oshirish deganda, asosan qaysi sinflarga oid preparatlar qo'llanilishi ko'zda tutiladi?	Fungitsidlar va bakteresidlar
1692.	Olma mevasining eng xavfli kasalliklarini sanab bering.	Bakterial kuyish va olma qo'tiri (parsha)
1693.	Olma qurtiga qarshi to'g'ri kurash qaysi tadbirdan boshlanadi?	Feromon tuzoq o'rnatig va olma qurti kapalaklarini kuzatish
1694.	Olmada Bitter pit yoki Achqintir dog'lar nomli kasallik yuzaga kelishiga aynan qaysi modda yetishmovchiligi sabab bo'ladi?	Kalsiy

№	Savol	Javob
1695.	Olmada solkashlik yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan jarayonni izohlab bering.	Yosh mevalar haddan tashqari ko‘p bo‘lganida ularning ichidagi urug‘lar ko‘p bo‘ladi. Urug‘lar ko‘p bo‘lganida gibberelin moddasi miqdori ortib ketadi va bu kelasi yilgi gul kurtaklarni vegetativ kurtaklarga aylanib qolishiga sabab bo‘ladi
1696.	Olmada solkashlikni oldini olishda qo‘llaniladigan preparatlarga misol keltiring.	NAA, 6BA, Metamitron
1697.	Solkashlikka qarshi beriladigan ishlovlar mevalar diametriga qarab amalga oshiriladi. Aniq raqamlarni keltiring.	NAA, 6BA: 7 mm dan 12 mm gacha Metamitron: 12-16 mm
1698.	Olmada har yili sifatli va o‘zgarmas hosil olish uchun harakatlar ketma-ketligi qanday bo‘lishi kerak?	1. To‘g‘ri kesish 2. Yosh mevalarni kimyoviy siyraklashtirish Iyun oyidagi to‘kilishdan keyin mevalarni qo‘lda siyraklashtirish
1699.	Olmada do‘l va quyoshga qarshi kurashning eng samarali usuli nima?	Quyosh va do‘lga qarshi himoya to‘rlarini o‘rnatish
1700.	O‘zbekiston sharoitida olma mevalarini quyosh urishidan himoya qilish chora-tadbirlarini sanab bering.	Quyoshdan himoya to‘rlarini o‘rnatish, to‘g‘ri kesish, mevalarni o‘z vaqtida siyraklashtirish (mevalar ko‘p va mayda bo‘lsa quyosh zarari ko‘proq kuzatiladi), Kaolin loyini sepish
1701.	Olmada terimga yaqin meva to‘kilishini kamaytirish usullarini sanab bering.	Geni jihatdan to‘kilishga moyil bo‘lmagan nav ekish, meva terimi vaqtini to‘g‘ri aniqlash (pishib ketgan istalgan nav to‘kiladi), terimga yaqin 2 marta NAA qo‘llash
1702.	Olmada terim vaqtini aniqlash usullariga misol keltiring.	- Gullashdan pishish davrigacha bo‘lgan kunlar soni (navga qarab) - Kraxmal testi - Qattiqlik testi - Shakar miqdori - Orqa fon rangi - Urug‘ rangi Mevalar ustki qismining yog‘lanishi
1703.	Olma yetishtirish uchun qulay iqlim va tuproq sharoiti qanday bo‘lishi kerak?	- Yozi issiq bo‘lmagan, tog‘ oldi va tog‘li hududlar (dengiz sathidan 1000 metr va undan balandda joylashgan hududlar), ayniqsa qizil navlar uchun (Galaning qizil klonlari, Jeromin, Fuji, For Leydi, Pink Leydi) - Yozi nisbatan issiqroq va ertaki bo‘lgan zonalarga faqatgina iyul oxirigacha pishadigan (yoki o‘ta kechki, misol uchun Pink Leydi) navlar tavsiya qilinadi Olma yetishtirish uchun og‘ir va loyli tuproqlarni tanlagan ma‘qul.
1704.	O‘zbekiston bo‘ylab olma yetishtirish uchun qulay bo‘lgan hududlarga misol keltiring.	- Baxmal - Zomin (tog‘li qismlari) - Bulung‘ur (tog‘li qismlari) - Urgut


№	Savol	Javob
		- Sangardak (Sariosiyo va Uzun tumanlari) - Shaxrisabz va Kitob - Yangiqo'rg'on (tog'li qismlari) Bo'stonliq
1705.	Yarim pakana va pakana olma payvandtaglari nomlarini bilasizmi?	MM.106 va M.9
1706.	MM.106 va M.9 payvandtaglari o'rtasidagi farqlarni sanab bering.	MM.106: o'sish kuchi baland, ustun va simlarsiz ham ekish mumkin, tomichlatib sug'orish tizimini o'rnatish mumkin ammo majburiy emas, qon bitiga nisbatan chidamliroq M.9: daraxt o'sish kuchi past, ustun va simlarsiz ekish mumkin emas, tomichlatib sug'orish tizimini o'rnatish majburiy, qon bitiga nisbatan chidamsirzoq; erta, yuqori va siftali hosil bera oladi
1707.	Qaysi olma navlarini issiq hududlarga ekish mumkin emas va nega?	Jeromin, Krimson, Red Chif, Super Chif va istalgan qizil olma navini Yuqoridagi olma navlari O'zbekiston sharoitida dengiz sathidan eng kamida 1000 metr balandlikka (qancha baland bo'lsa shuncha yaxshi) ekilganida qizil rang oladi va terimga yaqin to'kilib ketmaydi.
1708.	Issiq hududlarda ham nisbatan yaxshi rang oladigan navlarni sanab bering.	Devil Gala, Rozi Glou, Modi, For Leydi
1709.	Devil Gala navining pishish vaqti?	O'rtaki zonalarda iyul oxiri, kechki zonalarda avgustning birinchi o'n kunligida pishishi mumkin.
1710.	Rozi Glou navining pishish vaqti?	Mavsumiy ob-havo sharoitlridan kelib chiqib oktyabr oxiri, noyabrning birinchi o'n kunligida pishishi mumkin.
1711.	Uzoq muddat (6 oydan ko'proq) saqlash maqsad qilinganida Golden Reynders navi odatda qachon teriladi?	Avgust o'rtasida
1712.	Olmaning Grenni Smit navi har yili meva bera oladi va solkashlikka deyarli chalinmaydi. Bunga sabab nima?	Ushbu nav ortiqcha mevalarini o'zi to'ka oladi, ya'ni o'zini-o'zi siyraklashtiradi.
1713.	Olma qo'tiriga chidamli olma navlarini sanab bering.	Modi, Liberti
1714.	Solkashlikka o'ta chalinuvchan, kuchli o'suvchi va qon bitiga chidamsiz olma naviga misol keltiring.	Fuji navi
1715.	Krips Pink navining tijoriy nomini bilasizmi? O'zbekistondagi qaysi klonlarini bilasiz?	Pink Lesdi tijoriy nomi. Rozi Glou esa O'zbekistondagi eng qizil kloni.
1716.	M.9 payvandtagidagi olma bog'i uchun optimal ekish sxemalari qaysilar?	4x1, 3.5x0.8, 3.5x1 metr (Toll Spind usulida shakl berilsa va nav o'sish kuchi standart bo'lsa)

№	Savol	Javob
1717.	MM.106 payvandtagi uchun optimal ekish sxemasi qaysilar?	5x2.5 (bir yarusli markaziy yetakchi usulida shakl berilsa va nav o'sish kuchi standart bo'lsa), 5x3 metr (Vazasimon usulda shakl berilsa va nav o'sish kuchi standart yoki yuqori bo'lsa)
1718.	Quyidagi shakl berish usulining nomi nima? 	Toll Spindel
1719.	Quyidagi shakl berish usulining nomi nima? 	Bi Baum
1720.	Quyidagi shakl berish usulining nomi nima? 	Ochiq Tatura

№	Savol	Javob
1721.	Quyidagi shakl berish usulining nomi nima? 	UFO
1722.	Olmadagi eng asosiy zamburug‘li kasalliklarni sanab bering.	Parsha (Olma qo‘tiri) Bakterial kuyish Un shudring Fitofthoroz
1723.	Parshaga qarshi kurashda qo‘llash mumkin 1 ta kontaktli va 1 ta tizimli preparatga misol keltiring.	Kontaktli: Mankotseb, Kaptan Tizimli: Difenokonazol, Siprodinil
1724.	Bakterial kuyish kasalligiga to‘g‘ri kurash choralari ketma-ketligi qanday bo‘ladi?	- Chidamli nav ekish - Chidamli nav ekilmagan bo‘lsa, har yomg‘irdan oldin va keyin ro‘yxatdan o‘tgan antibiotiklar bilan ishlov berish Kasallangan novda / shox va daraxtlarni o‘z vaqtida bog‘dan olib chiqib tashlash

№	Savol	Javob
1725.	Quyida qaysi kasallik belgilarini ko‘rish mumkin?	Bakterial kuyish
1726.	Quyida qaysi kasallik belgilarini ko‘rish mumkin?	Olma qo‘tiri (Parsha)

№	Savol	Javob
1727.	Quyida qaysi kasallik belgilarini ko‘rish mumkin?	Un shudringi
1728.	Olmadagi eng asosiy zararkunandalar qaysilar?	- Olma qurti - Olma kulgich qo‘ng‘izi - Kaliforniya qalqondori - Qon biti - O‘rgimchak kana - Yashil shira
1729.	Ushbu zararkunanda nima deb ataladi?	Olma qurti kapalagi

№	Savol	Javob
1730.	Olmadagi ushbu zararkunandaning nomi nima?	 Olma kulgich qo'ng'izi
1731.	Mevadagi ushbu shikastlanishlar olmadagi qaysi zararkunanda tomonidan yetkazilgan?	Olma kulgich qo'ng'izi 

№	Savol	Javob
1732.	Olmadagi ushbu zararkunanda nomini toping.	Kaliforniya qalqondori 
1733.	Olmadagi ushbu zararkunanda nomini toping.	Qon biti 

№	Savol	Javob
1734.	Ushbu hashorat zararli mi? Uni nomini toping.	Xon qizi, foydali hashorat hisoblanadi. Shiralar bilan oziqlanadi. 
1735.	Yoshi katta mevaga kirgan olma daraxtlarida qaysi o'g'it muhim hisoblanadi va nega?	Kaliy. Kaliy moddasi bog'dan meva bilan eng ko'p miqdorda chiqib ketadigan modda hisoblanadi. Daraxtlarda kaliy yetishmovchiligi meva ranglanishi va yirikligiga ta'sir qilishi mumkin.
1736.	Azot qo'llashdagi eng asosiy qoidani ayting.	Daraxtlarning o'sishi va hosildorlikdan kelib chiqib qo'llaniladi
1737.	Temir yetishmovchiligi qanday belgilar bilan namoyon bo'ladi?	Yosh novdalar uchidagi yangi barglar sarg'ayib ketadi
1738.	Olma bog'larida tomchilatib sug'orish tizimlariga qanday talablar qo'yiladi?	- Tomizg'ichlar debeti: 1.6, 2, 4 litr / soat - Tomizg'ichlar orasi: 50 sm - Shlanglar diametri: 16 / 20 mm - M9 bo'lsa bir qator, MM106 va MM111 ga ikki qator - Maksimal sug'orish soati: 18-20 soat mukammal Har bir 1 gektar maydonga maksimumda kuniga talab qilinadigan suv miqdori: 50-70 tonna

№	Savol	Javob
1739.	Olma terimi vaqtini aniqlashda qo'llaniladigan ushbu test nomi nima?	Yod yoki kraxmal testi 